


+

 YOSHLAR
KUTUBXONASI

Luqmon BO'RIXON

QUYOSH HALI BOTMAGAN



Luqmon BO‘RIXON

QUYOSH HALI BOTMAGAN



Yoshlar nashriyot uyi
Toshkent – 2018

UO‘K 821.512.133-31

KBK 84(5O‘)6

B 99 Bo‘rixon

Bo‘rixon, Luqmon

Quyosh hali botmagan: qissa / L. Bo‘rixon. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 176 b.

Taniqli yozuvchi Luqmon Bo‘rixon bir qator roman qissa hamda hikoyalari bilan kitobxonlar e‘tiborini qozongan.”Quyosh hali botmagan” qissasida adib yoshlarning turfa sargo‘zashtlari, hayot so‘qmolalarida duch kelgan sinovlari, jasorat, mardlik va muhabbat mojarolaridan hikoya qiladi.

Asar keng kitobxonlar hamda o‘smir-yoshlarni ommasiga mo‘ljallangan.

UO‘K 821.512.133-31

KBK 84(5O‘)6

ISBN 978-9943-5220-0-8

© L. Bo‘rixon
© Yoshlar nashriyot
uyi, 2018

QUYOSH HALI BOTMAGAN

Qissa

*Sahro so 'qmog'ida boshin egib jim,
Bir kimsa ketmoqda, bilmasman u kim...*

Abdulla Oripov


Biz hali Absal polvonni tanimas edik.

Ming to‘qqiz yuz sakson ikkinchi yilning bahorida, erta-indin jahon urushi boshlanar emish degan mish-mishlar xo‘b avj olgan kunlarning birida usta Abilning uyida qoramag‘iz, to‘zg‘in sochlari jingiltob, qoshlari qiyg‘och, kipriklari uzun-uzun, ko‘zlari ma‘yus, yetti-sakkiz yashar qizaloq paydo bo‘ldi. Jang-u jadal boshlanib, atom bombalari kasofatidan dunyoning kuli ko‘kka sovrilsa, mol-u mulkim kimga ham qolardi degan o‘yda iztirob chekib yurgan usta Abil sahar chog‘i bisotidagi bor-yo‘q ikki bosh oriq qo‘yni bir paytlar pochtachi Tog‘ay tog‘adan sotib olgan mototsikli aravachasiga yuklab viloyat markazi biqinidagi bozorga yo‘l olgan va kechga yaqin ko‘rganlarni hang-u mang qoldirib shu qizchani olib qaytgan edi. Kimdir uni shahardagi tashlandiq bolalar internatidan xatlab olibdi desa, tag‘in birov usta qizchani bir bosh sovliq evaziga lo‘lilardan sotib olgani haqida gap-so‘z tarqatdi, ya‘ni allakimning qasamlar ichib pichirlashi-cha, harbiy xizmat chog‘i Abil bilan do‘sst tutingan marilik bir turkman chavandoz qiyomatlik birodari ko‘p yillardan beri tirdoqqa zor, aziyat chekib yurgani-

146

-33-

517



ga chidayolmay o‘zining besh qizidan birini jo‘rasiga farzandlikka beribdi. Alqissa, bunday mish-mishlarning, shivir-shivirlarning uch-quyrug‘i yo‘q edi. Kimning gapi chin, kimniki o‘trik, birov aniq-tiniq bilmaydi. Ammo bir hol aniq ediki, o‘sha kuni Ul-don checha eri boshlab kelgan qizaloqni ko‘z yosh-u siniq tabassumlar bilan bag‘riga olgan, manglayidan o‘pib, sochlarini silagan, yuz-ko‘zida mammunlik, minnatdorlik zohir bo‘lgan.

Kengsoyliklar bu mushtipar er-u xotin tutgan yo‘lni ma‘nullashdi, farzand bilan qutlab, ularning quvonchiga sherik bo‘lishdi, biroq Abil akaning otasi mulla Mirzagina to‘nni teskari kiyib oldi. U qizaloqni ilk ko‘rgandayoq shosha-pisha kalimai shahodatni tilga olib, qo‘lini yuziga pardalar qilib, buning eni boshqa, qavmi betayin, tezroq ko‘zdan daf qil, bu bola emas, balo bo‘ladi, deya arazlab hovlidan chiqib ketdi. Lekin oradan uch-to‘rt kun o‘tib, farzandli bo‘lganini el-ulusga bildirib qo‘yish ilinjida o‘g‘li o‘tkazgan kichkinagina ma’rakaga o‘zi bosh-qosh bo‘ldi, qari-qartanglarni qizaloq haqiga duo qilishga bot-bot undab turdi.

Qizchaning ismi Tanzila ekan! Abil aka keltirgan yaltiroq jild ichidagi hujjatlarda aynan shunday deb yozilgan edi. Mazmun-ma’nosni anchagina mavhum, ammo jarangdor, jozibali, sirlitob bu ism, ayniqsa, er-u xotinga yoqib tushdi, mulla Mirzaning, hech qursa, otini o‘zgartiraylik, deya zorlanishlariga parvo ham qilishmadni.

O‘sha kezlar men to‘rtinchchi sinfda o‘qir edim. Qo‘riqdagagi bu befayz, besarishta posyolkaga tog‘ etagidagi katta qishloqdan atigi bir yil avval, otamning vafotidan keyin, tirikchiligimiz xiyla tanglashib qolgach, Quvondiq akani qora tortib ko‘chib kel-

gan edik. Quvondiq aka otamning eski qadrdonlari dan bo'lib, tog' tomonlarga yo'li tushgan paytlari ba'zan biznikiga ham qo'nib o'tar, momoqaldiroq-dek guldirab gurungni gurungga ular, ora-chora jo'rasini ham cho'lga ko'chib borishga da'vat qilar, mehmon ketgach, u haqida qiziqsinib so'rab-surishtirgan chog'imiz, otam do'stining qo'riqdag'i yirik davlat xo'jaliklaridan biriga rahbarligi, el ichida Quvondiq qaysar nomi bilan mashhurligi, mard, dovyurak, tanti inson ekanligi to'g'risida maroq bilan gapirar edi.

U otam ta'riflagandan ham ortiq odam ekan. Bizni ochiq chehra bilan kutib oldi, quyma betondan qurilgan to'rt xonali uy berdi, akamni sovxozi garajiga ishga joyladi, onda-sonda ko'rinish qo'ysangiz bas, nevaralarning qand-qursiga yetadigan uch-to'rt so'm olib turasiz, deb, hatto onamni ham xizmatchi sifatida hujjatlarga tirkab qo'ydi. Xullas, mulla Mirzanning ta'rifi bilan aytganda, ko'z ochib yumguncha oylikxo'r oilaga aylandik.

Chor atrof bepoyon dala-dasht. Ekin paykallari uzoq-uzoqlarga yastanib ketgan. Nari-beri kovlangan zovur ichlarida, suv ko'llagan soyliklarda quyuq o'siq qamishzorlar, yulg'unzorlar daydi dasht shamolida vahimali shitirlab, chayqalib turadi. Tog' etagidagi bog'-rog'lar ko'zimga singib ketganidanmi, har nechuk, unda-munda hurpaygan yakkam-dukkam qandaydir dov-daraxtlarni hisoblamaganda bu yerlar anchayin yupun-yalang'och tuyilardi. Ellik-oltmisx xo'jalikka mo'ljallab qurilgan, barchasi bir-biriga o'xshash beton kottejlardan iborat posyolka rasmiy hujjatlarda "41-sovxozi" deb yuritilsa-da, bir chekkasi mashhur Kengsoy kengliklariga tutashib ketgani uchun ham ko'pchilik uni Kengsoy qishlog'i deb atardi.

Ko'chib kelgan kunimiz uch-to'rt bosh qo'y-ech-kimizni o'tlatib zovur tomonga borib qoldim. Bir payt baland-baland tuproq v'yumlari ortidan o'zim tengi besh-olti bola qiyqirishgancha otilib chiqib meni qur-shovga olishdi. Hammasi yarim yalang'och, kinolar-dagi hindularga taqlidan aft-angorlariga, badanlariga turli bo'yoqlar surkab, boshlariga o'ralgan ipga tovuq patlari qadab olgan, biri yog'och miltiq, birisi o'q-yoy tutgan edi. Boshqalariga qaraganda bo'ychan va baquvvat, chayir bola safdan ajralib men tomon yurarkan o'ng qo'lini musht qilib boshi uzra baland ko'tardi. Xuddi shuni kutib turgandek qolganlari bab-baravar qichqirib yuborishdi.

– Quyosh hali botmagan!

Men butkul dovdirab qoldim. Bolalarning bo'yab tashlangan basharalariga qarab bir kulgim qistasa, bir ularning vajohatini ko'rib ko'nglimga g'ulg'ula oralardi. Oldga chiqqan bola yana hindu sardori kabi o'ng kaftini avval manglayiga, labiga tegizdi, so'ng boshi uzra bir aylantirib ko'ksiga bosdi.

– Biz Kengsoy burgutlarimiz! Sen kimsan, ey, o'g'lon?

– Men... Norsoatman, – dedim o'zimni tetik tutib, – bu yerga bugun ko'chib keldik.

– Olishasanmi yo urushasanmi?

Biroz o'ylanib qoldim. Urushsam, biror yerim jarohatlanishi mumkin, yaxshisi kurash tushganim ma'qul, juda zo'r bo'lsa, ko'p cho'zmay, yiqilibgina qo'yaman.

– Nega jimsan, Norsoat? – dedi bola o'sha tanta-navor tovushda, – yo qo'rqedingmi, o'g'lon?

– Qo'rqqanim yo'q, olishaman.

U oqsoqollarga xos tarzda bosh irg'ab gapimni ma'qullagan bo'ldi-da, to'dadagi kirchil sochlari

hurpaygan, yelkasiga kamon osgan bolaga im qoqdi. Bola o‘q-yoyini chaqqonlik bilan sheriklaridan biringa tutqazdi-yu, irg‘ishlab o‘rtaga chiqdi. Men ham shalviragan yenglarimni shimarib raqibga ro‘baro‘ bo‘ldim. U, aftidan, bir hamlada meni qulatishni mo‘ljallagan shekilli, hanuz irg‘ishlagan ko‘yi atrofimda aylana boshladi. Tog‘dagi qishlog‘imizda kurashga qiziqmaydigan, unda-munda davraga tu-shib turmaydigan bolaning o‘zi yo‘q edi. Goh ko‘chako‘yda, goh to‘y-hashamda bir-birimiz bilan yoqalashib qolardik. Hartugul, bo‘yinsalarimning ko‘pisididan ustun kelardim. Tog‘alarim ham polvon deb erkalashardi. Mana, ovloq cho‘l qo‘ynidagi ovloq bir joyda ilk raqibim bilan yuzlashdim. U anchiagina tajribali ko‘rinardi. Ammo men uning ayyorona rejasini payqab qoldim. Bola atrofimda irg‘ishlay turib, chap to‘pig‘imning andak yuqorisiga tepki yo‘lladi. Shu barobarida chap biagimdan chaqqonlik bilan ushlab tortdi. Biroq men u tepki yo‘llagan oyog‘imni darhol olib qochdim, bolaning zarbasi havoga ketdi. O‘zi esa muvozanatini yo‘qotib yerga chalpak bo‘lib tushdi. Men vaqt ni boy bermay raqibning ustiga o‘zimni tashlab, kuraklarini yerga tegizdim.

– Halol. Sen g‘olibsan, Norsoat o‘g‘lon! – dedi Sardor o‘sha-o‘sha baland, tantanali tovushda. (Bolalarning gap-so‘zlaridan uning ismi Davronligini bilib qoldim).

Bu yog‘i tezlashib ketdi. Eng avval Davron, so‘ng to‘dadagi bolalar men bilan qo‘l berib ko‘rishib chi-qishdi. Tanishdik, haligina qiyqirib,depsinib turgan jangari to‘da, oddiy, yuvosh va sho‘x kengsoylit bolla-rga aylandi-qoldi. Zovur bo‘yida o‘tirib o‘zimizcha gurunglashgan bo‘ldik.

Davron Quvondiq akaning, otam aytganday, katta bir shirkat xo'jaligi rahbarining o'g'li ekan! Ertasi kuni u meni maktabga boshlab bordi. Sinfdosh bo'ldik.

Biz hali Absal polvonni tanimas edik.

Ko'p o'tmay uning, ya'ni hindular sardorining o'ng qo'liga aylandim. Chunki keyingi bellashuvlar ham mening shu lavozimga munosib ekanligimni ko'rsatdi. Men Davrondan boshqa barcha bolalarni kurashda yiqitdim. Hatto, yoshi o'zimdan katta ba'zi birlari ham mendan yengildi. Faqatgina Davronga kuchim yetmasdi. U chayir va baquvvat bo'lishidan tashqari, qandaydir shiddat-shijoat va ehtiros egasi edi. Kurash payti shu qadar tez usullar qo'llardiki, ko'z ochib-yumguncha yulduz sanay boshlaganimni bilmay qolardim. Davron favqulodda dovyurak, chapani bola edi. Goho to'p bo'lib tuman markaziga borgan kezlarimiz, uning bir o'zi o'sha yerlik uch-to'rttasi bilan birvarakayiga mushtlashib g'olib chiqardi. Har lahzada qochib qolishga shay biz "Kengsoy burgutlari» uning jasoratidan ruhlanib, boshimizni mag'rur ko'tarardik.

Davron yaqin-u yiroqda urushqoq, bezoriligi bilan nom chiqargan bo'lishiga qaramay, hech kutilmagan-da, maktabning eng a'lochi o'quvchilaridan biri ham edi. Uning muk tushib, soatlab kitob o'qib o'tirganini ko'p ko'rardik. Dostonlar, har xil ertag-u cho'pchaklar, astidan, Davronning jonu dili edi. Odatda, u o'qiganiqliari ta'siriga tez berilib, goh Kenja botir, goh Al-pomish qiyofasiga kirishga oshiqardi.

Biz ham sardorga ergashib o'sha ertagu doston qahramonlariga xos tarzda kiyinishga, "qurollanish"-ga majbur bo'lardik. Davron qo'y-qo'zi ortidan yaylovga chiqishimizdan avval hammamizni safga tizib, libosimizdan tortib, yog'och qilich-u nayzamizgacha

obdon ko‘zdan kechirib chiqar, hol-ahvolimizdan ko‘ngli to‘lsa, odatdagiday, o‘ng qo‘lini boshi uzra baland ko‘tarar, biz ham unga javoban bab-baravar havoga musht o‘qtalib, bab-baravar hayqirardik.

– Quyosh hali botmagan!

Davron o‘ta tegmanozik, arazchi bola edi. Arzimanigan narsadan ham nafsoniyati qo‘zg‘alib qosh-qoboq uyib olar, uni hovuridan tushirish uchun xushomadlar qilingan sayin battar jazavasi tutar, o‘yin bo‘lsa o‘ynini, yig‘in bo‘lsa, yig‘inni tashlab qaylargadir ketib qolardi.

Bir kuni Davron maktabga, hali biz taraflarda urf bo‘limgan kamzul, yangi tufti kiyib keldi. O‘sha sarton Sochi degan joyda dam olib qaytgan otasining sovg‘asi ekan. Sinfdoshimiz liboslarini ko‘z-ko‘z qila-qila shunday deb maqtandi. Biz hatto qo‘l tegizishga ham botina olmay, do‘sstimizga yarashib turgan kamzul va tuftini havas bilan tomosha qildik. Ammotarix darsi payti ko‘ngil xiralik ro‘y berdi.

“Kuyov jigit bo‘p ketibsiz-ku, Tirkaship”, – deb kulimsiradi muallim.

Davron ilkis bosh ko‘tardi. Lablari qimtilib, qoshlari chimrildi. So‘ng alam va achchiqdan qip-qizargan ko‘yi o‘rnidan irg‘ib turdi-da eshik tomon shitob bilan yurdi. Muallimning rangida rang qolmadni. Kimsan, rais, kimsan, Quvondiq qaysar bo‘lgan odamning bolasini xafa qilish qanday oqibatlarga olib kelishini u juda yaxshi bilardi. O‘qituvchi qo‘llarini qanotday yoyib arazchining yo‘lini to‘sishga urinarkan, yalinchchoq bir tovushda:

“Davronjon, uzr, Davronjon, hazillashdim”, – deya bot-bot takrorlardi.

Ammo sarkash bola unga zarracha qulq solmay o‘zi tomon iltijo bilan uzalgan qo‘llarni siltab tashlab

tashqariga otildi. Biz sinfdoshlar o'mimizdan duvva qo'zg'aldik.

"Iltimos, qaytaringlar uni, – dedi ustoz jonsarak tipirchilab, – Norsoat, G'iyos, ortidan chopinglar!"

Sinfimizdagi deyarli barcha o'g'il bolalar "Kengsoy burgutlari" dan edik. Muallim aytmasa ham, sardorning izidan borishni burchimiz deb bilardik. Shu sababdan ham sinfdagi to'qqiz bola tashqariga ola-tasir yugurgilab chiqdik.

Davron maktab hovlisida hanuz jazava bilan g'udranib silkinib borardi. Bora-bora avval egnidagi kamzulni bir chekkaga uloqtirdi, so'ng oyoqlarini galma-gal silkitganicha tuflisini yechib tashladи. Do'stimning fe'l-atvori menga xo'b tanish: ayni paytda oldidan borsang tishlaydi, ortidan borsang te-padi, yaxshisi, to o'zi hovridan tushgunicha kutgan ma'qul. Biz shunday yo'l tutdik. Mening ishoramga ko'ra bolalardan biri uloqtirilgan kamzulni, biri esa tuflini yerdan oldi, sardorni ko'zdan qochirmay izma-iz boraverdik. Davron shu ketishda qishloq pochtasi yonidagi onda-sonda tuman markazidan qatnovchi avtobus qayrilib oladigan bekatga yetdi-da, tarvaqaylab o'sgan qayrag'och tagidagi bir paytlar usta Abil to'rt enlik taxtadan omonatgina yasagan o'rindiqqa ket qo'yib, tirsagini tizzasiga, kaftini iya-giga tirab xuddi mahkam tugilgan mushtdek bo'lib o'tirdi-qoldi.

Biz pochta binosining soyasiga qaldirg'ochday tizilib sardorning jahldan tushishini sabr-toqat bilan kuta boshladik.

Saraton allaqachon chekingan bo'lsa-da, jaziramaning hali-hanuz shashti baland. Yuz-ko'zlarga gupillab hovur uriladi. Chor-atrof allaqanday oqish, sarg'ish tusda jimirlab-jimirlab ko'zga tashlanadi.

Oradan qancha vaqt o'tdi, bilmadim, bir payt, hali-hanuz g'ujanak tortib o'tirgan Davron dik etib o'midan turdi. Qo'llarini beliga tirab, qad kerib, yuzko'zi allanechuk yolqinlanib bir zum biz tomon tiki-lib turdi va... odatdagidek, mahkam siqilgan mushtini boshi uzra baland ko'tardi. Biz ham, odatdagidek, qo'llarimizni qilichdek havoga sermadik.

– Quyosh hali botmagan!

Bab-baravar hayqirig'imizdan issiqdan mudrab turgan qishloq bir cho'chib tushganday bo'ldi. Omborxona biqinida traktor tirkamasiga o'g'it yuklayotgan uch-to'rt ishchi, bekat ro'parasidagi uyda, tandirga o't qalayotgan ayol biz tomonga taajjublanib tiki-lib qo'ydi.

Davron hech nima bo'limgandek tirjayib yonimizga keldi. Biz ham hech nima bilmagandek, hech nima ko'rmagandek uning kamzulini, tuflisini qo'liga tutqazdik. Zavq-shavq bilan gaplashib, zavq-shavq bilan kulishib maktabga qaytdik.

Biz hali Absal polvonni tanimas edik.

Usta Abil viloyat markazidan Tanzila bilan qaytgan o'sha yakshanba ham Davron ikkimiz biroz janjalashib qolgan edik. Hammasi arzimas bir tortishuvdan boshlandi. O'sha paytlar boshqa joylarni bilmadim-u, lekin qishlog'imizda AQSh va SSSR o'rtasida urush boshlanar emish, degan mish-mish avjiga chiqqan, ko'cha-ko'yda, to'y-hashamlarda tinchgina boshlangan gurung oxir-oqibat shu mavzuga kelib taqaladigan bo'lib qolgan edi. Biz bolalar ham kattalardan eshitganlarimizga o'zimizdan biroz qo'shib-chatib to'plangan chog'larimiz bir-birimizga yetkazardik.

O'sha kuni ham qo'y-qo'zilarni ertalabdan dashta ga haydar ekanmiz, gurungimiz o'z-o'zidan urush mavzusiga ko'chdi.

– Baribir SSSR zo'r, – deb qoldi Davron kim-dandir eshitganlarini o'z fikriday bayon qilarkan, – dushman raketasini osmonda eritib yuboradigan nur sochar qurollari bor.

– Amerikaning nur ham yetolmaydigan raketaları juda ko'p, – deb e'tiroz bildirgan bo'ldim men, chunki kechagina akam va do'stlari aytgan gaplar esimda edi, – ular SSSRning hamma katta shaharlarini ko'zlab turibdi, tugmachani bir bosib qo'yishsa, tamom, hammasi kultepa bo'p qoladi.

Davron keskin bosh chayqab tag'in nelardir dedi. Men yana rad etdim. Tortishuv boshlandi. Har ne-chuk, men to'plagan ma'lumotlar Davronnikidan ko'proq ekan. Sardorni ko'z ochirgani qo'ymadim. U meni yengish uchun kerakli gapni topolmay jahldan qizarib-bo'zarib ketdi. Atrofimizdag'i "Kengsoy burgutlari" gap-so'zlarimizni diqqat bilan tinglashar, boshlanishi tusmullanayotgan jahon urushidan ko'ra ikkovimizning o'rtamizda to'qnashuv yuz berishidan xavotirga tushishgani shundoqqina aft-angorlaridan sezilib turar edi.

– Ey, sen, – deb qoldi Davron bir payt xalacho'pni menga nuqib, – molingni ajratib ol, biz bilan dashtga bormaysan.

Odatda, u bundan tang paytlari darrov yakka-ma-yakka olishuvga chorlab qolardi. Hozir ham aynan shunday bo'ladi degan xayolda qo'rqib turgan kezim uning kutilmagan buyrug'i jonga ora kirdi. Vaziyatning yengil tus olganidan bolalar ham yengil tortdi. Men suruvdag'i to'rt echki, uch qo'yimni ajratib olib sayxonlik bo'yida qoldim. Davron onda-sonda yer ostidan xo'mraygan ko'yi men tomon qarab qo'yardi. Ko'p o'tmay dala-dasht bo'ylab "Kengsoy burgutlari"-ning odatdag'i qiyqirig'i jarangladi.

– Quyosh hali botmagan!

Ajralib qolganim yaxshi bo‘lgan ekan! Peshin payti Abil aka “Ural” mototsikli aravachasiga o‘tirg‘izib kelgan qizchani birinchilardan bo‘lib ko‘rdim. Bahor o‘t-o‘lanlaridan qorni to‘yan mollarimni haydab uymizga yetgan chog‘im qizchaga yana ko‘zim tushdi. U ustanning qiya ochiq darvozasidan tashqariga qo‘rqa-pusa mo‘ralab turardi. Bir payt u otilib tashqariga chiqdi-yu katta yo‘l tomon chopib ketdi. Ajablangan ko‘yi uning ortidan qarab qoldim. Shu chog‘ darvozadan Ul-don checha kalovlanganicha chiqib keldi.

– Soatjon, yugur anovining ortidan, – deya u qizcha tomon imo qildi, – qochib ketyapti, aylanay sendan, yugur, ushlab kel!

Men yugurdim. Qizcha ancha olislab ketgan bo‘lsa-da, unga tez yaqinlashib oldim. Ammo... ayni paytda... negadir o‘zimni quvlayotgan emas, qo‘chayotgan boladek his qillardim. Chunki bu yerkarta ko‘chib kelgan chog‘larimiz men ham qadrdon qishlog‘imga xuddi shunday qochib ketishni juda-juda istaganman. Hatto, mashinalar serqatnov katta trassa bo‘yiga dovur yashirincha bir-ikki borib kelganman. Shu sababdan bo‘lsa kerak, ayni paytda qizchaga xayrixoh edim. Unga ikki hatlab yetishim mumkin bo‘lgan paytda ham atay, sekinlashib, o‘zimni char-chab qolganga solardim. Bir payt qizcha qator tutlar panasiga yetgach, taqqa to‘xtadi. Yuz-ko‘zlarini qoplab tushgan jingil sochlarini ortga sidirib tashldi. Men hansiragan ko‘yi uning qarshisida to‘xtadim. Qizchaning yirik-yirik ko‘zlari jiqla yosh edi.

– Nega meni quvlab kelyapsan? – dedi u tovushi titrab.

– Seni ushlab olishim kerak.

– Tegma menga, men... qochib ketyapman.

– Qayoqqa?

Qizcha izillab yig‘lab yubordi.

– Bilmayman...

Ayni paytda... negadir, unga qo‘silib mening ham uvlagim kelardi. Bo‘g‘zimga nimadir tiqilib qult-qult yutindim.

– Qo‘y yig‘lama, kerakmas, – deb pichirladim arang.

– Ular meni qiz qilib olishdi.

– Ular yaxshi odamlar, – dedim qizcha aytgan gap-larning ma’nosiga ko‘p ham tushunmagan esam-da, – xafa bo‘lma.

– Uylari juda katta ekan, qo‘rqib ketdim.

– Qo‘rqma, katta uyda yashash mazza-ku.

– Mazza-ya, – dedi qizcha umid va iltijo qalqqan qaroqlari bilan menga termulib. U so‘zlarini tasdiqlashimni, bu yerlarda yashash chindan ham yaxshi ekanligiga ishontirishimni juda-juda istardi.

Men har ikki bosh barmog‘imni havoga nuqib, ko‘zlarimni suzdim.

– Mazza!

Qizcha qiqirlab kuldi.

– Yana bi-ir ayt, – dedi yalinchoq tovushda.

– Ma-azza-a-a!

Men bu gal barmoqlarimni yalab ham qo‘ydim. Qizcha yayrab-yayrab kuldi. Kula-kula yo‘l chekkasi-ga bir paytlar to‘kib ketilgan shag‘al ustiga o‘tirdi.

– Oting nima? – deb so‘radim undan.

– Tanzila. Seniki-chi?

– Norsoat.

– Soat deysanmi, – qizcha yana yayrab kuldi, – necha bo‘lding, soat, necha bo‘lding?

Balki boshqa joyda, boshqa bola shu tarzda, is-mimni masxaralab kulta jahlim chiqar, boplab ta‘zi-

rini berardim. Ammo ayni paytda qishlog‘imizda dabdurustdan paydo bo‘lgan qizchaning qiliqlari, kulgulari negadir menga juda-juda yoqardi. Hatto unga qo‘silib baralla kuldim.

– “Norsoat” qiyin ekan, – dedi qizcha menga sho‘xchan boqib, – maylimi seni “Soat” desam?

– “Aka” deya qol.

– Xo‘p. “Akajon” deyman.

Quyosh qoq manglayimizda tantanavor porlab turardi. U go‘yo bu yerlarda besar yurgan bahorni jizg‘anak qilishga bel bog‘lagandek chor-atrofni ayovsiz qizdirardi. Bahor esa dov-daraxtlarning quyuq, yam-yashil yaproqlari qatidan, ariq-sayxonliklar chekkasida ko‘m-ko‘k ko‘kargan chechaklar, o‘t-o‘lanlar orasidan qo‘rqa-pusa mo‘ralaydi. Qaldirg‘ochlar havoda charx urib, chumchuq-chug‘urchuqlar bezovta chirqillab go‘yo uni qo‘riqlagan bo‘ladi.

Tanzila ikkimiz shodon kayfiyatda qishloqqa qaytdik. Uning kulishlari-yu to‘satdan ma’yus tortib qolishlari ham, yuz-ko‘zini qoplab tushgan jingil sochlarini qo‘lchalari bilan tez-tez orqaga tarab qo‘yishlari ham, hamma-hammasi o‘ziga yarashardi. Men unga qarab to‘ymasdim. Tanzila goh men bilan qo‘l ushlashib olar, goh yo‘l chekkasidagi mayda toshchalardan terib qator tutzor tomon otar, goho o‘rmalab yurgan hasharotlarni, uchib-qo‘nayotgan qushlarni uzoq tomosha qilib qoldardi. Sen aslida kimsan, bu yerga qanday kelib qolding, o‘zing qaerliksan, deb so‘ragim kelardi-yu, ammo botina olmasdim. Nazarimda bunday so‘rovlar Tanzilani qattiq xafa qilib qo‘yadigandek tuyilardi. Men esa uning xafa bo‘lishini, yirik-yirik ko‘zlarini jiqla yoshga to‘lishini sira-sira istamasdim.

Bir payt qishloq tomondan lo‘killagan ko‘yi choppib kelayotgan usta Abilga ko‘zim tushib qoldi.

Tanzila yalt etib menga o'girildi. Uning qaroqlariga yana xavotir soya soldi. Men jilmaydim. Bosh barmog'imni havoga nuqib, so'ng yalab qo'ydim. Tanzila yana kulib yubordi.

– Ertaga yana qochaman.

– Qachon?

– Shu payt.

– Bo'pti. Men quvlayman.

Abil aka hansiraganicha yonimizga yetib keldi. Qop-qora, serajin manglayidan sharros ter quyilar, tugmalari chala qadalgan ko'y lagi shalvirab osilib turar edi.

– Bolam, qizginam! – dedi u hovliqqan bir tarzda Tanzilani dast ko'tarib olarkan, – kim seni xafa qildi? Nega qochib ketding, asalim?

Usta qizchani mehr bilan bag'riga bosib, yuzlarini uning sochlariiga surkar, ovozi hirqirab, titrab chiqar edi.

Nogoh Tanzila ham u kishining bo'ynidan mahkam quchib oldi. Qucha-qucha men tomon jilmaganicha ko'z qisdi, bosh barmog'ini yalab-yalab qo'ydi.

Abil aka qizchaning kutilmaganda quchib olishidan butkul yayrab, Tanzilani yana ham qattiqroq bag'riga bosib, menga zarracha e'tibor bermay, al-pang-talpang qadamlar bilan qishloq tomon jo'nadi.

Usta xonadonida qizaloq paydo bo'lgani, uning kelgan zahotiyooq qochishga uringani, qochoqni men ushlab kelganim haqidagi bo'zadek ko'pirib turgan mish-mishlar qishloqda juda tez tarqaldi. Favquloda ko'rsatgan jasoratim, shon-shuhratim sharofatidan bo'lsa kerak, Davron ertasi kuni barcha araz-ginalarni unutib meni mактабда iljaygan ko'yi qarshi oldi. Qizaloq haqida, uni qanday quvlaganim to'g'risida

so‘rab-surishtirdi. Tabiiyki, bunday gap-so‘zlar payti barcha bolalar bizni qurshab olishadi.

– Huvv, hindcha kino bor-ku, ko‘rganmisan, bir qizchaning ota-onasini banditlar o‘Idirishadi, keyin qizcha zo‘r artist bo‘p ketadi, ko‘rganmisan o‘zi? – dedi Davron shang‘illab.

Men bosh irg‘adim.

– Ha, ko‘rganman.

– Aytishlaricha, usta opkelgan qizcha o‘shanga rosa o‘xshar emish, chinmi?

– O‘xshamaydi.

– Iya, nega o‘xshamas ekan, – deb chinqirdi bolalardan biri, – ana, hamma aptyapti-ku.

– O‘xshamaydi, bu o‘sha qizning o‘zi.

– Yo‘g‘-ye?! – bab-baravar guvullab yubordi bolalar.

– Ha. Ota-onasi o‘lgandan keyin... mana, Abil aka-ga qiz bo‘ldi.

Bolalar men to‘satdan to‘qib tashlagan yolg‘onga obdon o‘ylab ko‘rmay chippa-chin ishonishdi. Bu mening kulgimni qistardi.

– Tez chopar ekanmi? Arang yetgandirsan-a? – deb shivirladi Davron dars payti, tafsilotlarga qizi-qishi hanuz so‘nmay.

– Ha, bugun yana qochadi.

Bu gap beixtiyor og‘zimdan chiqib ketdi. Chunki aynan bo‘lajak quvlashmachoq haqida shirin xayol surib o‘tirardim. Men bu gapni shunchaki pichirlab aytgan bo‘lsam-da, Davron eshitib qolgan ekan.

– Nima?! – pichirladi u sergak tortib, – qachon qochadi?

– Bilmadim, – deb mujmal yelka qisdum,

Ammo Davron mendan ko‘zlarini uzmagan ko‘yi allanimalarnidir chamlay boshladi.

Men darsdan so'ng uyga shoshildim. Chunki Tanzila bilan kelishgan paytimiz yaqin edi. Yuragim qandaydir quvonch va hayajon bilan gurs-gurs urardi. Uyga keldim-u, papkamni bir chekkaga uloqtirib bir bo'lak nonni tik turgan ko'yi g'ajiy boshladim.

— Hoy, orqangdan yov quvayaptimi, o'tirib, odamga o'xshab ovqatlansang-chi, — dedi onam yumushidan bosh ko'tarib.

— Yana maktabga qaytib borishim kerak, shoshil-yapman.

Shu payt qiya ochiq darvozamizdan Uldon checha bosh suqdi.

— Hamsoya-yu-yu...

— Kiravering, shu yerdaman, — deya onam unga peshvoz yurdi.

— Norsoatjon uydamikan? Anovi qiz tushmagur yana qochib ketdi.

Men otolib hovliga chiqdim.

— Shu yerdaman. Qani? Qachon qochdi?

So'rashga so'radim-u, ammo javobini kutmasdan ko'chaga yugurdim. Tanzila allaqachon tutzorga ya-qinlashib qolgan ekan. Uning ortidan o'qday uchdim. Onda-sonda ortiga o'girilib qo'yayotgan qiz meni ko'rdi-yu quvonch bilan bir-ikki irg'ishlab qo'ydi. Uzoqdan u qandaydir rangin kapalakka o'xshab ko'rinardi.

Men shamoldek yelib borardim. Yuz-ko'zimni yalab o'tayotgan iliq shabada zavqimni oshirardi. Ko'p o'tmay, oramizdag'i masofa qisqara boshladi. Bir payt tutzorlar orasidan "Kengsoy burgutlari" qiyqirishgan ko'yi otolib chiqib qizning yo'lini to'sishdi. Tanzila taxtaday qotib qoldi.

— Ey, nima qilyapsizlar! Tegmanglar unga! — jon holatda qichqirdim men.

Mashhur filmdagi qirq qaroqchi qiyofasiga kirib olgan bolalar menga e'tibor ham berishmadı. Ular ot mingan chavandozlarga xos irg'ishlashib qiz tevaragida aylanishar, betinim vahimali qiyqirishar edi. Tanzila qo'lchalarini yuziga bosib, chinqirib yig'laganicha yerga o'tirib qoldi.

Men jon holatda bolalar halqasini yorib o'tdimu qizning qo'lidan tortib o'midan turg'izdim. Qiy-chuv bir zumda tindi-qoldi.

Boshiga momosining oqish ro'molini o'rabi, bir ko'zi ustiga qora latta tang'ib olgan Davron o'zicha viqor bilan men tomon yurdi.

– Qochoqni birinchi bo'lib biz tutdik! – dedi o'sha tantanavor tovushda. – Uni egalariga biz topshirajkmiz.

– Yo'q, u men bilan ketadi, – dedim Tanzilani beixtiyor o'zimga yaqin tortib.

Qiz nogoh ko'ksimga boshini qo'ydi! Men andak dovdirab qoldim, lekin shu barobarida o'zimni tog'dek haybatli, Davronning ming bir qahramonlari dan-da jasur va qudratli his qildim.

– O'rlik qilma, qizni qo'yvor, – dedi sardor qo'l cho'zib.

Men uning qo'lini qaytarib tashladim.

– Tegma dedim senga! Agar istasang, yakka-ma-yakka olishamiz!

So'nggi so'zlar og'zimdan beixtiyor chiqib ketdi. Ko'z qirim bilan xuddi najot so'raganday bizlarga angrayib turgan bolalarga qaradim. Kutilmagan chorlovimdan ular ham hang-u mang edi. Yo'q, bir payt Davron, vajohatimdan cho'chidimi, yo boshqa sababdanmi, harqalay, istehzoli iljaygancha orqaga chekindi.

– Bo'pti, qizni senga topshirdik, pishirib ye, o'yin ga chidaming yo'q ekan.

Davron bir ishora bilan bolalarni boshlab yana tutzor oralab ketdi. Men ancha paytgacha ishonqiramay ularni kuzatib turdim. Tanzila andak hayrat, andak zavq bilan menga termulib turardi.

- Endi qochmaysan-a – dedim jilmayib.
- Yo‘q, qochmayman. Akajon, ular kim?
- Shu yerlik bolalar.
- Ular yomonmi?
- Yo‘-o‘q, yaxshi... o‘ynab yurishibdi.
- Men qo‘rqib ketdim.
- Qo‘rqma, o‘zim bor. Tanzila...
- Labbay, akajon.
- Agar qochish kerak bo‘lsa... bundan keyin ik-kovimiz birga qochamiz, xo‘pmi?
- Xo‘p, akajon, – dedi qiz ko‘zlarimga tabassum bilan boqib.

Biz qishloq tomon xush-xandon qaytdik.

Xullas, Tanzila yangi xonadonga tez singishib ketdi. Abil akani “Dadajon”, Uldon chechani “Onajon” deb ataydigan bo‘ldi. Er-u xotin quvonchdan yer-u ko‘kka sig‘maydi. Kecha-yu kunduz qizaloqqa parvona. O‘zları yemay unga yedirishadi, o‘zları kiymay unga kiydirishadi. Raisimiz Quvondiq qaysar Tanzi-laga atab bir sog‘in sigir hadya qildi. Bobo bo‘lmish mulla Mirzaning hayajon-u sevinchdan hatto tuzukroq duoga ham tili aylanmay qoldi.

Quvondiq aka cholning jikkakkina gavdasini bahaybat quchog‘iga olib xoxolab kului. So‘ng kimdir shokosaga quyib uzatgan aroqni bir ko‘tarishda sipqorib yubordi-da, gazagiga bodring chaynab qizaloqning tug‘ilgan kuni bahonasida usta Abil tu-zagan dasturxonni tark etdi. Na er-u xotining beadoq minnatdorchiliklariga, na el-u ulusning olqishlariga e’tibor berdi.

Biz hali Absal polvonni tanimas edik.

Ha, Quvondiq qaysar shunday tanti va to‘pori rais edi. Kazo-kazo rahbarlar ham uni behad hurmat qilishar, maslahat-u nasihatiga qulqoq solishardi. Quvondiq aka mehribon, hazilkash inson bo‘lishiga qaramay, ish, intizom masalasida juda qattiqqo‘l ekan. Bir gal traktorlarni o‘z vaqtida ta’mirlab shaylamagani uchun bu masalaga mas’ul jiyanini o‘n besh sutkaga qamatib yuborgan. Bir gal hasharchi talaba qizlardan biriga tajovuz qilgani uchun mashhur bir brigadirni avval o‘lasi qilib kaltaklagan, so‘ng butun oilasi bilan boshqa yoqqa ko‘chirtirib yuborgan. Quvondiq qaysarning fe'l-atvorini juda yaxshi bilgan kengsoyliklar hamisha uning oldida hadiksirab turishardi. Afsuski, har to‘kisda bir ayb deganlari chin ekan.

Rais qizlarini birin-ketin uzatib qutildi, ammo noshud va noqobil ikki o‘g‘ilning kasridan xo‘b ovora-yu sarson bo‘ldi. Otasining dasti darozligi sharofatidan viloyat markazidagi institutlarning birini amal-taqal bitirib o‘sha joyda ishilab qolgan to‘ng‘ich o‘g‘il yoshi qirqni qoralab qolgan bo‘lsada, na biror bir ilmiy darajaga, na tuzukroq amalga erishdi. U bola-chaqasini big‘illatib har hafta qishloqqa qatnar, uch-to‘rt kunga yetgulik osh-ovqatini otasinikidan g‘amlab, olamshumul vazifani do‘ndirganday tevarakka mag‘tur ko‘z tashlab yana shaharga qaytar edi.

Aroqxo‘rlikka mukkasidan ketgan ikkinchi o‘g‘il esa xotinini haydab, uch bolalik, allaqanday o‘yinchilayayol bilan tuman markazida yashar, otarchilik, o‘rtakashlik bilan kun ko‘rar, ammo akasidan farqli o‘laroq, ota uyiga juda kam kelar, kelgan chog‘da ham hatto non-tuz tatinmay, biror bahona bilan markazga qaytar edi.

“Essiz shunday yigit, dushmanlari bunga du-oibad yedirgan” – deyishardi u haqida ba’zi bir ham-qishloqlar.

Quvondiq qaysarning yagona umidi kenja farzandi Davrondan edi. Uning tirishqoqligi, xuddi o‘ziday sarkash va sardorligi ko‘zini, ko‘nglini quvontirardi. Bir gal raisning mulla Mirza bilan idora biqinida-gi ovloqroq joyda gaplashib turganini tuyqus ko‘rib qolganman. Ochig‘i, o‘shanda Quvondiq akani avval boshida taniy olmadim. U go‘yo qismati, hayot-mamoti qo‘lida bo‘lgan odam qarshisida turgandek xokisor va yuvosh tarzda egilib-bukilib turardi.

“Qo‘rqayapman, mullajon, qo‘rqayapman, o‘zingiz maslahat bering”, – derdi u yalinchoq bir tovushda.

“Karamxon eshonga uchrashib, bolaga ko‘zdan, suqdan asraydigan bir tumor Obering”.

“U kishi har kimga ham tumor beravermaydi deb eshitgan edim... Mullajon, o‘zingiz bir oraga tushing”.

“Xo‘p... indin GRESda bir xudoyi bor. Uchrashib qolsak, aytaman”.

O‘sha pinhoniy gurungdan so‘ng, oradan bir haftacha vaqt o‘tib, Davronning bo‘ynida pishiq ipga osilgan, baxmal qoplamali tumor paydo bo‘ldi. Ota-onasi qattiq tayinlagan bo‘lsa kerak, do‘srim uni hech kimga ko‘rsatmaslikka harakat qilardi. Bunday irim-sirimlar qanchalar naf bergen-bermaganini bilmadim-u, lekin Davron yil-oy sayin emas, kun sayin o‘sib-ulg‘ayib, bo‘yiga – bo‘y, kuchiga – kuch qo‘shilib borardi. U, otam ta’riflaganday, yirik bir shirkat xo‘jaligining iz-zat-obro‘li, dasti daroz rahbarining arzanda bolasiga sira o‘xshamas, o‘zining kattakon otasi bilan hech qarda, hech qachon maqtanmas, hammani teng tutib, barcha bilan baravar o‘ynab-kulib yurar, mакtabda, mahalla-ko‘yda ba’zi bir xushomadgo‘ylarning yal-

toqlanishiga parvo ham qilmas edi. Quvondiq akani o‘g‘lidagi aynan ana shunday xislatlar to‘lqinlantirgan, yomon ko‘zlardan panoh izlashga majburlagan bo‘lsa, ajabmas.

Kezi kelganda oz-moz maqtanib ham qo‘yayin: men ham do‘sitmdan kam emas edim. Kundan kunga ko‘kraklarim, bilaklarim qabarib, kuchimga kuch, aqlimga aql qo‘shilib borardi. Onam tez-tez isiriq tutatib, boshimdan aylantirib olar, iloyo, ko‘z tegmasin, deb bo‘yi-bastimga tuflab qo‘yan bo‘lar, ortimdan ko‘zlar ni namlanib kuzatib qolar edi.

Biz Davron ikkimiz bir-birimizga xiyla bog‘-lanib qolgan edik. Birgalikda, bamaslahat har xil sho‘xliklar, nayranglar o‘ylab topardik. “Kengsoy burgutlari” hamisha xizmatimizga shay turishardi. O‘sha yilning yangi o‘quv mavsumi arafasida, yangi darsliklar olish uchun Davron ikkimiz maktabga borganimizda, Uldon checha Tanzilani yetaklab direktor xonasidan chiqib kelayotganini ko‘rib qoldik. Qizaloqni uchinchi sinfga qabul qilishibdi!

– Ey, bir gap bor, – deb qoldi Davron to‘satdan, – birinchi sentabr kuni Tanzilani boshqacha kutib ol-sak-chi.

– Qanday... – deb so‘radim qiziqsinib.

Davron qulog‘imga shivirlagan bo‘ldi. Uning taklifi menga ham ma‘qul tushdi.

Nihoyat, o‘sha kutilgan kun yetib keldi. Oppoq, ohorli, qandaydir shaharcha fasonda tikilgan ko‘ylak kiyib, jingil sochlarni chiroyli turmaklab olgan Tanzila yana onasining yetovida, bir guruh qishloq qizaloqlari qurshovida mакtab darvozasi yoniga yetib kelishdi.

Biz “Kengsoy burgutlari” panjara yonida askarlardek tizilib turardik. Tanzila shundoqqina qar-

shimizga yetgan payt Davron odatdagidek musht qilib tugilgan qo'lini azot ko'tardi.

– Quyosh hali botmagan!

Bizning jaranglagan jo'r ovozimizdan hatto, maktab derazalari ham zirillab ketdi. Cho'chib tushgan Tanzila onasining etagi ortiga yashirinib, biz tomon mo'raladi. So'ng jilmaydi. Jilmaya-jilmaya jajji qo'lchalarini bizga taqlidan musht qilib baland ko'tarrib qo'ydi. Nazarimda, u bolalar orasida meni ko'rib kulganday, meni ko'rib quvonib ketganday tuyildi. Meni allaqanday sarxush hislar chulg'ab oldi. Beixtiyor sardor o'rnida qo'l sermadim. Xuddi shuni kutib turganday bolalar bab-baravar hayqirishdi:

– Quyosh hali botmagan!

Bu bizning jangovar shiorimiz edi. Bu bizning kuchimizdan, jipsligimizdan, ishonchimizdan darak berardi. Biz hayqira turib o'zimizni tog'dek mahobatli, osmondek yuksak his etardik. Bu shiorni kim, qachon, qayerdan topgan, hech bila olmadim. O'sha paytlar bir-ikki so'raganimda Davron sirli iljayib, sirli ko'z qisib qo'ya qolgan edi.

Bir gal g'alati voqeа ro'y berdi. Maktab hovlisida qandaydir siyosiy tadbir bo'layotgan edi. O'qituvchilar yonida bir necha a'lochi va faol o'quvchilar qatorida Davron ham turardi. Siyosiy taomilga ko'ra faol o'quvchilardan biri "Pioner, kommunizm ishiga bo'l tayyor!" deb chinqirishi, yig'inda jamuljam bolalar esa "Doim tayyor!" deya tantanavor javob berishi lozim edi. Bir payt maktab direktori Davronga im qoqdi. Do'stim bir-ikki qadam oldga chiqdi-da, bilibmi-bilmaymi, tuyqus qo'lini boshi uzra baland ko'tardi.

– Quyosh hali botmagan!

Nogoh jaranglagan bu hayqiriqdan yer-u ko'k larzaga kelganday bo'ldi. Eng qizig'i, nafaqat "Keng-

soy burgutlari”, balki butun maktab o‘quvchilari babbavar shiorni tilga olgan edi! Hayqiriqdan qizil mato yopilgan stol tegrasida o‘tirganlar sapchib o‘rnilaridan turib ketishdi. Ular orasidagi tuman rahbariyati vakili maktab direktoriga tahdid bilan chaqchaydi.

— Bu qanday maynavozchilik?

Davron sarosima ichida bir iljayib, bir bosh qashlab turardi. Direktor ildam intilib vakilning qulog‘iga allanimalarni shivirladi. Aftidan, u maynavozchilik qilgan bola raisning o‘g‘li ekanligini uqtirdi, shekilli, vakil vajohatidan tushib, sovuq tirjaygan ko‘yi joyiga qaytib o‘tirdi. Davronning o‘rniga otilib chiqqan faol qiz mash’um xatoni to‘g‘irlagan bo‘ldi.

Biz hali Absal polvonni tanimas edik.

Oltinchi-yettinchi sinflarda o‘qiyotgan yillarimiz Davron ikkимiz kurash bilan jiddiy shug‘ullana boshladik. Har kuni ertalab yuguramiz, mакtabning sport maydonchasida har xil mashqlar bajaramiz. Bo‘s sh vaqt topdik deguncha ikkимiz kurash usullarini mashq qilamiz. Jismoniy tarbiya bo‘yicha saboq beruvchi muallim goho bizni o‘zining “Moskvich” mashinasiga o‘tirg‘izib qishloq to‘ylariga olib borar, u yerdagi kurash tomoshalarida ikkимiz teng-to‘shlarimiz bilan bellashib goh mag‘lub, goh g‘olib bo‘lib, zavq-shavq bilan uyga qaytar edik. Bir kuni galdagи mashg‘ulotga chog‘lanib turgan paytimiz Quvondiq aka daladan kelib qoldi. Oyog‘ida qo‘nji qayrilgan etik, egnida oftobdan sarg‘aygan ko‘ylak, hoshida ayvoni keng shlapa.

— Ey, nonxo‘rlar, — deb bizni to‘xtatdi lan polvon bo‘lishni xohlasalaring buytib saltar tang yurmanglar. Men yozgi ta’til payti ustozga obborib topshiraman. Bir oy kelasizlar.

U kishi qandaydir tanbeh ohangida gapirgan bo'l-sa-da, lekin intilishlarimizdan mamnun ekanligi yuzko'zidan bilinib turardi. Rais rostdanam o'sha mavsum yozgi ta'til boshlangan kunlar ikkimizni "Niva" rusumli xizmat mashinasiga o'tqazib bepoyon qo'riq xo'jaliklariga qon tomirlaridek taralib ketgan, shag'al qoplalmali yo'llarning biri bo'ylab allaqayoqqadir olib ketdi. Chor-atrof dala-dasht. Behudud ekin paykallari yam-yashil dengizdek mavjlanadi. Mashina ortidan qo'zg'algan chang-to'zon xiyla payt havoda muallaq turib, yo'l yoqasidagi tikanzorlar ustiga ohista yog'iladi. Mashina o'rindiqlari ortidagi bo'lajak ustozimizga atalgan qo'zi tumshug'ini biz tomonga cho'zib iskalanadi.

– Biz hozir Absal polvonning oldiga ketyapmiz,
– dedi ulovni napisand boshqarib borayotgan ota. – Eshitgansilarmi shunday odamni?

– Yo'-o'q, – dedik baravar bosh chayqab.
– Hozir ko'rasilar.

Biz bir yarim soatdan mo'lroq yo'l bosdik. Aftidan, boshqa tuman chegarasida ketib borardik. Qo'riq hududlar bir-biriga juda o'xhash bo'lganligi bois buni dabdurustdan payqash qiyin edi.

– Ana, keldik, – dedi Quvondiq aka "Niva"ni quyuq tollar panasidagi shiyponnusxa uy yonida to'xtatar ekan.

Avval bahaybat bir ko'pkak biz tomonga vovul-laganicha yugurib keldi, ortidan uch-to'rt bola-baqra chopib chiqdi.

– Ey, polvon qayerda, uydami-a? – deya gumbur-lagan ovozda so'radi rais.

Bolalar javob bermay, yana uy tomon chopib ketishdi. Biz mashina ortidan xiyla semizgina shirbozni tushirdik. Quvondiq aka ust-boshining chang-chungini qoqib, tomoq qirib tupirindi. Shu payt tollar

ortidan bo‘yi ikki qulochdan ham baland, sochini tap-taqir qirdirgan, yag‘rindor bir odam chiqib keldi.

– E-e, rais bova, xush kepsiz! – dedi u yo‘g‘on, do‘rillagan ovozda.

Quvondiq aka unga xush-xandon peshvoz yurdi.

– Chaqirmasangiz ham shuytib kelaberamiz-da!

Quvondiq aka sizlarni ustozga topshiraman deganida biz ikkovlon o‘zimizcha gavjum, sershovqin shaharni, keng-mo‘l, yorug‘ sport majmuasini, chekkalari qizil hoshiyali maxsus kiyimdagи murabbiyni tasavvur qilib, terimizga sig‘may sevinib, hayajonlanib yurgan edik. “Niva” qishloqdan chiqar-chiqmas ovloq dala-dasht yo‘lga burildiyu, bizlar bir-birimizga taajjublanib tikildik. Qayoqqa ketyapmiz, degan xayolda ko‘nglimizga xavotir oralagan edi. Tollar ortidagi shiyponni, undan chiqib kelgan devqomat, biroz dehqon, biroz cho‘pon sifat kimsani ko‘rib esa butkul hafsalamiz pir bo‘ldi. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining tinimsiz tashviqotlaridan bo‘lsa kerak, biz kurash bo‘yicha saboq beradigan ustoz oliv ma’lumotli, ba’zi bir rasmiy musobaqalar sovrindori, sport ustasi degan unvonlar sohibi bo‘lishi shart deb hisoblardik. Ammo Quvondiq aka bilan quchoqlashib ko‘rishgan, o‘sha kech mehmonlar sharafiga tuzukkina dasturxon tuzagan mezbon, aftidan, biror institut nari tursin, o‘rtा maktabni ham to‘la-to‘kis bitirgani, kurash ilmidan xabardorligi gumon edi.

– Shuytib, inim, sizga ikki shogird opkeldim, – dedi ziyofat chog‘i Quvondiq aka yana maqsadga ko‘chib, – bularni tarbiyalab, Kengsoyning orini ko‘taradigan polvonlar qilib berasiz.

Mezbon kulimsirab bosh irg‘ab qo‘ydi.

– Bularning xiyla suyagi qotgan ko‘rinadi-ku, sal ertaroq opkemabsiz-da, rais bova.

– E, polvonjon, ana, bugun, ana, ertan deb vaqt ni boy berib qo‘ydi. Savil, hech qo‘l tegmaydi, deng, bilasiz, xo‘jaligimizning tashvishi ko‘p.

– To‘g‘ri, sizga qiyin. Bizga o‘xshaganlar bitta ro‘zg‘orni eplayolmaydi-yu...

Aft-angorimizdagi norizolik alomatlarini payqadi shekilli, mezbon goh choy, goh ovqat tashvishida biz o‘tirgan chorpojadan uzoqlashgan payt Quvondiq aka pichirlab u kishini ta‘riflashga tushib ketardi.

Asli ismi Abdusalom bo‘lgan bu kishi el-ulus orasida Absal, Absal polvon nomi bilan mashhur ekan. Xuddi Quvondiq aka va qo‘riq tumanlariga ko‘chib kelgan aksariyat cho‘lquvarlar kabi kunchiqar taraf-dagi tog‘u toshlarda tug‘ilib o‘sgan ekan.

Abdusalom hech bir ustoz ko‘rmagan, hech bir mashq-mashg‘ulotda qatnashmagan, xuddi o‘rislarning Ivani kabi atoyi polvon emish. U bo‘z bolalik payti tog‘dan o‘tin kesib, eshagiga yuklab kelayot-gan mahal, jonivor noboproq yerdan yiqilib, oyog‘i sinib, o‘rnidan turolmay qolibdi. Shunda u eshagini yuk-muki bilan yelkasiga olib, qishloqqacha ko‘tarib borgan ekan. Abdusalomning bu mo‘jizasini ko‘rganlar hang-u mang qotib qolgan emish. Nega men ga angrayib qoldinglar, nima, sizlar eshak ko‘tarib ko‘rmagansizlarmi deb hayron so‘ragan ekan o‘shanda. Chunki bunday ko‘tarishlar oddiy, kundalik ish, har kimning ham qo‘lidan keladi, degan xayolda ekan bu sodda va to‘pori yosh polvon.

Qishloqdoshlari qiziqsinib bir-ikki davralarda kurash tushirib ko‘rishibdi. Abdusalom nomdor raqib-larini birinchi qafasdayoq chalpak qilib yerga uribdi. Bu jigit bilan hazillashmang, hamisha izzatini joyiga qo‘ying, unga chilton pirlar polvonlikni g‘oyibdan yuqtirgan, deyishibdi kitob ko‘rgan, ne bir madrasa

tuprog‘ini yalagan mullalar. Shu-shu, u Absal polvon sifatida el og‘ziga tushibdi.

Qancha-qancha to‘yu hashamlarda o‘z elining orini olib, dimog‘dor, nomdor kurashchilarning kurgani yerga bosibdi. Cho‘lga ko‘chib kelgan kezлari uning dovrug‘ini eshitgan tuman, viloyat rahbarlari polvon bilan bir ko‘rishib qo‘yish uchun atay uni izlab kelishgan ekan. Absal polvon besh-olti yil avval, yoshim qirqdan qiyib o‘tdi, endi davralarni yoshlarga bo‘shatay, deb el oqsoqollaridan fotiha olib, kurash bilan xayrlashibdi. O’shandan beri bahor chog‘i shu shiyponga ko‘chib chiqib, kech kuzgacha dehqonchilik, chorvachilik bilan mashg‘ul bo‘lar, hosilni yig‘ib-terib olgach yana qishlog‘iga ko‘chib borar ekan. Ustoz deb ixlos qilib kelgan yosh-yalanglarga kurash sirlaridan saboq ham berar emish.

Biz Absal polvonni ko‘rdik, bildik.

Ammo o‘sakech Quvondiqakaning sirli shivir-shivilari ham baribir bizni hayratlantira olmadi. Raisning qahru g‘azabidan qo‘rqib, andak-andak qovog‘imizni ochibo‘tirardik, xolos. Ko‘zo‘ngimiz dahali-hanuzcharog‘on shahar, po‘rim ust-boshli murabbiy tumanday kezib yurardi.

Shiypon peshtoqidagi, tevaragida hasharotlar g‘ujg‘on o‘ynayotgan lampa yog‘dusida xira yorishib turgan chorpoyada biz qo‘noq bo‘lgan o‘sha kech bir holni o‘zimcha kashf etdim. Quvondiq aka va Absal polvon xuddi qo‘riq tumanlari kabi bir-biriga juda o‘xshardi. Bilmadim, bu balki, mulla Mirza bot-bot tilga olib yuradigan ibora bilan aytganda, barchalari Katta O‘raning bolalari bo‘lgani boismi, har nechuk, kelbat-savlat, rapidadek qo‘llar, guldiragan ovoz, imo-ishoralar, dag‘al gap-so‘zlar, hamma-hammasi bir-biriga monand edi.

Dasturxonlar yig‘ishtirilib, choynakdagи choy sob bo‘layotgan bir paytda Quvondiq aka yonidagi yos-tiqqa bag‘ir berib oyoqlarini uzatib yubordi.

– Qani, polvon, – dedi sirli bir ohangda, – endi-i... chaling, bir miriqaylik.

Mezbon avval biroz tixirlik qilib turdi, so‘ng intilib, chorpoya suyanchig‘iga tashlab qo‘yan kam-zulining cho‘ntagidan charm g‘ilofli allanenidir avay-labgina chiqarib oldi.

– Rais bova, mehmonning amri vojib, chalsak-chalamiz-da, – dedi u.

Absal polvon charm g‘ilof ichidan sug‘irib qo‘li-ga olgan narsaning neligini bilmay angrayib turganimizni payqagan rais:

– Bu sibizg‘a, – deb qo‘ydi kulimsirab.

Sibizg‘a deganlari bir enlik qamishdan yasalgan, puflab chalinadigan oddiy va jo‘n musiqa asbobi ekan. Absal polvonning uni ixlos-u e’tibor bilan qo‘li-ga olishini ko‘rib, g‘oyat noyob narsa bo‘lsa kerak deb o‘ylabmiz.

– Qani, inim, boshlang, – dedi rais betoqatlanib.

Absal polvon sibizg‘ani bahaybat kaftlari orasiga olib qalin lablariga tegizdi. Tegizdiyu sibizg‘adanmi yo mehmonning ichidanmi bir nola otilib chiqdi. U bir zum havoda muallaq turib qolgach, mayin, ha-zin mavjlar bilan tun bag‘rini tilkalab chor atrof-ga tarala boshladidi. Sibizg‘adanmi yo cholg‘uchi bo‘g‘zidanmi o‘rtanib chiqayotgan bu ohanglar kuy emas, faryod edi! Faryod emas, achchiq-achchiq bo‘zlov edi!

Absal polvon taralayotgan musiqaga mos tarzda tog‘dek tebranar ekan, nazarimda, hoziroq u qulab tushadigandek tuyilardi. Quvondiq aka ham uzalgan ko‘yiko‘zlarini yarim yumib mastonachayqalar, ahyon-

ahyon qabqlarini kerganida yoshlangan qaroqlari chiroq yog‘dusida sarg‘ish shisha parchalaridek yaltirab ko‘rinar, Davron esa chorpoya suyanchig‘iga orqa tirab, siqilgan prujinaday g‘ujanak tortib o‘tirar, shu holatida qorong‘ulik qa‘riga singib borar edi.

Nolakor kuy tobora avjlanardi!

Negadir xayolim olis tog‘lar etagida qolgan qadr-don qishlog‘im tomon uchdi. Jildirabgina oqib turuv-chi sayoz soy, sertuproq yo‘llar va nogoh deraza tagidagi to‘sakda so‘nggi kunlarini o‘tayotgan, vassa juftli uy toqiga armon-u iztirob bilan termulgan, ser-titroq, ozg‘in qo‘llari bilan boshimni silayotgan otam, otajonim ko‘z o‘ngimda namoyon bo‘ldi. So‘ng, qaroqlarim qarshisida boshim uzra isiriq tutatib, ko‘zlar ni namlanib, duo pichirlayotgan hamisha jonsarak onam, onajonim, uning ortidan, tutzor bo‘ylab chopib bora-yotgan, menga umid va ishonch bilan termulib “mazza-ya” deyayotgan Tanzila bir-bir jonlanib, go‘yo sibizg‘a bag‘ridan otilayotgan faryod, iltijo mening bo‘g‘zimga quyilayotganday, tomog‘imga achchiq va qattiq nimadir tiqildi. Beixtiyor yuzimni osmonga qaratdim. Qaratdim-u hozirgina jimirlabgina turgan yulduzlar nolakor musiqadan go‘yo eriy-eriy qaroqlarimga tomayotganday, qaroqlarimdan toshib yonoqlarim tomon sizayotganday tuyildi. Men shosha-pisha ho‘llangan yonoqlarimni artib oldim.

Nihoyat kuy tindi.

– E, yashang! – dedi Quvondiq aka chuqur tin olib, – qaysi kun duxturga klizma qildirganimda ham bunchalik huzurlanmagan edim.

Mezbon siniq jilmayib qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi.

Quvondiq aka sahar payti bizlarni Absal polvon-ga, Absal polvonni Xudoga topshirib Kengsoyga qaytdi.

Biz Absal polvonni ko'rdik, bildik.

Shunday qilib bizning bir oylik shogirdlik faoliyatimiz boshlandi. yeryong‘oq ekilgan paykal biqinida behafsala qurilgan chayla bor ekan. Ustoz shu yerga ko‘rpato‘shak qilib berdi. Kun tartibimiz oddiy: sahar turib besh-olti chaqirimga yuguramiz. Har xil mashqlar bajaramiz. Nonushtadan so‘ng tushlikkacha ustozga qo‘silib uning mol-hollariga qaraymiz, ekinlarini sug‘oramiz, o‘toq qilamiz. Absal polvon hamisha tund va o‘ychan, onda-sonda po‘ng‘illab qo‘yanini hisoblamaganda biz bilan deyarli gaplashmaydi, egilib-bukilib ishdan bosh ko‘tarmaydi. Peshindan asrgacha orom payti: chaylaga kirib cho‘zilamiz. Ammo uyqu qayoqda, kun shu qadar issiqki, to‘rt tarafingdan hovur purkab turadi. Xuddi tandir ichida yotganday tipirchilab, g‘ingshib chiqamiz. Paxta paykallari boshlangan joyda poxol to‘shalgan maydoncha bor, kun qaytib, andak salqin tushgan payt ana o‘sha yerda kurash ilmiga sho‘ng‘iyimiz.

Ustozning bizdan boshqa yana uch-to‘rt shogirdi bor ekan. Ular jazirama chekingan mahal mototsikllarini tarillatib, chang-chungga belanib qishloqdan kelishar, g‘ala-g‘ovur bilan maydonga tushishar edi. Ustoz ham biz qatori kurash libosi kiyib, mashq-mashg‘ulot qilib, har bir xatti-harakatimizni sinchkov kuzatib, ba’zan maqtab, ba’zan tanbeh berib turadi degan xayollarimiz ham chippakka chiqdi. Biz shogirdlar bir-birimiz bilan olishib yotgan payt Absal polvon ahyon-ahyon maydonchaga ko‘z tashlab qo‘yib allaqanday yumushlari bilan andarmon bo‘lib yurardi. Ba’zan o‘sha kuymalanayotgan joyida tovush berib qolardi.

“Ey, Xolboy, chap qo‘lini mahkam tutmay, chilga urinma, o‘zing uchib tushasan”.

“Sunnat-yey, bu qilig‘ing g‘irrom, ikkinchi ko‘rmay”.

“Tuzuk-tuzuk, Muxtorboy, ana shu usulni puxta o‘rgan”.

To‘g‘risi, ustozning ko‘rsatma-uqtirmalaridan ajablanib qolardim: xuddi yonimizda turganday, harakatlarimizni aniq-tiniq baholardi! Yana bir holning guvohi bo‘lganman. Men shogirdlardan biri bilan kurash tushayotgan paytim Absal polvon shundoqqina biqinimizda, og‘ir-og‘ir nafas olib turganini payqadim! Payqadim-u yonimga yalt etib o‘girildim. Shu lahzadayoq og‘ildan chiqib kelayotgan ustozning tanbehi jarangladi:

“Ey, kengsoylik, xayolingni bo‘lma!”

O‘shanda Absal polvonda Xudo yuqtirgan qandaydir xislatlar ham borligiga o‘zimcha iqror bo‘ldim.

Qishloqdan kelgan shogirdlar kurash mashg‘ulotlaridan keyin, quyuq tollar tagiga tizilib o‘tirib, sibizg‘a chalish sabog‘ini boshlashar ekan. Ammo bu marosimga Absal polvon qandaydir mamnun qiyofada kelib astoydil bosh-qosh bo‘lardi.

Quvondiq akaning mashinasi shahar qolib, cho‘l qo‘yniga yo‘l olgandan beri chehrasi ochilmay, tajanglashib, g‘ingshib, so‘kinib, bu yerlardan qochib ketishga meni hech ko‘ndirolmay yurgan Davron bu holdan battar tutoqdi.

– Bir-ikki televuzurda ko‘rganman, – dedi u g‘ijinib, – qo‘lidagi xalacho‘pni silkitib-silkitib ko‘p odamga kuy chaldiradigan chollar bo‘lardi, shulardan buning farqi yo‘q ekan.

Men indamay bosh irg‘ab qo‘ya qoldim. Aslida Absal polvonning o‘zi ham, sibizg‘asi ham, fe’latvori-yu turmush tarzi ham negadir menga kun sayin yoqib, ustozga ichki bir hurmatim, ehtiromim tobora ortib borardi.

Shogird tushganimizning uchinchi yo to‘rtinchi kuni, kechki mashg‘ulot boshlanishidan andak avval Absal polvon ikkimizni yoniga chaqirdi.

– Sizlar sibizg‘a chalishni o‘rganmaysizlarmi?

– Biz kurash tushishni o‘rganishga kelganmiz, – deb qo‘rs bir ohangda javob berdi Davron.

– Kuy quvvatga quvvat qo‘sadi, – deb so‘z boshladi ustoz, biroq o‘ychan bir qiyofada yana jim qotdi, hoynahoy, bu gaplarni bizga aytish befoyda degan xayolga borci, birozdan so‘ng ohista qo‘shib qo‘ydi:

– Har bir polvonning o‘z sibizg‘asi bo‘lishi kerak, uni yurakning ustidagi kissada asrab-avaylab yurgan ma’qil.

Ochig‘i, men sibizg‘a chalishni juda-juda xohlayotgan edim. Ammo Davronning ko‘ngliga qarab, istagimni aytishga botina olmadim. Bir payt, ustozning yonidan uzoqlashayotgan mahalimiz, u kishi tuyqus meni to‘xtatdi.

– Inim, yuraging buyurgan ishni qilishga o‘rgan. Polvonlikning eng birinchi sharti shu.

– Buning polvonlikka nima aloqasi bor? – deya mahmadonachilik qildi sal narida turgan Davron, – yurak noto‘g‘ri yo‘lga boshlasa-chi.

– Unda yo sening polvonliging, yo yuraging borligi o‘trik.

Davron chimirilgan ko‘yi maydon tomon jo‘nadi. Unga shosha-pisha yetib olganimda odatdagidek g‘ijinib g‘udrandi.

– Nimalar deyapti anovi, o‘lay agar, birorta ham gapiga tushunmadim.

To‘g‘risi, ustozning so‘zlarini men ham to‘la anglab otoimadim. Anglaganim shu ediki, Absal polvon ko‘nglimda sibizg‘a chalishni juda-juda istayotganimni payqab qoldi. Xuddi shu hol meni ajablantirar,

xayollarimni alg‘ov-dalg‘ov qilar, ustozda chindan ham ilohiy bir xislat borligiga ich-ichimdan yana bir bor ishonch qabarar edi.

Men o‘zimni g‘aroyib bir olamga tushib qolgandy his qilardim.

Biz turgan joydan besh-olti chaqirim narida eni ellik qulochcha keladigan katta bir kanal bor ekan. Har ertalab yuguranimizda uning qirg‘og‘igacha borardik. Tag‘in cho‘mila ko‘rmanglar, sirtdan sokin ko‘rinsa ham, aslida tezoqar, ancha chuqur, deb Absal polvon borganimizning birinchi kuniyoq tayinlagan edi. Ammo Davron, rostdan ham ko‘ngli tusabmi yo ustozga atay terslik qilish niyatidami, cho‘milamiz deb har kuni meni garang qilardi. Men har xil bahonalar bilan taysallab yurardim.

Bir kuni peshin payti, orom istab chayлага kirgan chog‘imiz Davron irg‘ib o‘rnidan turdi-da, he yo‘q, be yo‘q, qaynoq tuproq ko‘pchib yotgan yo‘l bo‘ylab chopib ketdi.

Odatda, u birovdan ranjisa, kimningdir gapso‘zi ko‘ngliga og‘ir botsa shu taxlit jazavaga tushardi. Ammo ayni paytda do‘stginam xafa bo‘lgulik hech ne yuz bergani yo‘q: aftidan, bu uning otasiga, ustozga va jamiki ko‘rguliklariga qarshi isyonи edi.

Ko‘nglim bir noxushlikni sezib, ortidan otlandim. Davron shu yugurishda, yo‘l-yo‘lakay ko‘yla! ishtonini yechib bir chekkaga uloqtirdi-da, to‘ppato‘g‘ri, kanalni ko‘zlab boraverdi.

– Ey tentak, to‘xta, qayoqqa? – deb ikki-uch chaqirdim izidan.

Biroq u qayrilib ham qaramadi. Men yo‘l-yo‘lakay to‘zib yotgan kiyimlarini yig‘ib qo‘ltiqladim-u unga yetib olish ilinjida tezroq chopdim. Ammo baribir ulgurmadi. Mendan ancha ilgarilab ketgan Dav-

ron kanal qirg‘og‘ida bir zum nafas rostlab turdi-da, o‘zini suvga otdi.

– Ey! Ey! – deya oldim zo‘rg‘a, issiq va charchoq-dan hansirab.

Davron qo‘l-oyoqlari bilan tez-tez moltib nari-gi qirg‘oq tomon suzib ketdi. Uning har bir xatti-harakatini jon hovuchlab kuzatib turardim. Kuza-tardimu, do‘stimning bu qadar mohir suzuvchi ekan-ligini ko‘rib hayron-u lol edim. Qishlog‘imiz paxta paykallarini oralab o‘tgan lotok ariqdagi loyqa suvga bir-ikki sho‘ng‘ib olganimizni aytmasa, shu paytga-cha Davron bilan tuzuk-quruq cho‘milganimizni hech eslay olmayman. Ajab, do‘stim bunday mohirona suzishni qachon, qayerda o‘rgangan ekan? Aftidan, jazava va junun sharofatidan uning favqulodda yana bir iqtidori ochilib ketdi. Davron goh tez-tez moltib, goh suv sathi bo‘ylab yuzib o‘n-o‘n besh daqiqa ichida narigi qirg‘oqqa chiqib oldi. Chiqdi-yu o‘ng qo‘lini boshi uzra baland ko‘tardi. Men ham quvonch va mammuniyat bilan havoga musht sermadim.

– *Quyosh hali botmagan!*

Ikkimizning bo‘g‘zimizdan bab-baravar otil-gan hayqiriqdan suv sathi bir mavjlanib olganday bo‘ldi.

Bir payt shundoqqina biqinimda Absal polvon-ning og‘ir-og‘ir nafas olib turganini payqadim-u yalt etib o‘girilib qaradim. Chindan ham ustoz narigi qirg‘oqdagagi Davron tomon tund va o‘ychan nazar tashlab turgan ekan.

Men xijolatdan bir zum kalovlanib qoldim.

– Chaqir uni, – dedi ustoz ko‘z qiri bilan narigi qirg‘oqqa ishora qilib.

Davron qo‘llarini beliga tirab mag‘rur va masrur qiyofada suv oqimini kuzatib turardi. Men bir cha-

qirimcha naridagi beton ko‘prik yoqqa ishora qilib qichqirdim.

– Ko‘prikdan o‘tib kel!

Davron bosh irg‘ab o‘sha tomon jo‘nadi.

– Yo‘q, – deb qoldi Absal polvon, – yana suzib o‘tsin! Xato qilib, xatosini tuzata bilish, qaltis qadam qo‘yib, qaltis yo‘lidan yana ortga qayta olish mardning ishi. Ana shunday odam polvon sanaladi.

To‘g‘risi, semiz-semiz kitoblarning isi keladigan bu gaplarning mag‘zini to‘la-to‘kis chaqa olmadim. Anglaganim shu bo‘ldiki, do‘sting mard bo‘lsa, yana suzib o‘tsin, deyapti u kishi.

– Ey! – qo‘limni karnay qilib qichqirdim, – qaytib suzib o‘t!

Davron hindu sardorlariga taqlidan o‘ng qo‘lini ko‘ksiga, labiga, manglayiga tegizdi-da o‘zini suvga otdi. Avvalgidan ham mohirona, chaqqon va yengil moltib biz tomon suza boshladi. Absal polvon o‘zini tund va beparvo tutsa-da, ko‘z qiri bilan qarashlari-da, betoqat iyaklarini silab qo‘yishlarida xavotir alovatlari sezilar, oftobdan uniqqan ko‘ylagining tugmalarini chiqarib, beixtiyor ko‘makka shaylanar edi. Men do‘sstimning mahoratidan, favqulodda dovyurakligidan g‘ururlanib, quvonib turardim. Davron moltib, havoga suv sachratib yaqin kelib qoldi. Ustoz uning eson-omon qirg‘oqqa chiqib olishiga ko‘ngli to‘ldi, shekilli, chuqur bir tin olib uy tomon qaytib ketdi. U xuddi yelkasiga og‘ir yuk ortilganday, qandaydir bukchayib, og‘ir-og‘ir odimlar edi.

Davron pishqirib, entikib qirg‘oqqa chiqib keldi. Men uning kiyimlarini uzatdim. Davron ustoz tomon bosh silkib ishora qildi.

– Anavi nima dedi?

Men Absal polvon aytgan gaplarni hijjalab takrorladim.

– Bu meni maqtagani bo'lsa kerak-da, a? – dedi Davron qiziqsinib.

– Bilmadim. Xuddi kitobdan o'qib berayotganga o'xshadi.

– Topishmoq gaplarni ko'p gapisarkan bu, lekin qiziq. Ma'nosini tushunib olay deb kechasi bilan o'y-lab chiqaman.

– Ey, – dedim Davronning yelkasiga turtib, – suzishni qachon o'rganganding, pismiq?

Davron ko'zlarini pirpiratib, yelka qisdi.

– O'lay agar, o'zim ham bilmayman. Suvga sakrab bunday qarasam, suzib ketyapman.

– To'g'risi, senga qoyil qoldim.

– Ey, – deb iljaydi do'stim, – yo shaharga borib suzuvchi bo'p ketsammikin-a, ko'rding-u, suvga bir tushishda seni shuncha qoyil qoldirdim.

– Shaharda qizlar ham yalang'och bo'p cho'mili-shadi.

– Maza-da, – deb orzumand tirjaydi Davron. – quyrug'idan ushlab-ushlab olaman.

Men uyalib ketdim. Negadir ko'z oldimda Tanzila jonlandi. Shunday paytda uni o'ylaganimdan battar xijolat bo'ldim.

Biz Absal polvonni tanidik, bildik.

Bir kuni kechki payt mashg'ulotga qishloqdan odatdag'i shogirdlarga qo'shilib yana bir to'p yosh-yalang keldi. Kelishdi-yu hammalari uzuk-yuluq shivirlashib kurash maydonchasi tegrasiga davra qurib o'tirib olishdi. Biz ularni ajablanib kuzatib turardik. Ko'p o'tmay, eski bir "Jiguli" shiypon yoniga kelib to'xtadi va undan kurashchilar libosidagi alp qomat, sochini tap-taqir qirdirgan, qop-qora, qo'rs qiyofali,

qirq yoshlар chamasidagi kishi tushdi. U hech kim-ga lom-mim demay ayiqdek lapanglab maydonga kirdi-da, xuddi bellashuvga shaylangandek u yon-bu yon yurina boshladi. Shu payt ichkaridan bo‘zrang yaktak kiyib, beliga belbog‘ bog‘lagan Absal polvon chiqib keldi! Biz ustozni shu paytgacha chinakam polvonlik kiyimida ko‘rmagan edik. U ham hech gap-so‘zsiz, og‘ir-vazmin qadamlar bilan maydonga kirib bordi-da, boyagi barzangi bilan qo‘l uchida ko‘rishi. So‘ng ikkisi kurash tusha ketdi! Ular bir-birlarini xudi boqilgan buqalardek nari-beri surar, ixrab-uxrab usullar qo‘llashar, oyoqlari ostidagi poxol to‘shama to‘zib, quyuq chang-gard havoga ko‘tarilar edi. Biz, qishloqdan kelgan yosh-yalang, hammamiz ularning bellashuvini diqqat va qiziqish bilan kuzatar edik. Polvonlar qariyb bir soatcha vaqt davomida kurashdilar. Goh unisi, goh bunisi zo‘r kelar, so‘ng yana qayta bellashar, bet-bo‘yinlaridan qop-qora ter quyilar edi. Biri-birining kuragini yerga bosganda biz ham tomoshabin, ham hakam sifatida qiyqirishib, g‘olibni olqishlab qo‘yardik. Nihoyat, kurash poyoniga yetdi. Polvonlar yana bir og‘iz ham so‘z aytmay bирgalikda kanal tomonga ketishdi. Keyinchalik bildikki, ustozimiz bilan bellashgan kishi mashhur Ahmad polvon bo‘lib, davradagi tomoshabnlarning yarmisi uning shogirdlari ekan. Har ikki ustoz hafta-o‘n kunda shu taxlit bellashib, o‘z shogirdlariga amaliy-namunaviy saboq berishar ekan. Bir oylik shogirdchiligimiz davrida bunday tomoshaga uch marta guvoh bo‘ldik.

— Qoyil, — derdi Davron ko‘zлari chaqnab, — haqiqiy polvonlar ekan.

Ammo men g‘alati bir hislar og‘ushida edim. Nazarimda ustozlar bir-biri bilan emas, ikkovlashib qandaydir ko‘zga ko‘rinmas, kuch-qudratli raqib bi-

lan olishgandek tuyildi. Bu haqda ancha paytgacha o'ylab yurdim. Keyinchalik Ahmad polvon ham xuddi ustozimiz kabi odamovi, xilvatnishin, mohir do'mbirachi ekanligini bildimu, taassurotlarim to'g'rilingiga yana bir karra ishondim.

Ustozlar ikkinchi bor amaliy-namunaviy mashg'u-lot o'tkazgan kunning ertasiga, tushlik payti, Absal polvon hech kutilmaganda yonimizga keldi.

— Qanday bo'lyapti o'zi, ukalar, — dedi u andak kulimsirab, — biror nima o'rgana olayapsizlarmi?

— Ha, — dedi Davron shosha-pisha bosh irg'ab.

Ammo ustoz negadir menga qarab gapirardi.

— O'ylab o'yingga yetdingmi?

Men dovdirab qoldim. Ustozning pinhona kechin-malarimni sezib qolayotganidan hayronu lol edim.

— Yo'q, — dedim zo'rg'a pichirlab.

— Rais bova sizlarni menga ishonib topshirib ket-gan, shuning uchun bir-ikki og'iz nasihat qilib qo'yishim kerak bo'ladi. Bu ham mashq-mashg'ulotimizga kiradi. Eshitayapsizlarmi?

— Xo'p, ustoz, eshitamiz, — dedim bosh irg'ab.

— Polvon odam uch narsaga hokim, uch narsaga qul bo'lishi kerak.

— Men bilaman, — deb dabdurustdan gapga aralashdi Davron, — polvon nafsiga, shuhratparastlikka, manmanlikka hokim bo'lishi kerak... bir kitobda o'qiganman. Kallamga quyilib qolgan.

Do'stginamning mahmadonaligidan karaxt bo'lib dim. Maktabda hatto bilganlarini ham aytmay ituvchilarni xo'p kuydirardi, ammo hozir... aftan, ustoz meni o'ziga yaqin olib, yonimizda boshqa sh kim yo'qday, yuz-ko'zimga qarab gapirishiga rashi isyon qilgan bo'ldi. Bu beodoblikdan Absal polvonning jahli chiqib hoziroq uni jerkib tashlaydi,

hatto qulqoq-chakkasiga shapaloq tushirib qoladi, de-gan xayolda qo‘rqib turardim. Biroq ustoz Davronga shunchaki xayolchan ko‘z tashladi. Nigohlarida andak malol, andak taajjub, qiziqish qorishib ketgan edi.

— Balli, inim, balli! Xo‘s, keyin-chi, qolganini ham ayt-da.

— Polvon uch narsaga qul bo‘lishi kerak, — dedi Davron hech bir tap tortmay, — haqiqatning, or-no-musning...

Ammo uchinchi narsaning nomini topolmay bashara burishtirib, chaynalib qoldi.

— Ha, yaxshi, — deb bosh irg‘adi Absal polvon, — shu ikkovi ham hozircha sizlarga yetadi. Uchinchisi...

— Sibizg‘aning... — beixtiyor og‘zimdan chiqib ket-di mening.

Ustoz yalt etib o‘girildi. Uning yuz-ko‘zlar qan-daydir yorishib ketganday bo‘ldi.

— Topding! Sibizg‘aning quli bo‘lishi kerak!

Absal polvon shunday dedi-yu, ko‘krak cho‘ntagidan charm g‘ilofli sibizg‘asini avaylabgina qo‘liga oldi.

— Yo‘q, sibizg‘a emas, kitobda unday deyilmagan. Usto-o-oz, o‘zingiz aytинг, iltimos, uchinchisi nima edi, — dedi Davron astoydil qiziqib.

— Uchinchisini, ukalar, hali bilib olasizlar. Uning o‘zi o‘zini bildirib qo‘yadi. Qo‘rqmanglar, ko‘p kutib qolmaysizlar. O‘sha narsa hayot yo‘llaringizda il-haq-intizor. Erta bir kun nasib... una, unga duch bo‘lasizlar. U sizlarni kuldiradi, kurashadi, u sizlarni bor qiladi, yo‘q qiladi. Ana sh... alqila-juda sibizg‘a chalgilaring kep qoladi. Bo... valgnat to‘g‘ri topdi desak ham bo‘laveradi. Po... bo‘lishi kerak bo‘lgan uchinchi narsa, bu... Kelinglar, ho-zircha uni shunday deb atab... Hayotda o‘zi-

ga yo‘liqqanlaringizda, nima deb nom qo‘ysalaring qo‘yaverasizlar.

Davron ikkimiz bir-birimizga angraygan ko‘yi bir zum qotib qoldik. Axir shu paytgacha Absal polvonning bu qadar uzun gapirganini eshitmagan edik. Ustiga-ustak, uning aytganlari bizni battar qiziqtirib, aqlimizni shoshirib qo‘ydi.

— Yana topishmoq, — deb ming‘irladi Davron nadomat bilan bosh irg‘ab.

Ustoz bizga e’tibor bermay sibizg‘asini g‘ilofidan chiqardi-yu, chuqur tin olib, chalishga tutindi.

Nazarimda, butun borliq sukutga tolib, nafas olmay, sibizg‘aning nolakor sadolariga qulqoq osganday tuyildi. Go‘yo musiqaga oshufta oftob ham ko‘k toqida to‘xtab qolganday, otash-olov barkashi boshimizga ag‘darilib ketganday, uning kasridan tosh-u tuproq, dov-daraxt, o‘t-o‘lan kuyib, tutab yotganday edi.

Sibizg‘aning avjli-mavjli oh-u fig‘oni yer-u ko‘kni tutdi. Xayollar-u tuyg‘ularni ortidan mastona ergashtirib, bir najot, bir taskin, bir panoh izlab giryona charx urar, go‘yo izlaganini topolmay, sahro saroblariga qorishib, sarg‘aygan dala-dashtni battar sarg‘aytirib, olis ufqlarga singib ketar edi. Uzoq-yaqindagi ekin paykallari suvsirab emas, sibizg‘a bo‘g‘zidan otilayotgan bo‘zlov, dard-u hasrat hovuridan qop-qorayib ketganday, kunbotardagi tap-taqir qir-tepaliklar bag‘ridan ko‘tarilgan quyun sibizg‘aning achchiq-achchiq nolalaridan mast-u mustag‘riq bo‘lib, jazava bilan ko‘kka o‘rlab borayotganday tuyilardi.

Nihoyat, sibizg‘a sadolari tindi. Absal polvon lom-mim demay manglay terlarini kaftiga arta-arta chayladan chiqib ketdi. Adashmasam, ana shu bizning ustoz bilan so‘nggi suhbatimiz, sibizg‘a tilida so‘nggi sirlashuvimiz bo‘ldi.

Biz Absal polvonni tanidik, bildik.

Oradan bir haftacha o‘tib Quvondiq qaysar bizni olib ketish uchun yuborgan mashina o‘sha quyuq tolzor oldida qantarildi. Bir oylik shogirdlik davomida cho‘l qo‘ynidagi bu ovloq go‘shaga, Absal polvonga, uning tinch-totuv oilasiga xiyla ko‘nikib qolgan ekanman. Mashina yetib kelgan payt Davronga qo‘shilib bir-ikki shodon irg‘ishlab qo‘yganimdan hatto xijolatga tushdim. O‘zimni go‘yo ustozga xiyonat qilgandek, shu paytgacha yaxshi shogird sifatida uni aldab yurgandek his qildim.

Absal polvon mashina kelishidan ancha avval meni yoniga chaqirib oldi. Indamay qo‘limga yap-yangi sibizg‘a tutqazdi.

- Yaqinda sen uchun yasadim. Ol, mendan esdalik.
- Rahmat, ustoz, – dedim allanechuk to‘lqinlanib,
- ko‘z qorachig‘iday asrayman buni.
- Asrama, tez-tez chalib tur. Sizlarga qo‘shni qishloqda Safarmurod degan oti yo‘g‘-u nomi bor chavandoz yashaydi, taniysanmi?

– Taniyman, ko‘p ko‘rganman u kishini. Shunqor Hobil degan shoir u haqida “Jazirama” nomli asar yozgan ekan, adabiyot muallimi aytgan edi.

– Ana, ko‘p narsani bilarkansan, shu odam sibizg‘a chalishga usta. Ikki-uch kun qatnasang, bip-binoyi o‘rganib olasan.

– Siz aytganday bo‘ladi, ustoz. Biznikiga mehmon bo‘lib boring.

– Xo‘p, inim, xo‘p. Ha, aytgancha...

Endigina qayrilib ketayotgan joyimda ustozim yana to‘xtatdi.

– Avval ham aytgandim-ov... mayli, yana takrorlayman. Kurash payti atrofingga ko‘p alanglama, davaning salobati bosadi, sust tortib qolasan, kuching

dochadi. Ikki ko'zing faqat raqibda bo'lsin, tushunding-a.

— Tushundim.

Men Absal polvon bergan sibizg'ani xuddi ustozga taqlidan ko'krak cho'ntagimga avaylabgina solib qo'ydim.

Ochig'i, qishlog'imizni ko'p sog'inib ketgandik. O'n besh kuncha avval Quvondiq qaysarning yugurdaklaridan biri go'sht-yog', qovun-tarvuz, asal-u yong'oqdan iborat bir dunyo osh-ovqat keltirib bergandan beri u yoqdan hech xat-u xabar olmadik. Tezroq mashinaga o'tirib jo'nab ketishni sabrsizlik bilan kutardik.

Mana, nihoyat biz o'tirgan mashina ohista qo'zg'aldi. Bizni Absal polvon bola-chaqalari bilan tolzor biqinida kuzatib qoldi. Men ahyon-ahyon mashinaning orqa oynasidan izimizga qarab qo'yardim. Qo'llarini belig tirab, hali-hanuz biz tomon tikilib, baland chinorday qad kerib turgan ustoz tobora kichrayib borar edi. Beixtiyor cho'l qo'yniga ko'chib kelgan kunlarimiz yodimga tushdi. O'shanda ham qadrdon qishlog'imdan ko'ngil uzolmay mashinaning orqa oynasidan bot-bot termulganman. Termulganim sayin ulkan tog'lar mitti-mitti tepaliklarga aylanib qolganini ko'rib yig'lab yuborganman. Mana, bu gal ham ustozning tobora uzoqlashib, tobora kichravib borayotganini ilg'ab negadir ko'nglim buzildi. Davron esa bir gapirib, o'n kulardi.

— Ey, jo'ra, — deb qoldi u bir payt, — mening burgutlarim nima qilishyapti ekan-a...

Men indamay yelka qisib qo'ydim. Oradan roppa-rosa ikki soat o'tib ma'lum bo'ldiki, "Kengsoy burgutlari" qishloqqa kiraverishda, tutzor bo'yida bizni kutib turishgan ekan. Aftidan, ular bizni tanta-

navor qarshi olishmoqchiga o‘xshardi. Bir payt tanasi yo‘g‘on tut panasida g‘ira-shira ko‘rinib turgan qizga ko‘zim tushib qoldi. U Tanzila edi! Negadir yuragim gurs-gurs urib ketdi.

– Iya, ana, – deb qoldi bir payt Davron, – Tanzila ham meni kutib olgani chiqibdi! Kel, shu yerda tushib qolamiz.

Davronning talabiga binoan mashina to‘xtadi.

– Narsalarimizni uyg'a berib qo‘ying, biz bir pas-dan keyin boramiz, – dedi do‘stim haydovchiga.

Biz xuddi uzoq safardan qaytgan sayyoohlарdek, yo‘q, yo‘q, qattol yovni tor-mor etib, yurt ostonasidan g‘olibona oyoq oshirgan botirlарdek bolalar tomon mag‘rur-masrur yurdik.

– **Quyosh hali botmagan!**

Bolalarning tuyqus qiyqirig‘i hatto asta-sekin ufqqa og‘ib borayotgan quyoshni ham cho‘chitib yuborganday tuyildi. Biz ham qo‘l sermab ularga jo‘r bo‘ldik. Bir zumda dala-yu dasht quvnoq kulgular, beozor hazil-huzullar bilan to‘lib-toshdi.

Men bolalar bilan ko‘rishiб, galma-gal hol-ahvol so‘rashayotgan bo‘lsam-da, ammo fikr-u zikrim sal narida hali-hanuz chala-yarim yashirinib turgan, boy a bolalarning qiyqirig‘iga qo‘l silkitib o‘zicha jo‘r bo‘lgan Tanzilada edi! Ichki bir ishtiyоq meni u tomonga tortqilar, yuragimda ajib bir hislar kezinardi. Ammo Davron meni yana ortda qoldirdi.

– Bolalar, men hozir, – dedi u atrofini g‘ala-g‘ovur bilan o‘rab turgan do‘stlari davrasini yorib qiz tomon-ga yurarkan, – Tanzila, salom, qalaysan?

Tanzila bir dona tut yaprog‘ini qo‘lida g‘ijimlagan ko‘yi uyalinqirab panadan chiqdi.

– Assalomu alaykum, akajonlar, yaxshi yetib keldilaringizmi?

– E, so'rama, Tanzila, – dedi Davron oliftalarcha qo'l siltab, – rosa boplandik, tinkamiz quridi. Essiz, shaharga bormadik-da, senga zo'r sovg'a olib kelgan bo'lardim.

– Menga hech narsa kerakmas, – dedi qiz battar uyalib.

– Kutib olishga chiqqan qizga albatta sovg'a berish kerak, nima, kinolarda ko'rmaganmisan?

– Men... men kutib olishga chiqmadim. Sigirlarni haydar kelayotgandim... sizlarni ko'rib to'xtadim.

Qizning gaplariga chippa-chin ishongan Davronning hafsalasi pir bo'ldi.

– Seni qara-yu, – dedi u bolalar tomon yurarkan, – meni kutgani chiqqansan deb quvonib o'tiribman.

– Davron, – deb qichqirdi bolalardan biri, – biz zo'r stadion qurdik, yur, senga ko'rsatamiz.

– Qani, yuringlar!

Bolalar duvva yo'ning narigi tarafiga o'tib olishdi.

– Men hozir yetib olaman, boraveringlar, – dedim ular orasidan sekin sirg'alib chiqarkanman.

– Yaxshi, sen Tanzilani uyiga olib borib qo'y, – dedi Davron qandaydir buyruq ohangida, – kechqurun qishloq oralaymiz. Bugun uyqu yo'q. Shu paytgacha chaylada miriqib dam olganimiz yetar.

Men Tanzilaning yoniga keldim.

– Assalomu alaykum, aka, yaxshi keldingizmi? – dedi u qizarib-bo'zarib.

– O'zing galaysan?

– Yaxshi. Hozir kanikul. Uy ishlariga qarashib yuribman, – Tanzila gapirardi-yu, sog'inch, quvonch limmo-lim nigohlarini har yon olib qochardi. – Mana, sigirlarni haydar kelayapman.

– Qani ular?

- Uyga yetib qolgandir.
- Esli sigirlar ekan.
- Tanzila qiqirlab kulib yubordi.
- Biz gaplashib qishloq tomonga yurdik.
- Chin polvon bo‘p ketibsiz, – dedi Tanzila menga mehr bilan ko‘z tashlab.

Uning so‘zlaridan, qarashlaridan yayrardim.

Biz Absal polvondan uzoqlashgan edik.

Tanzila o‘sha yoz beshinchi sinfni tamomlagan, chiroyiga chiroy, bo‘yiga bo‘y qo‘silib qolgan edi. Usta Abil uni yer-u ko‘kka ishonmay parvarishlar, topgan- tutganini unga atar, har gal shaharga borgani-da, qizi uchun atay nimadir olib kelar edi. yengi, etagi kalta, shaharcha fasondagi kiyimlariga, tilla-kumush taqinchoqlariga, shaloladek yoyilgan soch turmak-lariga qishloq qizlari havas-u hasad bilan qarashardi. Mulla Mirza nevarasining shaharcha yasan-tusanini, o‘z ta’biri bilan aytganda, shaytoniy nag‘malarini ko‘rganda odatdagidek kalimai shahodatni tilga olib, qo‘lini yuziga pardalar qilib panaga qochar, ammo Tanzila bobosini uchratgan joyida mehr bilan bo‘yni-ga osilib yalab-yulqab tashlar, noqobil, noaql farzand-laridan ro‘schnolik ko‘rmagan qariya mumdek erib ko‘zlariga yosh olar, nevarasini alqab erkalar, goho uni qo‘msab, sog‘inib o‘g‘linikiga izlab borar edi.

Men Absal polvon hadya etgan sibizg‘ani yashirib qo‘yishni qayta-qayta tayinlab onamga topshirdim va uni qaytib hech qachon so‘ramadim.

Biz Absal polvondan uzoqlashgan edik. Hol-buki, o‘sha yillar shu ustozning ta’limi sharofatidan teng-to‘silarimiz orasida polvon bo‘lib tanildik. Kurash davralarida nomlarimiz alohida e’tibor bilan tilga olin-digan bo‘ldi. Ayniqsa Davronning shashti baland edi. Bu orada uning zo‘ravonlik, jangarilik tomiri ham qa-

bardi. Tevarakdag'i shaharu qishloqlarda o'zicha adolat tiklab, o'zicha kengsoyliklar or-nomusini himoya qilib yurardi. Hatto kimnidir kallasini yorgani uchun, kimnidir kaltaklab qo'lini sindirgani uchun viloyat markazi-da ikki-uch marta militsiyaga ham ishi tushdi. Ammo otasining ko'magida hammasidan oson qutilib chiqdi.

O'z sovug'idan o'zi junjikib qish endigina kirib kelayotgan kunlarning birida qishlog'imizda katta to'y, katta kurash tomoshasi bo'ldi. Unga uzog'-u yaqindan nomdor, unvondor polvonlar tashrif buyurishdi. Shahardan mashhur bir sambo bo'yicha sport ustasi ikki nafar, bizlar tengi shogirdini ergashtirib kelgani haqida eshitdik.

— Bittasiga sen, bittasiga men chiqaman, — deb tantanavor e'lon qildi Davron, to'yxona tevaragida janjal talab izg'ib yurgan paytimiz, — enag'ar shaharlklarga bi-ir ko'rsatib qo'yaylik. Ikkinci bu yoqlarga oyoq bosmaydigan bo'lishadi.

Biz rizolik, hamfikrlik, hamnafaslik alomati sifatida odatdagidek qo'llarimizni musht qilib baland ko'tardik.

— Quyosh hali botmagan!

Ammo o'sha kech ilk bor quyoshimiz botganday bo'ldi. Kurash davrasi guvullab turardi. Goh g'ala-g'ovur, goh qiyqiriqlar osmonga o'rlaydi. Qo'shni qishloqlik, to'y egasiga qandaydir qarindosh bo'lган, o'zining qattiqqo'lligi, adolatparvarligi bilan nom qozongan Ergash mirob bosh bakovul edi. U o'zining jez jarangiday qattiq va tiniq tovushi bilan goh davrani tinchlantirar, goh maydonga chiqqan polvonlarni tanishtirib, sovrinni e'lon qilar, ora-chora hazil-huzul, qochirim gaplar bilan tomoshatalablarni kuldirar edi. Biz qishlog'imizning atoqli polvonlari to'vida payt poylab o'tirardik.

– Davron, chiq! – deb qoldi bir payt bizga bosh-qosh bo‘lib turgan Karimboy muallim, – anovi shaharliklarning biri davra aylanayapti, jussasi ham ko‘p katta emasakan, tezroq chiq.

“Shaharlik Husan polvonga talabgor bormi? – deya uchinchi bor e’lon qilayotgan bakovul Davronga ko‘zi tushib, mamnun bosh irg‘adi.

Shaharlik raqib kurashchidan ko‘ra sartaroshga ko‘proq o‘xshardi: orasta sochlari sip-silliq, rang-ro‘yi oppoq.

Ammo... bakovul polvonlarni el-xalqqa tanishtirib, solimni aytib, raqiblar bir-biriga hamla bosh-lagandan bu yog‘iga atigi ikki yo uch daqiqa o‘tdi. Chalpak bo‘lib tushgan Davronni raqibi ko‘kragidan bosib turardi! Bu qanday sodir bo‘ldi, hatto ilg‘ayol-may qoldim.

– Halo-o-o! – hayqirib yubordi davra.

Biroq Ergash mirob martabali mehmonlar qatorida tog‘day tebranib o‘tirgan Quvondiq qaysarga bir qarab qo‘ydi-da, keskin bosh chayqadi.

– Yo‘q, bu g‘irrom! Qayta boshdan kurashinglar, polvonjonlar!

Davra norizo guvillab qo‘ydi. Husan polvon raqibini qo‘yib yuborar ekan, bir bakovulga, bir taraf-dorlari yoqqqa ajabsinib tikildi.

– Qani, davra sovub qolmasin, polvonjonlar, olishinglar! – deb hech nima ko‘rmaganday u yon-bu yon yurindi Ergash mirob.

– Ey!

Bu o‘rnidan irg‘ib turgan Davronning qichqirig‘i edi.

– Ey! – dedi u bakovulning yelkasiga turtib, – nima deyapsiz o‘zi? Qanday g‘irrom, halol tashla-di-ku?!

Davron shunday dedi-yu shiddat bilan davradan chiqib ketdi. Men uning odatdagidek jazavasi tutganini tushundim-u, bolalar ushlab turgan Davronning qalin kamzulini, botinkasini olib orqasidan yugurdim.

Ana u! Ustidagi yaktakni yechib duch kelgan yoq-qa uloqtirdi-yu qorong‘ilik qa’riga o‘zini urdi.

To‘xona tarafdan yallachining baland xonishlari jaranglardi.

*Otib tosh menga tonding-ku,
Bo ‘lar endi, bo ‘lar endi.
Og ‘ir kunlarga solding-ku,
Bo ‘lar endi, bo ‘lar endi.*

Men Davronni ko‘zdan qochirmaslik uchun yugur-giladim. Havo xiyla sovuq, qor isi kelardi. Yer-u ko‘k qop-qora, to‘rt qadam naridagi sharpani ham ilg‘ab olish qiyin. Men do‘stimning shamollab qolishidan qo‘rqardim. Ammo hamishagidek jazava payti unga yaqin borish xavfli ekanligini bilardim.

Davron kimningdir darvozasi yoniga to‘kib qo‘-yilgan g‘o‘zapoya uyumiga borib o‘zini tashladi. Tashladi-yu g‘ujanak tortib tek qotdi. Men biroz narida ikki-uch daqqa uni kuzatib turdim. To‘xona tarafdan yallachining xonishlari, kurash maydoni yoqdan tomoshabinlarning qiyqirig‘u g‘ala-g‘ovuri baralla eshitilib turardi. Hoynahoy, sovqo‘li, shekil-li, andak vaqtdan so‘ng Davron yotgan joyidan turib, bukchaygancha o‘tirdi.

– Ma, kurtkar gni kiyib ol, – dedim yoniga borib.

Do‘stim men uzatgan kiyimlarni ters bir harakat bilan egniga oldi.

– Sharmanda bo‘ldim, – deb g‘o‘ldiradi u botinka-ga oyoq suqarkan, – bir qo‘ldan qoldirmadi-ya?!

Men do'stimni avaylabroq ovutishga urindim.

– Ong ketting-da.

– Haqiqiy sambochi ekan. Qanday usul qo'llaganini ham bilolmay qoldim... odam nonni katta tishlasayam, katta gapirmasligi kerak ekan. O'zimizcha maqtanib yuribmiz-a.

– Xafa bo'lma, Davron, kurashda doim zo'r kelib bo'lmaydi, chidash kerak.

– Men otamdan xafaman.

– Nega?

– O'shanda bizni qandaydir sibizg'achiga topshirmay, shaharga oborganida, hozir zo'r sambochilar bo'p ketardik, har xil musobaqalarda qatnashib mashhur bo'lardik.

– Noshukurlik qilma, – dedim Davrondan astoydil ranjib, – o'zing ko'tarmalik qilib yiqilding, bunga ustozni ayblama, u kishidan ko'p narsa o'rganidik-ku.

Shu payt uch-to'rt sharpaning qadam tovushlari bizga yaqin kelib qoldi. Ular "Kengsoy burgutlari" ekan.

– E, bu yerda o'tiribsizlarmi, – dedi Shayxali haloslab, – izlamagan joyimiz qolmadи.

– Hamma ustimidan kulib yotgan bo'lsa kerak u yoqda, – deb po'ng'illadi Davron.

– Nega kularkan, – deb entikdi G'iyos, mard polvon ekan deb maqtab yotishibdi.

Do'stim bilagi bilan manglayini qashladi. Odатда, mammun bo'lsa, nimadandir ko'ngli to'lsa shunday qiliq qilardi.

– Yengilganini tan olish mardning ishi, – deb qo'ydim yana bir karra unga dalda bo'lib.

Davron irg'ib o'rnidan turdi. Biz ham shuni kutib turgandik.

– Quyosh hali botmagan!

Jo'shqin, tig'day keskir hayqirig'imiz tund bulutlar bag'rini burdalab o'tib, marjon-marjon yulduzlarga tegib aks-sado berganday bo'ldi. Ishonch-u umidga, orzu-yu ishtiyooqqa limmo-lim ana shu hayqiriq mavjalarida sollanib kunlar, oylar, yillar o'tdi. Zavqli-shavqli kunlarning birida, nihoyat, o'rta maktabni bitirib, yetuklik attestatini qo'lga oldik. Beg'ubor bolalik, uchqur xayolot, sertuproq yo'llarning chang-to'zonga qorishib ortda qolib ketdi. Chang-to'zonlar buluti aro shijoatga, kurashga, birdamlikka undovchi baland ko'tarilgan o'sha qo'llargina, o'sha jangovar, jarangdor hayqiriqgina izimizdan qolmay ergashib kelar edi.

– Quyosh hali botmagan!

Maktabimiz direktori mustaqil hayotga qadam qo'yganligimiz bilan bizlarni qutlagan, quvnoq qiyqiriqlar, beozor hazil-huzullar, sirli suhbatlar avj olgan o'sha bitiruv kechasi ham shonli-shukuhli shiorimiz shu taxlit yana bir karra jarangladi. Unga o'g'il-u qiz, o'qituvchiyu o'quvchi, barcha-barcha bab-baravar jo'r bo'ldi. Hammasi, odatdagidek, shahzodalardek yasangan, bir gapirib o'n kulayotgan, har bir xattiharakati o'ziga yarashib turgan, hammadan ko'rka'm, hammadan o'ktam Davronning birgina ishorasi bilan xuddi kelishib qo'yilgandek bir lahzada sodir bo'ldiyu, hayqiriq shiddatidan yer-u ko'k larzaga keldi.

Mening esa dilim xufton, ko'nglim vayron edi. yetuklik hujjatini emas, shafqatsiz hukm nusxasini qo'liga olgan mahbusdek karaxt turardim. Axir bugun biz butkul tark etishga chog'lanayotgan, negadir buni tantanali nishonlayotgan mana shu maktab, uning tosh-beton ich-u tashi, sinfonalar, hovlisi, hamma-hammasi menga g'oyat aziz va muqaddas edi. Chechak oftob nuriga intilgandek, men ham maktab

bag'ri sari talpinardim, topinardim. Go'yo bu yerga o'qish-o'rganish uchun emas, yashash-yashnash uchun kelardim. Chunki... chunki tomirimda qon o'rniga ishq-muhabbat olovi oqardi.

Men... men betoqat, beqaror, behalovat oshiq edim. Maktab quchog'idagina go'zal va oqila Tanzilani ko'rib, quvnoq kulgulari-yu shirin so'zlarini eslab xuddi labiga obihayot tomizilgan og'ir bemorday jonlanib, qalbim, o'y-xayollarim, tuyg'ularim taskin topardi.

Sevgining bunday o't-otashiga qachon yo'liqdim o'zi?! Axir Tanzilani qishlog'imizda endigina paydo bo'lgan damlaridan beri bilaman-ku?! Yo'llarda-gi quvlashishlar, tutzordagi uchrashuvlar, goho birga mol haydab, goho birga maktabga kelishlar, beg'ubor, beozor hazil-huzullar, sodda-jo'n suhabatlar, hamma-hammasi esimda-ku?! Balki... balki qiya ochiq darvoza yonida hurkib, jovidirab turgan qizchaning ma'yus ko'zlarini ilk ko'rganimdayoq yuragimning tub-tubiga sevgi cho'g' tashlagandir? O'yinqaroq bolalik, polvon bo'lish orzusi ortidan yugurib-yelib balki buni payqamagandirman? Sho'x-sha'n qiyqiriqlar, kurashdag'i ketma-ket yutuqlar zavq-shavqi o'sha lag'cha cho'g'ni ko'mib ketgandir? Ulg'ayib, bo'ynimiz, bilagimiz yo'g'onlashib nozik qad, gulgun yuz qizlar qiziqishlarimizni qitiqlay boshlagan chog'lar ko'z qirim bilan o'sha qo'shni qizni zimdan izlab qolishlarim nedan darak edi?

Bo'yiga bo'y qo'shilgan sayin o'zini menden olib qocha boshlagan, ora-chora duch kelgan payt salom-alik'dan nari o'tmay, qimtinibgina uzoqlashadi-gan Tanzilaning ortidan entikib, hayajonlanib qarab qolishlarim nedan xabar berardi? Bu yuragimning tub-tubida ko'milib qolgan, o'sha lag'cha cho'g' to-

bora yashnab, yonishga, kuydirishga shaylanayotganidan mujdalar emasmidi? Nihoyat, u lovullab alanga oldi! Nihoyat, u meni rohatbaxsh ishq gulxaniga tashladi! Bu hol to‘qqizinchi sinfda o‘qiyotgan chog‘larim, borliq bahor bo‘yog‘iga bo‘yanib, o‘z yasan-tusaniga o‘zi mahliyo bo‘lib turgan kunlarning birida sodir bo‘ldi.

Maktab bo‘yicha shanbalik o‘tkazayotgan edik. Qay bir sinf dov-daraxtlarni butoqlashga, qay bir sinf ko‘cha-ko‘yni tozalashga, ba’zilari sinfxonalarni ta’mirlashga safarbar etilgandi. Ustachilikka andak uquvim bo‘lgani uchun meni fizika o‘qituvchimiz chaqirib, direktor xonasidagi bo‘g‘inlari bo‘shashib qolgan stolni tuzatib berishimni iltimos qildi.

Rahbarning kabineti uzun yo‘lakning oxirida, nim qorong‘u burchakda edi. Tayinlangan ishni bir pasda tindirib, direktorning kursisiga o‘tirib xonani tomosha qila boshladim. Orqa devorda, ixchamgina javon tepasida kalta soqol dohiy surati, burchakda eski bir televizor, men tuzatgan stol ustida bir taxlam gaza-ta-jurnallar. Negadir ichkariga ochiladigan qo‘shta-baqa eshik tepasiga darz ketgan. Xonadan zax va bo‘yoq isi anqiydi.

Bir payt tashqarida tapir-tupir qadam tovushlari, qizlarning sho‘x-sha’n kulgulari eshitildi. Aftidan, ular bir-birini quvlashib kelayotganga o‘xshardi. Sergaklandim. Qadam tovushlari direktor xonasi tomon yaqin kelib qoldi. Hoynahoy, qizlardan biri uzun yo‘lakning nim qorong‘u burchagiga yashirinish ilinjida edi. Sabrim chidamay yo‘lakka qaramoqchi bo‘lib shasht bilan eshikni tortib ochdi... Ochgan zahotimoq eshikka endigina suyangan bir qiz muvozanatini yo‘qotib ichkariga, ochiqrog‘i, to‘ppa-to‘g‘ri mening ko‘ksimga yiqildi.

— Vu-uy!

Quchog‘imdagi jingiltob sochlari to‘zg‘in, qiyiq qoshlari qop-qora, lo‘ppi yuz, aqiq labli bu su-luv Tanzila edi! U uzun-uzun kipriklarini pirpiratib, yuz-ko‘zimga bir lahma hayron-u lol tikildi-yu bir tal-pinib qad rostladi. Qad rostladiyu shiddat bilan tash-qariga otildi. Men karaxt qotib qolgan edim. Butun vujudimga hali menga notanish yoqimli bir titroq indi. Allanechuk iforlardan ko‘zim mastona tinib, boshim yengil aylanar edi. O‘sha kun direktor xonasidan qachon, qanday chiqqanimni, qachon, qay tarzda shan-balik yakunlanganini bilmayman. Bilganim shulki, hurkak nigohlar, qo‘rquv va uyatdan bir oqarib, bir qizargan gulgun chehra ko‘z o‘ngindan sira ket-may qoldi. Yo‘laklardan, maktab tevaragidan, to‘pto‘p qizlar orasidan kishi bilmas Tanzilani izlayman. Ammo uni uchrata olmadim.

O‘sha kun, o‘sha lahzadan boshlab Tanzila men-ga tutqich bermay qo‘ydi. Maktabda, ko‘cha-ko‘yda uni zor-u intizor izlardim. Tanzila doimo dugonalari davrasida yurar, meni ko‘rib ko‘rmaslikka olar, no-goh duch kelib qolgan chog‘, yengil bir salomlashib, ortiqcha og‘iz ochishga imkon bermay, oldimdan chaqqongina uzoqlashar edi. Bir kuni singilchamni, akamning qizchasini Tanzila opasini chaqirib chi-qishni tayinlab usta Abilnikiga yurak yutib kirgizib yubordim. Shom qorong‘iligi quyilib kelayotgan payt edi. Oradan bir soatcha vaqt o‘tdi. Na qizaloqdan, na Tanziladan darak bo‘ldi. Toqatim tugab, endigina uy tomon burilganimda cho‘ntak to‘la konfet bilan singiljon chiqib kelib, Tanzila opasi chiqolmasligi-ni, ishi juda ko‘pligini tantanavor e’lon qildi. Yeli chiqqan pufakday bo‘shashib qoldim. Dard-u dun-yom qorong‘i bo‘ldi.

Biz Absal polvondan uzoqlashgan edik.

Ishq-muhabbat meni beomon kuydirardi. Na uyga sig‘ardim, na ko‘chaga! Dardimni Davronga ay-tishga bir-ikki og‘iz juftlagan paytlarim ham bo‘ldi. Ammo kulgiga qolishdan cho‘chib unga ham lom-mim demadim. Shu taxlit beqaror, behalovat kunlar o‘tib borardi. O‘sha o‘quv mavsumi oxirlab qolgan kezlar, tugab borayotgan bahor yana qayta gurkirab, chor-atrofni rang-barang chechaklarga, turfa iforlarga burkab yuborganday bo‘ldi! Tanzila, mening tutqich bermas Tanzilam birozgina shashtidan tushdi! Meni ko‘rgan mahal avvalgidek hurkib qochmas, hol-ahvol so‘rashar, uzuq-yuluq, dovdir-dovdir gaplarimni toqat bilan tinglar, o‘zi ham nelarnidir so‘ragan bo‘lar, goho, dabdurustdan uyimizga kelib, onamning, yangam-ning u-bu ishlariga qarashar, ko‘nglimni quvonch-u hayajonga to‘ldirar edi. Qizdag'i bunday kutilmagan o‘zgarishlar sir-asrorini ba‘zan o‘zimcha, to‘g‘rirog‘i, xudbinlarcha tushunib badxohlik bilan iljayardim.

O‘sha paytlar qizlar o‘rtasida “Xotira” degan daftar tutish keng an‘anaga aylangan bo‘lib, uni o‘zлari istagan sinfdoshiga, tanish-bilishlariga tutqazar, daftar qo‘liga tekkanlar unga o‘z tilaklarini, she‘r yo biror matal bitib egasiga qaytarar edi. Ajoyib kunlarning birida Tanzila iymanibgina ana shunday “Xotira” daftarini uzatdi, esdalik yozib bersangiz dedi. Men olam-olam quvonchu hayajonga ko‘milib, qiz qo‘lidan daftar emas, mulla Mirza ta‘biri bilan aytganda, farishta ilkidan nomai a‘molini olganday bo‘ldim. Dunyo ko‘zimga charog‘on ko‘rinardi.

“Xotira”ga sinfdoshlaridan boshqa “begona”lar hali “mehmon” bo‘lmagan ekan! Demak, Tanzila birinchilardan bo‘lib mening yozib berishimni istabdi! Bunday ashyoviy dalillar men uchun yorug‘ va

farahli mujdalar berardi. yer-u ko'kda beqanot uchib yurardim.

Tanzila tag'in takalluf etgan o'sha kuni tun bo'yи daftarni silab, o'pib, hidlab chiqdim. Nazarimda, undan sevgi va baxtning xushbo'ylari anqiyotgandek, kimlardir, qachonlardir sahifalariga yozgan tilaklar, niyatlar aslida allaqachon ikkимizning manglayimizga bitilgandek tuyilar edi. Ammo tez orada jiddiy muammoga yo'liqdim: daftarga nima deb yozishni bilmay boshim qotdi. Bilganlarimning, o'ylaganlarimning barchasi oddiy va jo'n tuyilardi.

Ertasi kuni bir bahona bilan maktabga bormay "Xotira"ga hech kimnikiga o'xshamagan, yuragim harorati, sevgim, muhabbatim sezilib turadigan so'zlardan terib-terib tilak yozish bilan ovora bo'ldim.

Ming tirishib urinishimga qaramay, kechgacha menga ajratilgan sahifalarning arang yarmisini to'l-g'azdim. Adabiyot muallimi qo'yarda-qo'ymay yodlatgan darsliklardagidan boshqa birorta ham she'r bilmasligim xo'p pand berdi. Kechki payt velosipedga o'tirdim-u Davronlarnikiga jo'nadim. Bilaman, do'stимning uyida she'rlar, g'azallar bitilgan semiz-semiz kitoblar juda ko'p. Davronning o'zi ham qanchasini yoddan biladi, bayram-tantanalarda aytib yuradi.

Hovliqib kelganimni ko'rib do'stim ajablandi.

– Ha, nima qilib yuribsan?

– Zo'r she'rlar yozilgan kitoblariningdan berib tur, kerak bo'p qoldi.

– Ha, shundaymi, – dedi Davron hafsalasi pir bo'lib, aftidan, u biror bir janjalli masalani hal qilishga ishtiyoqmand turardi. – Anovi "Xotira" daftarga yozmoqchimisan?

Negadir uyalib ketdim.

— Ha... Bittasi iltimos qilgandi. Kallaga hech narsa kelmayapti.

— Tanzila bo'lsa kerak-a, — dedi Davron uzun-dan-uzoq esnab, — qaysi kuni menga bermoqchi edi, olmadim daftarini, hozircha ishim ko'p, keyin yozib beraman dedim. Tumtayib ketib qoldi. To'g'risi, qiz-larning shu "Xotira"si ham rosa jonga tegdi.

Boshimga to'qmoq tekkanday bo'ldi: "Demak, Tanzila eng avval Davronga uzatgan ekan-da?! Bu nimadan darak? Yo... yo'q, yo'q, bo'lishi mumkin emas!"

— Ha, nega garangsib qolding, — dedi do'stim ast-angorimga ajablanib qararkan, — qo'rqma, qizg'an-mayman, eng mashhur she'riy to'plamlardan bera-man senga.

Birozdan so'ng to'rxalta to'la kitoblarni olib qaytarkanman, boshqa bir o'ydan ichim ilib qoldi: "Axir... axir Tanzilaning daftarini qanday rad etish mumkin?! Demak... do'stimdan xavotirlanmasam ham bo'ladi..."

O'sha tun kitob titib, she'rlar o'qib, o'zimga yoqqanlarini "Xotira"ga ko'chirib chiqdim. Mening dalli-devonalarcha shug'ullanib yotganimni ko'rib onaginam, bolam, darslarga berilib ketdi, ko'z teg-masin, degan o'yda bo'lsa kerak, mamnun bir qi-yofada oldimga goh choy, goh qand-qurs keltirib qo'yadi. Men... men esa uni deyarli ko'rmayman. Butun xonani, xayolotimni Tanzilaning go'zal, jozi-bali surati egallab olgan. Men kichkinagina xontax-tam ustiga muk tushib emas, go'yoki, Tanzilaning oyoqlari ostida egilib-bukilib ixlos-u ikrom bilan daftar qoralayman. Lablarim she'riy satrlarni emas, go'yo yuragimdan qaynab-toshayotgan sevgi izhor-larini bayon etadi.

Nihoyat, tongga yaqin ish bitdi. Ertasi kuni katta tanaffus payti Tanzilani bir amallab yolg'iz uchrat-dim-da, go'yo yovuz devni o'ldirib, uning kokilini vasl umidida malikaga keltirgan botirday, qizning omonatini qo'liga tutqazdim. Tanzila uyalgannamo "rahmat" dedi-yu, sinfxona tomon chopqillab ketdi. Bir gal tarix fani bo'yicha tuman olimpiadasiga qat-nashib, berilgan savollarga uch soatcha javob yozib topshirgan edim. So'ng go'yo hayot-mamotim shunga bog'liqday hayajon-hadik og'ushida natijasini rop-pa-rosa o'n besh kun kutdim.

O'sha kuni ham Tanzilaga "Xotira"sin qaytarar ekanman, o'zimni xuddi o'sha jiddiy bir imtihon topshirgan, kelajagi, tirikligi hal bo'layotgan o'quvchidek his etdim. Nazarimda, Tanzila yozganlarimni o'qib, oh-u nolamni anglab, sevgimga iqror bo'lib, sochlari to'zg'in, ust-boshi yupun, yalang bosh holda, parishon bir tarzda qarshimga chiqishi, ko'zlaridan achchiq-achchiq yosh oqib, boshini ohista ko'ksimga qo'yishi shart edi. Yo'q, yo'q, unday einas, nazarimda Tanzila bitiklarimga ko'z tashlab, qalbimni anglab, mакtabdan qaytar chog'i meni zimdan kutib turishi, tunda qochib ketaman, quvlaysizmi, deya pichirlashi, so'ng kelishil-gandek, oy balqib turgan kechada, u tutzor bo'ylab laylivash-laylivash yugurib ketishi, meni uni tutib olib dast ko'targan chog', ko'ksimga ohista bosh qo'yishi zarur edi. Ammo... ammo o'ylaganlarim sahro sarobi bo'lib chiqdi. Tanzilada hech bir o'zgarish sezilmadi. U hamishagidek gulgun yashnab, goh dugonalari bilan pichirlashib, goh qah-qah otib kulib o'z-o'zicha, parvoyi palak yurardi. Shunday beshafqat, beparvoliklar aro o'quv mavsumi ham bitdi. Sershovqin maktab yana huwillab qoldi. Mening nazarimda butun dunyo huwillab qolganday bo'ldi. Chunki men Tanzilani,

go'zal Tanzilamni tez-tez ko'rish, uning jingil-jingil sochlarini, qiyiq, qayrilma qoshlarini, durkun, kelishgan qomatini, pana-panadan tomosha qilish imkonidan ayrildim. Ustiga-ustak, ta'til boshlangach, hammamiz to'zidik. Mulla Mirza Tanzilani olib tog'lar bag'riga, allaqanday qarindoshinikiga ketdi. Yangamning aytishicha, tog'da ular bir oycha yurib, o'sha paytlar tabiblik talabida yurgan qariyaning amaliy faoliyati uchun har xil giyohlar yig'ishar ekan. Eh, bu fitnakor rejadan avvalroq xabardor bo'lganimda, biror bahona bilan ularga qo'shilib olishim mumkin edi. Hartugul, mulla bova meni yaxshi ko'radi, har uchratgan mahali, Norsoatboy, sizda so'pilik siyog'i bor, vaqt topsangiz, sizga "Haftiyak"dan saboq beraman, keyingi paytlar, eskicha biladigan odam qolmayapti, to'y-ma'rakalar ni o'tkazibgina yurasiz, deb iltifot ko'rsatardi. Mayli, har qanday balolarga tayyorman, ishqilib, Tanzilamning yonida yursam, yirik-yirik ko'zlariga to'yib-to'yib boqsam, bas. Biroq tirikchilik tayog'i xuddi ko'k rang yo'l belgisi kabi meni boshqa yoqqa boshqarib turardi. Ta'tilimiz boshlangan kunlar onam cho'lning qaysi bir posyolkasida istiqomat qiladigan opamnikiga mehmon bo'lib borib kelgan edi. Norsoat ham kap-katta yigit bo'p qoldi, yozda bekor yurmasin, kelib, mening dala ishlarimga qarashsa, uch-to'rt so'm haq beraman, kelgusi o'quv mavsumiga ust-boshini butlab oladi, debdi pochcham. Men noiloj rozi bo'ldim. Axir, bu yerda nima ham qilaman. Tanzila, mening Tanzilam yo'q! Davron ham tez orada otasi bilan allaqanday sanatoriyga ketishga chog'lanib yuribdi.

O'sha yoz cho'l-u dasht jazirama quyoshdan emas, mening ko'ksimda lovillab turgan ishq-sevgi olovidan lov-lov yondi. Uzoq-yaqinda jimir-jimir ko'rinyayotgan saroqlar, telbavor esayotgan garmsel mening ohimdan,

mening iztiroblarimdan ko'tarilar edi. Negadir goh ho'ngrab-ho'ngrab yig'lagim, goh qah-qah urib kul-gim, ba'zan baralla ma'yus va hazin qo'shiqlar aytgim kelardi. Pochchamning "Vesna" deb nomlanadigan magnitofoni hamisha yonimda: eng mashhur hofiz-larning ishq-sevgi, vafo-sadoqat, yor iztiroblari vasf etilgan qo'shiqlarini berilib tinglayman, o'z yuragim suratini ko'rganday bo'laman. Sog'inch, sog'inch va yana sog'inch meni beomon o'rtardi. Pochchamga tegishli ekin dalalarida, loyqa suvli kanal bo'ylarida ma-jnunvash kezinardim. Ich-ichimni bir dard, bir og'riq kundan-kunga kemirib borardi. Bu dard, bu og'riqqa na Tanzila terib yurgan giyohlar, na Davron do'stim dam olayotgan joylardagi shifobaxsh suvlar malham bo'lardi. Shunday dilgir, zerikarli kunlarning birida nogoh sibizg'a chalgim, sibizg'a sadolarini tinglagim kelayotganini payqab qoldim! Ko'z o'ngimda Absal polvon jonlandi. Jonlandi-yu ustoz aytgan so'zlar xayolimda chaqmoqday chaqib o'tdi.

"Polvon quli bo'lishi kerak bo'lgan uchinchi narsa bir kun o'zi sizlarni topib oladi. Kuydiradi, kuldiradi".

Men ekin dalasi biqinidagi chaylada mahzun o'tirarkanman, xayolimga tuyqus kelgan fikrdan yashnab ketdim:

"Demak, polvonni qul qila oladigan, Davron ham chiraniib eslay olmagan narsa – muhabbat!"

Men o'z kashfiyotimni hoziroq do'stimga aytmoq-chi bo'lganday atrofimga alangladim. Ammo... ayni paytda Davron tog'-u bog'larga burkangan go'shada dam olardi. Tevaragim olov purkayotgan oftob ostida hansirab, lohaslanib yotardi.

– Ukajon, sening bir kasaling bor-ov ichingda, – dedi bir kuni opam meni tuzukroq boqolmayotgani-dan afsuslanib.

– Buning dardi ma'lum, – deb ayyorona iljaydi pochcham, – bovrini yerga berib, faqat "Munojot"ni eshitishidan ham bilmayapsanmi, menga juda tanish ahvol.

Nelarnidir g'ira-shira anglagan opam achchig'langannamo chimirildi.

– Qo'ying-ye, Norsoatga unday narsalarga hali erta.

– Ayni payti-da, – deb bo'sh kelmadi pochcham.

Men chopiq kutib qolganini bahona qilib, qizara-bo'zara o'rnimdan turdim.

Biz Absal polvondan uzoqlashgan edik.

O'sha yoz ikki oylik mardikorchilik kasridan, ichikish, orziqish, intazorlik oqibatidan kuyib qop-qora kosovga aylandim.

Ustiga-ustak, qishloqqa qaytishimdan sal avval, qo'yarda-qo'ymay sochlaramni orastalab qo'yish niyatida qo'liga qaychi olgan shirakayf pochcham tepe sochimning tubidan tig' solib yubordi. Oqibatda, xumday kallani butkul qirtishlab tashlamoqdan boshqa chora qolmadi. Holi zabunimga boqib, o'kirib yig'lagim kelardi. Axir bu ahvolda Tanzila nari tursin, hatto mulla Mirzaga ham ko'riniq bo'lmaydi. Aft-angor – qop-qora, kalla yetimqirday tap-taqir, pochcham qilmishiga jarima tariqasida olib bergen ola-chipor kostum-shim, egnimda xuddi poliz qo'riqchisiga o'ralgan jandaday shalvirab turibdi.

Qishloqqa amal-taql yetib keldim-u o'zimni ichkariga urdim. Bu yog'i maktab ochilishiga atigi o'n kuncha vaqt qolgan. Demak, shu fursat ichida soyadan chiqmay biroz oqarishim, andak bo'lsa ham sochni o'stirishim kerak. Onda-sonda biror bahona bilan uyimizga Tanzila kirib keladi. Uni hayajonu quvonchga

qorishib eshik tirqishidan yo deraza ortidan yashirincha kuzataman.

Tanzila! Chinakam tog‘ chechagiday ochilib ketibdi! To‘lishgan, tip-tiniq yuzlari, durracha qirralaridan ko‘pirib turgan sochlari, sarg‘ish-qizg‘ish libosi sirib turgan qomati meni ohanraboday o‘ziga tortardi. U goh onam, goh yangam bilan gaplashib turarkan, xuddi ni-manidir, nenidir izlayotganday, atrofiga kishi bilmas ko‘z yogurtirib qo‘yardi. U meni qidiryapti, meni, de-gan o‘ydan boshim ko‘kka yetgudek bo‘ladi, ammo... ming afsuski, qizga ko‘rinish berishga, salomlashishga mavjud talofatlar mone’lik qilardi.

O‘sha mavsum sentabrning ilk kuni qishlog‘imizda, to‘g‘rirog‘i, maktabimizda hind kino yulduzi Raj Kapur, yo‘q, yo‘q, mashhur farang artisti Alen Delon paydo bo‘ldi! Ha, ha, o‘sha yoz allaqanday mashhur sanatoriyyda dam olib qaytgan Davron do‘stim o‘sha dovrug‘i doston yulduzlardan sira-sira farq qilmas edi. Orasta, silliq taralgan sochlari, oqarib, to‘lishgan yuzlari, tik qomatiga yarashib tushgan yap-yangi, kul-rang kostum-shimi, chap qo‘liga taqib olgan allaqanday uzuk har kimni suqlanib qarashga majbur qilardi.

– Iya, qamalib chiqdingmi? – dedi u meni ilk ko‘rgandayoq hang-u mang bo‘lib.

Do‘stim bilib-bilmay yaxshi bir bahona topib bergen edi.

– Ha, – deb bosh irg‘adim, – opamlarning qishlog‘ida ikkitasining surobini to‘g‘irlab qo‘yガndim, bir oyga tiqib qo‘yishdi. Pochcham aralashib arang qutqarib oldi.

Davron ham, uni qurshab turgan “Kengsoy bur-gutlari” ham gaplarimga chippa-chin ishonishdi. Iljayib-tirjayib meni bosh-adoq kuzatib turgan-larning yuz-ko‘zida izzat-ixlos paydo bo‘ldi. Am-

mo bu yolg'onimdan baribir ichim ilimadi. Axir, do'pposlashib, qamalib chiqib shu ahvolga tushdim deb qizlarga, ayniqsa, Tanzilaga aytib, tushintirib yurolmayman-ku! Yaxshiyam Davron hammaning diqqat-qiziqishida edi. Sinfdoshlar u bilan andarmon bo'lib menga, taqir kallam-u shalviragan kiyimlarimga ko'p ham e'tibor berishmadi. Umumiy planda qisiniq-qimtinib yuraverdim.

O'sha yili g'alati voqeа bo'ldi. Ilgari maktab ochilmasdanoq o'quvchilarni paxta yig'im-terimiga haydaydigan ma'muriyat bu gal maktabimizni tinch qo'ydi. Butun mamlakat bo'yicha kattakonlar shunday buyruq bergenini keyin bildik. O'zgarishdan hamma xursand edi.

Kunlar shu taxlit o'tib borardi. Ilgarilari ham Davron haqida sirli pichirlashib yurgan qizlarning sabr kosalarini to'lib-toshib, unga sevgi xatlari yog'dira boshlashdi. Men Tanziladan xavotirda edim. Davron bir kuni uni mакtab hovlisida, katta tanaffus payti namoyishkorona yoniga chaqirib, qizga yaltiroq qoplamali quti uzatdi.

– Esingdami, bir mahallar shaharga borsam senga albatta sovg'a olib kelaman deb aytgandim, mana, va'damni bajardim.

Tanzila biroz uyalib, andak nozlanib, biroq yal-yal yashnab, dugonalar qiyqirig'i ostida sovg'ani oldi-da, ichkariga yugurib ketdi.

O'zimni qo'yarga joy topolmasdim.

O'sha mavsum, o'sha sentabr yuragimda ilk bor hasad sharpasi paydo bo'ldi. Men kimman-u, Davron kim, degan savolning, so'roq belgisining ilmoqli uchi ko'ksimga qadaldi. Tunlari bezovta to'lg'onib ikkimizni qiyoslab chiqaman. Davron boy-badavlat, izzat-obro'li xonadon farzandi, yegani ham, yema-

gani ham oldida, istasa, sanatoriyyda dam oladi, istasa osmondag'i yulduzni yulqib olishi mumkin. Ustiga ustak, kelishgan, polvon, po'rim yigit. Men-chi, yetim o'sgan bir bechora. Birovlar mashhur go'shalarda, maishat og'ushida yurgan payt, cho'lning it topmas bir burchagiga borib, uch-to'rt so'm ilinjida yoz bo'y'i kosovday qorayib yer chopaman, ekin sug'oraman, yon-atrofda birov tanib, birov tanimaydi.

Men tunlarni kunlarga, kunlarni tunlarga ulab shu taxlit taqqoslashga berilar ekanman, Davron mendan xiyla uzoqlashib, ulkan qoyaga aylanib borayotganini, o'zim esa kichraygandan kichrayib, mitti hashoratga do'nib qolayotganimni payqayman. Taqqoslashga berilganim sayin Tanzila mendan olislab, Davronga yaqinlashib boraverardi. Nazarimda, ularning darajasi bir-biriga tengdek tuyilardi.

Men ham do'stimdan, ham sevgilimdan muqarrar ayriliqni bo'ynimga olib, tushkunlikka tusha boshladim.

Dard-u dunyom qorong'i, xayollarim parishon edi. Shunday befayz, behalovat kunlarning birida kechki payt darvozamizdan otasiday gumburlagan ovoz berib, qandaydir yaltiroq tugunchani qo'ltiqlab Davron kirib keldi. Egnida o'sha qimmatbaho kulrang kostum-shim, oyog'ida uchi ingichka tuqli, hamishagidek orasta, hamishagidek ko'r kam.

– Mehmonni kutib olmaysanmi, do'stim! – dedi u tantanali tovushda.

Uning shodon qiyofasidan negadir ensam qotdi. Zo'raki iljayib, istamaygina ko'rishdim. Ichkaridan onam otilib chiqdi. Odatdagidek Davronni quchib, alqab, manglayidan o'pib qo'yarga joy topolmay qoldi. Bu orada yangam mehmonxonani hozirlashga ulgurdi. Onam oshxona tomon shoshildi.

– Bugun tug‘ilgan kuning, – dedi Davron xontaxta yoniga yastanib o‘tirarkan, – o‘zing bexabar-ov...

Men sarosimalanib qoldim. Balki o‘lgan kunimdir, balki ko‘mgani kelgandirsan, dedim ichimda g‘ijinib. Negadir do‘stimning har bir quvnoq gapi, kulgilari tobora asablarimni egovlab borardi. Shu orada mehmonxonaga jonsarak onam kirdi. Davron bilan yana qayta hol-ahvol so‘rasha ketdi. Hech chehram ochilmayotganini sezdimi, do‘stim biroz bo‘shashib qoldi.

– Qarasam, bugun Norsoat do‘stimning tug‘ilgan kuni ekan, bi-ir tabriklab kelaymi deb chiqqandim, – dedi u xuddi o‘zini oqlayotganday.

– O‘lay senga bolam, – dedi onam xijolatlanib, – biz bunga odatlanmaganmiz-da, shuytib hamishagidek o‘tirib edik. Yo‘qlab kelganining uchun, qulluq, bolam. Xudoy seni izzat qilsin.

Davron boyaga qo‘ltiqlab kelgan tugunni yechishga unnadi.

– Ena, – dedi u negadir menga qaramay, – Norsoatga arzimas bir sovg‘am bor edi. Sanatoriydan opkelgandim. Tug‘ilgan kuni beraman deb saqlab yurgandim.

Do‘stim chaqqongina tugun ichidagi tugunni ham yechib, ichidan... ichidan xuddi o‘zinikidaqa kostum-shim chiqardi!

– Iyy... ovora bo‘psan, bolam, – dedi onam battar xijolatlanib.

– Norsoat bilan xuddi egizday bir xil kiyinib yuramiz degan niyatda olgandim. Ena, iltimos, shugunani do‘stim hoziroq kiyib yonimga o‘tirsin.

Men beo‘xshov iljaygancha o‘rnimdan turdim. Qahrim, nafratim, noumidligim, barcha-barchasi, qaynoq suv sepilgan qorday erib borardi. Onamning,

do'stimming betinim qistoviga go'yo arang ko'ngan bo'lib uyga o'tdim-u sovg'ani kiyib chiqdim.

– Voy, bolam! – dedi onam ko'zlar yoshlanib, – ko'z tegmasin sizlarga.

Kulrang, qimmatbaho kostum-shim chindan ham menga yarashib turar, faqatgina tikanaksoch bosh xush manzarani biroz buzib turar edi.

Ajab, hamma muammo kulrang kostum-shimda ekan, shekilli, necha-necha kunlardan beri qarshimda qoyaday yuksalib meni Tanziladan, keljakka bo'lgan umid-ishonchdan to'sib turgan Davron yana o'zim bilan bo'yinsa, sho'x-shovvoz do'stga aylandi-qoldi. Onam alqagandan-alqab, duolar ketidan duolar qilib, chiqib ketgach, shu orada tuzukkina tuzalgan das-turxon yonida ikkimiz ziyofatga o'tirdik. Akam ham Davron bilan ko'rishgali birrov kirib, imi-jimida bir shisha vino tashlab ketgan edi. Undan ham o'zimizcha kattalarga taqlidan qadah so'zlar aytib oz-moz no'sh etdik. Dimog'imiz chog', vaqtimiz xush edi. Qizg'in suhabatimiz goh kurash, polvonlar haqida, goh... qizlar to'g'risida borardi.

– Ey, do'stim, qizlar toza badimga urib ketdi, – dedi ichkilikdan yonoqlari biroz qizargan Davron, – maktab boshlanganidan beri beshovidan sevgi xati oldim. Mana, bittasi hali ham yonimda yuribdi. – Davron kostumi cho'ntagidan qat-qat buklangan varaqni chiqardi. – Eshit, o'qib beraman, sen ham ko'nikaver.

Negadir uning bu niyati menga yoqmadı. Yarim tunda xontaxtaga muk tushib, ming bir xijolat-u umid bilan qog'oz qoralayotgan qiz ko'z o'ngimda jonlandi-yu, ozorlardan, ovozalardan himoya qilgim kelib ketdi.

– Davron, qo'y, kerakmas. Eshitgim kelmayapti.

– Nega?

— U senga yozilgan. O'zing o'qi, yoqmasa, yirtib tashla. Bu ikkingizning o'rtangizda qolishi kerak.

Davron bir zum yuzimga o'ychan tikilib, so'ng iljaydi.

— Ba'zan qoyil qolaman senga. Xuddi olimlarday gapirib yuborasan. Manovi aytganlaring menga yoqdi. Chin, hech o'ylab ko'rmabman, ovoza bo'p ket-sa... sinfdosh sharmanda bo'p qoladi. Ahmoqona qiliqlarim ko'p-da.

Shu payt negadir pochchamning dalasida dalli-devona yurgan paytim chala qolgan jumboqni yechganim esimga tushib qoldi.

— Ey, Davron, — dedim hovliqib, — esingdami, polvon uch narsaning quli bo'lishi kerak degandi ustozimiz. Sen ikkovini topganding, birovi hech kallangga kelmagandi. Absal polvon ham aytmay kuydirgandi.

— Ha, esimda. Rosa bo'larimiz bo'lgan.

— O'sha uchinchi narsani topdim.

— Topding? Nima ekan?

— Sevgi. Polvon or-nomusning, sevgining quli bo'lishi kerak ekan. O'zim o'ylab topdim.

— Bunday narsani o'ylab topib bo'lmaydi, kalla — deb kinoyali kului Davron, — kitobni izlash kerak. Yoz bo'yi ko'p asar o'qib tashlabsanmi degan xayolga bobribman.

Men ham bo'sh kelishni istamadim.

— Bu sevgi, aniq sevgi.

— Bo'pti, sen aytgancha bo'la qolsin. Lekin men gapingga qo'shilmayman. Mana, masalan, men ham polvonlikka talabgorman, lekin sevgiga hech qachon qul bo'lmayman! Kerak bo'lsa, sevgini qul qilaman! Har qanday qizni sevdira olaman, xohlaganim meniki bo'ladi. Ishonasanmi shunga?

Men qizg‘in bosh irg‘adim. Rost, dovyurak, shi-jоatli Davrondan har balo kutsa bo‘ladi. Uning o‘z-o‘ziga ishonchi ham, imkoni ham baland edi.

Xullas, o‘sha kech men tug‘ilmadim, qayta tirildim. Do‘stimning yo‘qlab kelgani, samimi suhbati, albatta, qimmatbaho sovg‘asi shubhalarimni, anduh-larimni tumanday tarqatib yubordi.

Men sport bilan yana ham jiddiy shug‘ullana boshladim. O‘qishim, bilimim haminqadar, porloq kelajagim faqat kurash davralarida, deb o‘zimcha xulosa yasadim. Qolaversa, Tanzilaning ko‘z o‘ngida polvon sifatida tanilib, shon-shuhratga belangim, uning qalbini, hech qursa, shu yo‘l bilan zabit etgim kelardi. Ajab, sevgi ham qon bosimiga o‘xshar ekan. Xuruj qilgan paytlari dard-u iztirobdan o‘zingni qo‘yarga joy topolmaysan, maromida bo‘lgan mahallar, shirin-shirin xayollar og‘ushida huzurlanib yurasan.

O‘sha yilning kuzi va qishida to‘y-tomoshalar mo‘l bo‘ldi. Kurash davralari vulqonday guvillab, qizib turdi. Davron ikkimiz o‘zimizga yarasha iz-zat-obro‘, shon-shuhrat topdik. O‘sha mavsum polvonlikka ko‘p berilib ketdimmi yo tantiq tuyg‘ularam buyrug‘iga bo‘ysundimmi, har qalay, Tanzila-ga zor-intizor intilishlarimdan tiyildim, hatto ba’zi paytlar, qarshimda uchrab qolgan kezlar o‘zimni majburlab yo‘limni chap soldim, u tomonga qayrilib qaramadim.

Bir kuni kechki payt qo‘shni qishloqdagi to‘yga taraddud ko‘rib turgan chog‘im darvozamiz ohista ta-qilladi. Yangam og‘il tarafda mol-hol bilan ovora edi. Onam ham hovlida ko‘rinmadni. Noiloj, o‘zim borib temir eshikni ochdim. Darvoza yonida qandaydir sa-rosimalanib Tanzila turardi.

— Vuy, kechirasiz... — dedi u uyalib, — men... Rayhon chevarga shogird tushgandim. O'rganishga manavini tikdim.

Qizni ko'rgandayoq hayajondan tilim, aqlim lol bo'lib qolgan edi. Tanzila anchadan beri uzatib turgan tugunchani keyin ko'rdim. Ko'rdim-u, shosha-pisha qo'lga oldim.

— Rahmat... nima bu o'zi?

— Ochib ko'rganda bilasiz, — dedi Tanzila xuddi yov quvganday iziga qaytib ketar ekan.

Men gangib bir tugunchaga, bir chopqillab keta-yotgan qizga qarab biroz turib qoldim.

O'shanda Tanzila menga atab qalin, pishiq matodan polvonlik yaktagi tikkan ekan! Uning har qati, har chokidan mahbubamning hayodan lov-lov yongan yuzlari, hurkak, xumor ko'zлari ko'rinishib, pinhonna pichirlashlari eshitilib turar, o'rtangan yuragimni taskinga, yorug' umidlarga to'ldirib sirli mujdalar berardi. Yana tinchim, oromim yo'qoldi. Nihoyat, Tanzilaga ko'ngil yorishga, sevgi izhor etishga ahd qildim.

O'sha yili cho'l qishi qorli, bo'ronli keldi. Hammanyoq baxtiyor kelinchakday oqlikka burkangan. Ko'cha-ko'yda, maktab tevaragida uzundan-uzoq davom etuvchi sahro jaziramasidan bezillab qolgan bolalar qiyqirib, og'iz-burunlaridan hovur purkab qorbo'ron o'ynashadi, shishaday yaltillagan muzliklarda sirpanishadi.

Men ko'chamiz tuyulishida katta qayrog'och yonida qandaydir qat'iyat, ishonch bilan, Tanzilani kutib turardim. Hoziroq unga sevgimni aytaman, sen menga keraksan deyman, kechqurun uchrashuvga chaqiraman, deb o'zimcha shaylangandim.

Ana u! Egnida uncha-muncha cho'llik qizlarning tushiga ham kirmaydigan mo'yna yoqali palto, boshi-

da oppoq tivist ro‘mol, oyog‘ida... oyog‘ida qat-qat qo‘nji naq tizzasiga yetadigan qizg‘ish etik! Ochig‘i bunday etikni mening ham birinchi ko‘rib turishim edi. Qizning oyog‘iga beixtiyor angrayib qoldim.

Tanzila to‘g‘rimga kelib, qadamlarini sekinlashtirib yengil bosh irg‘adi.

– Assalom...

– Bugun necha soat o‘qidilaring? – dabdurustdan bergen savolim shu bo‘ldi.

– Besh soat.

– Biz to‘rt soat o‘qidik, – deb iljaydim xuddi ko‘p ishi tindirganday, – adabiyot muallimi ko‘pkariga ketgan ekan, shuytib erta qaytdik.

Qiz javrashlarimni yerga tikilgan ko‘yi eshitgan bo‘ldi-da, indamay keta boshladi.

– Tanzila!

U to‘xtadi. Qor qo‘ngan kipriklarini pirpiratib men tomon hurkibgina ko‘z tashladi.

– Anovi... anovi... – men eng zarur, o‘ta zarur so‘zni aytishga chog‘landim-u... ammo og‘zimdan boshqa gap chiqdi, – yaktak uchun senga rahmat, qo‘ling gul ekan. – Shu orada maqtanib qo‘yishga ham ulgurdim.

– Sen bergen yaktakni kiyib bir to‘yda uchta polvonni terib tashladim.

Tanzila yengil kului, go‘yo kulgusini yashirmoq-chiday, o‘ng qo‘lini lablariga tegizib qo‘ydi.

– Uni o‘rganchikka tikkandim. Sizga yoqqan bo‘lsa xursandman. Kuchingizga kuch qo‘silsin, aka.

Qiz yerga tikilgan ko‘yi yana keta boshladi.

– Tanzila!

Bu gal alam-iztirobdan tovushim keskinroq chiqdi, shekilli, Tanzila xuddi nimadir kutganday, xuddi nenidir ilhaq izlaganday ilkis burildi. Burildi-yu jovidiragan ko‘zlariga ko‘zim tushib butkul dovdira-

dim. Xayolimda charxlanib, tilimning uchida turgan so'zlar tupugimga qo'shib yutilib ketdi.

– Etizing muncha chiroyli, – dedim bazo'r, – qachon olding, hech ko'rmagan ekanman.

Tuyqus qizning yuz-ko'zлari yashnab ketganday bo'ldi.

– Buni Davron akam sanatoriydan opkelgan ekan...

Tanzilaning boshqa gaplarini deyarli eshitmadim. Boshim g'uvillab, quloqlarim shang'illab, ko'z oldim tinib ketdi. Qahratonning qahri endi menga yctib kelganday, ich-u tashim muzlay boshladi. Holim zabun, tilim tanglayimga yopishgan edi. Ortiq so'z demay bosh eggan ko'yi ketib borayotgan qiz izidan karaxt qarab qoldim. Qizg'ish etikning baland poshnalari qorga qo'shib sevgimni, umid-u ishonchimni toptab, to'zg'itib borardi.

“Davron akam dedi-ya?! Erkalanib, suyub aytdi-ya?! Hammasi hal bo'lgan, allaqachon hal bo'lgan! Men tentak, men notavon nimalarni orzu qilib yuribman-a. Avvali, o'rganchikka tikkan yaktagini menga, mehr bilan tikkan zarto'nini Davronga bergen bu qiz. Yo'q, Tanzilani boshqa sevmayman, ishqida ortiq kuymayman. Bunday arzanda, tantiq qizlarga Davronlar kerak. Men kimman axir?! Onam aytganday, ko'rpaimga qarab oyoq uzatganim ma'qul. O'zimga munosibini topaman. Boshqa choram yo'q”.

Tegramda qor uchqunlari, xayolimda shunday tig'li o'ylar charx urardi. Ko'chada qolgan daydi it-day dovdir-dovdir keta boshladim. Qayon borayotganimni o'zim ham bilmasdim, bilganim shulki, qaylargadir bosh olib, yo'qolib ketgim kelar, qadamlarim goh sokin, goh tezlashardi. Chor-atrofim oppoq ko'ylak-ishton kiygan cholday qaltirab yotibdi. Qipyalang'och dov-daraxtlar ko'kka iltijo bilan cho'zil-

gan qadoq qo'llarga o'xshaydi. Yon-verimdan ayovsiz urilayotgan qor uchqunlari, bamisli karrak parchalariday yuz-ko'zimni timdalab, kuydirib borardi. Bilmadim, qaylarga kelib qoldim, qarasam, tevaragim jim-jit, kimsasiz, qarshimda qor ko'rpasiga burkangan paykallar.

Men... horib-charchab qalin qor ustiga tiz cho'kdim, so'ng... yuztuban yiqilgan ko'y'i baralla yig'lab yubordim. Yig'ladim... yig'ladim... shu alfozda qancha yotganim menga qorong'u, bir payt kimdir, nimadir, boshimni, yelkalarimni erkalab silaganday, mehribonlarcha ovutganday bo'ldi. Ilkis qad rostladim.

Qarasam, bahor! Charaqlab, yaraqlab yana ko'klam kelibdi. Qadrdon quyosh yana hamishagidek parvona!

Ha, ha, o'sha qishni alam-iztirob, ko'z yoshlarga qorishib o'tkazdim. Butun borliq qor-u muzga, men esa aldamchi dunyo, aldamchi do'st, aldamchi qizlarga atalgan g'azab va nafratimga burkandim. Tanziladan butkul yuz o'girdim, uni ko'rib ko'rmaslikka, bilib bilmaslikka harakat qildim. Ammo qiz beomon isyonimdan bexabar shekilli, hamishagidek uyimizga kirib-chiqib yurar, duch kelgan chog'lar odatdagidek qisinib-qimtinib salomlashar, xuddi tog'asidan shirinlik umidvor qizaloqday, men tomon ba'zan hurkibgina, jovdirabgina ko'z tashlab qo'yardi. Hatto yangi yil, erkaklar bayrami sifatida harbiylar kuni bilan qutlab "otkritka" taqdim etdi. Tabriknomani oldim-u panaga o'tib, ularni nafrat bilan yirtib tashladim. Bilaman, u bitta menga emas, butun sinfdoshlarimga yozib chiqqan, bu qizning ana shu saxovati meni xo'b kuydirardi.

Ammo... bahor keldi-yu, qor-muzlarga qo'shilib g'azab-u nafratim ham erib bitdi. Yuragimda bahor

boychechagi kabi yana sevgi ko'karib chiqdi. Qir-adirlarda barq urgan dasht gul-chechaklari xuddi kurash yaktagiga tikilgan chirozday yana o'y-xayollarimni o'g'irladi, yana umid, ishonch iforlari dimog'imni qitiqlab qochdi. Harnechuk hammasi xotin-qizlar bayrami arafasida boshlandi. Biz bolalar sinfdosh qizlarga sovg'a-salom hozirlashga kirishgandik.

– Ey, jo'ralar, – deb qoldi kimdir, – pastki sinflarda o'qiydigan qizlarni ham tabriklaymizmi? Masalan, anovi Tanzilani. U har bayramda bizlarga otkritka beradi-ku.

Davron chimirilab, g'ijinib qo'l siltadi.

– E, umi... o'ziyam erinmagan qiz ekan. Yozgan yozgan, bu bayramda indamay qo'ya qolaylik, ikkinchi tabriklamaydigan bo'ladi.

– E, unday qilmaylik, – deb tumsaydi sinfdosh, – xafa bo'lishadi. Bu yog'i... mana, maktabni bitiryapmiz, esdalik bo'p qoladi-da.

Davron bosh qashlab og'ringan ko'yi biroz o'ylanib turdi.

– Ha, mayli, sen aytgancha bo'la qolsin. Lekin har birimiz tabriklab yurmay, butun sinfimiz nomidan bitta duxi, bir dona otkritka beramiz, shu yetarli. Esam... bularning qay biriga sovg'a yetkazamiz.

O'sha kuni do'stim qanchalar chimirilib, qanchalar g'ijinsa, mening shunchalar chehram ochilib, kuylab yuborgim kelib qoldi.

"Demak, oralarida hech gap yo'q, – deb o'ylardim to'lqinlanib. – Avzoyini qara buning, agar sevishgan bo'lganida, boshqacha qarab, boshqacha gapivardi".

Men yana baxtiyor oshiqqa aylandim-qoldim. O'sha kunlar Tanzila bahoriy liboslarda bahorday barq urib, hamishagidan go'zal, hamishagidan jozbali bo'lib ketgan edi. Goho o'sha uzun yo'lakning,

o'sha nimqorong'u burchagiga beixtiyor borganimni o'zim ham sezmay qolaman. Tasavvurimda Tanzila tag'in chopib kelib quchog'imga yiqiladi-yu, men uni shartta o'pib, qulog'iga sevgi izhor qilaman. Ammo bu shirin, entiktiruvchi bir xayol edi, xayol! Men Tanzilaga sevgi izhor qilishga boshqa jur'at etolmadim. Uni cho'chitib yuborishdan, mакtabda, ko'cha-ko'yda uchrashib turishdan ham mahrum bo'lib qolishdan qo'rxdim. Shunday jonsarak, beqaror kunlar ketidan kunlar shitob bilan o'tib ketdi. Hash-pash deguncha maktabni ham tugatdik.

Nazarimda, men uchun hayot tugaganday bo'ldi. Qo'limdag'i yetuklik attestati emas, go'yo ayrliliq safariga berilgan chipta edi. Hamma shodumon, qiyqirib o'ynayotgan o'sha bitiruv oqshomida men bir chekkaga o'tirib o'z yaqin kelajagimni tasavvur qilishga urinardim.

Erta-indin Davron ikkimiz biror institutga ilinish ilir; jida poytaxtni ko'zlab jo'naymiz. O'qishga kirolmasak, armiyaga chaqirishadi. Har ikkisi ham meni Tanziladan uzoqlashtiradi. Men esa... uni ko'rmasam, so'zlarini, kulgularini eshitib turmasam... dunyo ko'-zimga qorong'u bo'lib qoladi. Shunday ezgin, dilgir o'ylar iskanjasida turgan paytim, davrani bermay, o'ynab yotgan Davron iljayib, mastona chayqalib yonimga keldi. U shirakayf odamday suzilayotgan bo'lsa-da, bilaman, do'stim ham xuddi men kabi sharob ichmaydi. O'sha biznikida o'tirib, kattalarga taqlidan, tug'ilgan kunimni nishonlab bir-bir qultum vino no'sh etgan oqshomimiz ikkimiz ichmaslikka, chekmaslikka, faqat sport bilan shug'ullanishga, dunyoga dovrug' qozongan polvonlar bo'lib yetishishga ahdu paymon qilganmiz. Biz so'zimizda turdik. Sinfoshlarimizning deyarli hammasi goh oshkora, goh yashi-

rin chekishär, tug‘ilgan kun bazmlarida, to‘y-hashamlarda bemalol sharob shishalariga qo‘l cho‘zishar, Davron esa do‘s-t-yoronalr yolvorib-yalinishganda ham ichishdan qat’iy bosh tortar edi. Hatto bitirish oqshomida ba’zi bir xushomadgo‘y muallimiarning taklifini ham rad etdi.

– Ha, do‘s-tim, – dedi Davron yonimga o‘tirib yelkamga qo‘l tashlarkan, – o‘ynamaysan, kulmay-san, tinchlikmi?

– Maktabdan ayrilish yoqmayapti.

– O‘zi darslarga arang sudralib kelarding-ku, endi maktabdan ketging kelmay qoldimi? Yo‘q, sening boshqa darding bor-ov...

– Do‘stlardan ayrilgim kelmayapti, – dedim o‘zimcha xatoimni to‘g‘irlab.

– Bir do‘sting men bo‘lsam, sendan hech qachon ayrilmayman, – dedi Davron yelkamdan qattiqroq quhib, – yaqinda birga Toshkentga ketamiz, birga o‘qishga hujjat topshiramiz, nasib etsa, birga o‘qiy-miz. Ikkimizning tomirimiz tutash, jo‘ra, hech bu-yog‘idan qayg‘urma, qosh-qobog‘ingni ohib, sinf-doshlarga qo‘shilgin. Hademay hammamiz to‘zib qolamiz.

Rost, ko‘p o‘tmay to‘zib qoldik. “Kengsoy bur-gutlari”ning ba‘zilari institatlarda o‘qish niyatida turli shaharlar sari yuzlandi, ayrimlari, ortiqcha tixirliksiz, ketmonlarini yelkaga tashlab odatdagidek dala-dashta-ga singib ketdi.

Biz Absal polyonni unutgan edik.

Davron ikkimiz zilday-zilday chemodanlarimizni ko‘tarib Toshkentga ravona bo‘ldik. Quvondiq qaysarning o‘zi bizlarni poyezdga chiqarib, kuzatib qo‘ydi. U o‘zining odatdagagi gumburlagan tovushi-da butun vokzalni boshiga ko‘tarib, goh nasihat qilib

qolar, goh ko'rsatma-uqtirma berib jonimizni halqumga keltirar edi.

– Dovdiramanglar, bolajonlar, dovdiramanglar. Tayinlab qo'yippan, sizlarni kutib olib, joylashtirib qo'yishadi.

Quvondiq aka chin aytgan ekan. Bizlarni poytaxt vokzalida olifta, dimog'dor, allaqanday institutda o'qiydigan ikki yigit qarshi oldi.

Aftidan, kimningdir iltimosiga ko'ra chiqishgan shekilli, bizlarni nazar-pisand qilmay, tuzuk-quruq gaplashmay, qandaydir o'ris kampirning tor, isqirt hovlisidagi katalakday hujraga joylashtirib, ertasi kuni, talab va istaklarimizga ko'ra, universitetning huquqshunoslik fakultetiga hujjat topshirishimizga ko'maklashishdi.

– Bu yog'ini endi sekin o'zlarining ko'raverlaring, – dedi ulardan biri bizlarni yana ijaraxonamizga tib qo'yarkan, – bizlani vaqtimiz yo'q senlar bilan erta-yu kech yurishga, agar biror problema bo'lsa, kecha yozib bergen raqamlarga qo'ng'iroq qillaring, ana, kampirning uyida telefon bor.

U g'o'dayganicha ko'chaga chiqib ketdi. Davron uning izidan g'ijinib, tajanglashib qarab qolarkan, bosh chayqadi.

– Qaysi go'rdan chiqqan bodi bu?! Yana bir og'iz ortiqcha gapirganida tumshug'iga aylantirib solardim.

Qo'rs rahnamodan qutulganimizdan yengil tortdik.

Men viloyat markazida poyezdga chiqqandayoq qishloqni, uyimni, ayniqsa, Tanzilamni sog'ina boshlagandim, barcha narsadan voz kechib, ortga qaytgim kelardi.

Davron esa bir hafta ichida qip-qizil shaharlikka aylandi-qoldi. Ust-bosh, yurish-turish, poytaxtcha

shevada bemalol gapisishlar, hamma-hammasi meni angraytib tashladi.

Do'stim bu yerda tekkanga teginib, tegmagan-ga kesak otar, ko'cha-ko'yda urush-janjal izlab, bolalarni atay turtib o'tar, meni yurak hovuchlatib, ming bir sarosimaga solar edi. Bilmadim, yo haqiqiy zo'rlar yo'liqmadi, yo do'stimning yuz-ko'zidagi shijoat chindan ham cho'chitarmidi, ishqilib, tur-tilgan-surilgan bolalar ham Davronga botinib biror so'z demay, ortidan ajablanib, taajjublanib qarab qo'yishardi, xolos. Bular mayli-ku-ya, kalta yubka kiygan shaharlik qizlar Davronning yana bir iqtidorini ochib yuborganday bo'ldi. U yon-veridan o'tib-qaytayotgan, o'zining ta'biri bilan aytganda, hurliqolarga yutoqib qarar, ba'zilarining bel-bilagi-ga qo'l tegizar, ayrimlarini cho'lpillatib o'pib olar, evaziga qarg'ish, haqorat eshitsa-da, pinak buzmay, iljayib, ko'z qisib ketaverardi. Men do'stimning bunday qiliqlaridan uyalib, qo'rqib beixtiyor duch kelgan tomonga qochib qolardim.

Kunlarim tahlikada o'tardi, muqarrar bir baloga yo'liqishimizdan xavotirda edim. Nihoyat, o'sha ku-tilgan kun ham yetib keldi.

"Salom" degan choyxonada tushlik qilib, sho'x-sha'n o'ynoqlab yana hujramizga qaytib kelardik. Bizdan besh-olti qadam oldinda, sochlari chiroyli turmaklangan, oq-pushti rang, yeng-etaklari kalta ko'ylagi qaddi-qomatini sirib turgan qiz bel-biqin-larini qimirlatib xayolchan ketib borardi. Unga ko'zi tushdi-yu Davronning ko'zları chaqnab, og'zining tanobi qochdi.

— Ey, haddingdan oshma, — dedim uning qo'li-dan tortib, — tinchgina yur, mazang qochib qolmasin tag'in.

– Shu oxirgi marta, – dedi Davron atrofga bir alanglab olib, so‘ng yugurib borib haligi qizning yonog‘idan o‘pib oldi.

Cho‘chib ketgan qiz qo‘llari bilan yuzlarini to‘sib orqaga tisarildi. So‘ng nafrat to‘la ko‘zlarini Davron-ga qadadi.

– Bu nima qilganing, jinni?! Sumkam bilan bir urib basharangni bo‘yab qo‘yaman hozir.

Davron tashlangan qiz emas, bizdan besh-olti yosh katta juvon ekan! Do‘stim xijolatomuz ishshayib qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi.

– Kechirasiz, sizni birovga o‘xhatibman.

– Qanaqa birovga?! – deb battar jazavaga mindi ayol. – Ko‘zing ko‘rmi? O‘zing tengiga hazil qilsang o‘lasanmi?

– Sizni Tanzila deb o‘ylabman.

– Tanzila?! Kim u Tanzila-Panzilang?

Men sevgilim, mohitabonimning nomi tilga olin-ganini eshitib toshday qotdim. Boshimga kimdir gurzi bilan urganday ko‘z oldim tinib ketdi.

– Shoshma-shoshma, – dedi haligi ayol bar-mog‘ini Davron tomon nuqib, – senlar Dusya xola-nikida turasanlar-a! Sanlani taniyman. Ana, endi mendan ko‘rasanla, qishloqila. Sanlani ko‘zlarin ni kattaroq ochib qo‘yaman. O‘shanda Tanzilangni yaxshigina tanib olasan.

Juvon shaxdam qadamlar bilan olg‘a yurib ketdi.

“Davron nega Tanzilani tilga oldi? – shu savol xayolimni tinimsiz tirnoqlardi. – Nima, ular... o‘pi-shib yurishganmi?”

Men to‘lin oyim, quyoshim bo‘lgan qizni Davronning quchog‘ida tasavvur qilarmanman, g‘azab va alamdan qo‘llarim musht bo‘lib tugilardi.

Ayol ketgach, bosh qashlagan ko‘yi yonimga qaytgan do‘stim, asabiy hurpayib turishimni o‘zicha tushunib xijolatomuz ming‘illadi.

– E, uzr, jo‘ra, shunday bo‘p qoldi-da. Enag‘ar, katta ayol ekan. Qiz bo‘lganida oson qutulardik.

– Ey, – dedim g‘azabimni arang bosib, – nega... nega sen Tanzilani tilga olding? Nima haqqing bor, iflos ishlaringga pokiza qizlarimizni tiqishtirib?!

– Nima, Tanzila demay, Jarqinoy deyinmi? Bahonam sal ishonchli chiqishini o‘yladim-da. “Tanzila”! Qara, haqiqiy shaharcha ism.

Do‘stimning gaplari jo‘yali tuyildi. Men yana shashtimdan tushdim. U o‘shanda qoq qanshariga tushadigan mushtdan qutulib qoldi-yu, ammo haligi opadan qutulolmadi. U allaqanday amaldorning xo-tini ekan! Kechga yaqin ikki nafar miliitsioner bizni mahkamaga olib ketdi. Bir-ikki soat u eshikdan bu eshikka sudraklashgach, Davronni olib qolib, meni qo‘yib yuborishdi. Tun yarmida ijara uyimni arang topib oldim. Ertasi kuni birinchi imtihonga kirishim kerak edi! Ammo men sahar turib universitetga emas, yana mahkamaga yugurdim. Davronni uch sutkaga qamashgan ekan. Uch kun goh tush payti, goh oqshom do‘stimga ovqat tashidim.

– Ey, – deb so‘rab qoldi u mahkamada ilk ko‘rishgan chog‘imiz, – imtihonga kirib chiqdingmi, necha baho olding?

Men kuldim.

– Esingda yo‘qmi, tentak. Ikkovimizning tomirimiz bir-ku, sen bu yerda bo‘lsang, men qanday qilib imtihonga boraman?

Davron bir zum menga mammun-minnatdor tikilib pichirladi:

– Chin do‘stimsan...

Ketar chog‘im Davronga qarab, o‘ng qo‘limni baland ko‘tardim. U ham shunday qildi. So‘ng past, lekin shavqli-zavqli bir ovozda bab-baravar takrorladik.

– Quyosh hali botmagan!

Oradan bir haftacha o‘tib biz universitetga bordik. Qabul hay’ati bizning hech bir bahonamizga ishonmay hujjatlarimizni qo‘limizga tutqazdi. Avvallari qishloqni qo‘msab, qadrdon qishloqqa qanchalar oshiqqan bo‘lsam, pattalar qo‘lga tekkach, shunchalik ketgim kelmay qoldi.

– Kel-ye, sentabrgacha shu yerlarda tomosha qilib yuramiz, – deb qoldi kutilmagan ko‘ngilsizlikdan hanuz xijolat chekib yurgan Davron, – menda pul bor, ikkovimizga yetadi.

Roppa-rosa bir oy shaharda kezib yurdik. Qishloqqa qaytish onlari yaqinlashgan sayin bir-birimizga ma’yus, savolchan qaraymiz. Qanchalik o‘zimizni be-parvo, shodon tutsak-da, ichimizni afsus, alam va uyat kemirib borardi.

Biz Absal polvonni unutgan edik.

O‘sha yili “Kengsoy burgutlari”dan ikki bola viloyat markazidagi institutga, tag‘in biri Samarqand-dagi universitetga ilashibdi. Tanzila...mening Tanzilam, bilmadim, avvaldan rejalashtirganmi, yo tuyqus shu qarorga kelganmi, ishqilib, viloyat markazidagi pedagog kadrlar tayyorlovchi texnikumga kiribdi. Kimlarning astoydil achingan, afsuslangan, kimlarningdir istehzoli, kinoyali nigohlari ostida qishloqqa kirib kelarkanmiz, yon-atrofdan eshitgan xabarlarimiz ana shular bo‘ldi.

Biz uch kun uy-uyimizdan chiqmay yotdik. So‘raganlarga mandat tanlovidan o‘tolmadik, hatto o‘sha yerdagi imtihon olgan domlalar ham bizning

omadimiz yurishmaganidan kuyinib qolishdi, deb qo'ya qoldik.

Bir haftacha qishloq bo'y lab izg'ib yurdik. O'qishga kirgan do'stlarni tabrikladik, kurashlar, ko'pkarilar haqida gaplashdik, xullas, o'zimizni ovutgan bo'ldik.

Shu orada Tanzilani uchratdim. Viloyat markazidan kelayotgan ekan. Shaharcha fasondagi soch turmaklari, sarg'ish ko'y lagi o'ziga xo'b yarashib turardi. Yuz-ko'zida mammuniyat, tabassum kezinib yurardi.

Hayajon, xijolat, quvonch butun vujudiimda qorishib ketgan edi.

— Tabriklayman, o'qishga kiribsan, — dedim salom-alikdan so'ng. — Biz esa chappa bo'p yiqildik.

Tanzila afsus bilan bosh chayqab, astoydil hamdardlik bildirdi.

— Huquqshunoslikka kirish qiyin-da. Qattiq tayyorlanish kerak bo'ladi.

— Armiyaga opketmasa kelgusi yil yana ko'ramiz. Sizlar-chi, o'qishni boshlab oldilaringmi?

— E, o'lsin, — deb chimrildi Tanzila, — hammamizni paxtaga haydayapti. Dushanba kuni texnikum yopilib, Ganjirga yotoloqqa opketishadi. Ikki kunga uyg'a ruxsat berishdi. Yaxshilab ovqatlanib kelinglar deyishdi.

Biz kulishdik. Kulgan payt Tanzilaning ko'zları allanechuk xumor-xumor suzilib ketardi. Men unga mahliyo tikilib qoldim.

— Tanzila, seni ko'rgani boraman.

Qiz uyalib ko'zlarini opqochdi.

— Cho'l-u biy-bonda adashib ketmaysizmi?

— Yo'q, dunyoning narigi chekkasiga bo'lsayam adashmay seni topib boraman.

— Qarang, — deb kulimsiradi Tanzila, — yana qiyinalib qolmang.

U uylari tomon tez-tez yurib ketdi. Men hayajon-dan yuragim gurs-gurs urgancha ko‘yi izidan bir zum qarab qoldim. Bu qadar dadil va qat’iy gaplashganimga o‘zim ham hayron edim. Hartugul, ikki oylik Toshkent safari besamar ketmaganga o‘xshaydi.

Qishloqdagagi teng-to‘shlarimiz qatori Davron ik-kimizga ham harbiy xizmatga chaqiriq qog‘ozi keldi. Ko‘p o‘tmay tuman harbiy komissariatida sochlari-mizni tap-taqir qirib jo‘natishdi. Bir-birimizga qarab miriqib kulishdik. Qishloqqa qaytgach, goh u, goh bu ketarmannikida xayrashuv ziyofatlari boshlanib ketdi. Vaqt tez o‘tib borardi. Mening es-u hushim Tanzilada edi. U bilan tappa-tuzuk sochim bor paytlar xayr-xo‘splashib olmaganimga afsuslandim. Ammo... nima bo‘lgan taqdirda ham uni ko‘rishim, sevishimni aytishim, va’dasini olishim shart. Tanzilalar paxta terib yurgan o‘sha maskan Kengsoydan ikki yuz chaqirim uzoqlikda bo‘lib, menga o‘xshagan piyodalariga, ayniqsa, yig‘im-terim qizigan, qatnovlar kamaygan p... u yoqqa borib kelish mushkuldan-mushkul edi. Chora izlab, boshim qotib, kalovlanib yurgan kezlarim Davrondan taklif chiqib qoldi.

— Yur, ertaga Tanzilani ko‘rib kelamiz. Otamdan “Jiguli”ni bir kunga so‘rab olaman.

Ko‘nglim xijil tortgancha rozi bo‘ldim. Nega undan tuyqus bunday taklif chiqib qolgani ichimiga g‘ulg‘ula solardi. yelib borayotgan mashina derazalaridan namxush shabada emas, yana shubha-gumonlar yopirilib kira boshladi.

— O‘sha sovxoza xolam yashaydi, — dedi “Jiguli”ni chapdastlik bilan boshqarib borayotgan Davron, — borgin, xolang bilan xayrashib kelgin, deb onam bir haftadan beri garang qilib yuribdi. Oxiri, ko‘ndim. Qaysi kun Uldon chechani ko‘rib qolgan-

dim, Tanzila ham shu yoqda terimdaligini aytib qoldi. Yaxshi bo'lди, birato'la uni ham ko'rib qaytamiz, xur-sand bo'ladi.

Men quvonchdan qiyqirib yubordim.

– E, kalla, darrov shunday demaysanmi? Men ham xolangni yaxshi ko'raman, duosini olib qaytaman.

Davron ham mammun iljayib bosh irg'ab qo'ydi.

Biz qoq tush payti ko'zlangan manzilga yetdik. Davronning xolasi bilan diydorlashdik. Mehribon va g'amxo'r xolajon bizni tovuq go'shti solingan dimlama bilan mehmon qildi. So'ng yo'l uzoqligini bahona qilib, xola va uning bolalari, nevaralari bilan xayrashdik.

Quyosh ufq tomon qiyalab qolgan edi. Chor-atrof uch-quyruqsiz dalalar, ekin paykallari. Hammayoqdan qandaydir pishiqchilik isi anqiydi. Yo'llar, ko'cha-ko'yalar kimsasiz, jim-jit. Hoynahoy, barcha paxta yig'im-terimi bilan andarmon bo'lsa kerak. Sertuproq yo'l bo'ylab tag'in yarim soatlar chamasi yurib, Tanzilalar paxta terayotgan paykal boshiga yetdik.

Zardobtus, ko'z ilg'amas yerbargacha cho'zilib ketgan paykalda oqargan, qizargan, qoraygan shar-palar to'zib yurardi. Bizzdan ancha narida tushlikkacha terilgan paxta yuklangan traktor tirkamasi, bir necha yengil mashina baland qayrag'och shox-shabbalari aro g'ira-shira ko'zga tashlanadi.

Bizning "Jiguli"ga ko'zi tushgan terimchilar qiy-qirishgan ko'yi qo'l siltashdi. Ba'zilari etaklarini yelkaga tashlab shu tomonga yura boshladi.

– Voy-bo'y, hammasi qizlar ekan, – dedi Davron paykalga sinchiklab ko'z tashlab. – Chuvullashini qara-ya.

Men ariq labidagi tosh-tuproq ustiga sakrab chiq-dim-u qo'limni karnay qilib qichqirdim.

– Tanzila-a-a! Tanzila kerak bizga!

Besh-olti terimchi birvarakayiga biz tomon chop-qillab kela boshladi.

– Nima balo, hammasi Tanzilami bularning, – deb po‘ng‘illadi Davron.

Uzun-keng kiyimlar kiyib, boshlarini oppoq surpro‘mol bilan o‘rab olgan qizlar chuv-chuvlashgan ko‘yi yonimizga yetib kelishdi. Kelishdi-yu, boshlaridagi ro‘mollarini yechib, hiring-hiring kulishib, bir-birlarini sirli turtkilashib ariq labida turib qolishdi. Ular orasidan ajralib chiqqan Tanzilani arang tанидик. Yuzlari qorayib, lablari po‘s tashlab, qomati qandaydir to‘lishib qolibdi. U qiyofasi qandayligini yaxshi bilsa kerak, uyalib, qimtinib yonimizga keldi.

– Assalom...

– E-hye-ye, – dedi Davron qiz bilan qo‘l berib ko‘risharkan, – kinolardagi xizmatkor qizlarga o‘xshab qolibsan-ku.

Men unga norizo ko‘z tashlab qo‘ydim. Chunki Tanzila shu ahvolda ham men uchun hamma qizlardan go‘zal va latofatli edi.

– Sizlar ham juda ochilib ketibsizlar, – dedi ariq labidagi sho‘x qizlardan biri, kepka qo‘ndirib olgan taqir boshlarimizga ishora qilib.

Hammalari qah-qah otib kulib yuborishdi. Tanzila ham qavargan lablarini qo‘li bilan yashirib jilmaydi.

– Qalaysan, Tanzila? – deb men ham u bilan so‘rashgan bo‘ldim, – charchamayapsanmi? Mana, sen bilan xayrakashgani keldik.

– Armiyaga ketyapsizlarmi? – deb so‘radi qiz boshlarimizga zimdan ko‘z tashlab qo‘yib.

– Ha, shanba kuni jo‘naymiz.

Shu payt o‘sha traktor tirkamasi turgan tarafдан ikki militsioner rezina tayoqlarini ko‘z-ko‘z qilib biz tomon yurdi.

Men bu yerda, bu holatda ko‘ngil sirlarimni Tanzilaga ayta olmasligimni, u bilan ahd-u paymon qila olmasligimni ichimda sezib, yuragim birdan g‘ashlanib qoldi.

– Agar... agar rozi bo‘lsang, xat yozishamiz, – dedim arang.

– Voy, albatta yozishamiz, – dedi Tanzila kulimsirab, – uylaringizdan adresingizni olaman.

Allaqachon ariqdan hatlab o‘tib terimchilar to‘piga o‘zini urgan Davron nelarmidir gapirib qizlarni kuldirdi.

– Ey, bollar, qani, jo‘nanglar bu yerdan, – shu orada yetib kelgan misionerlardan biri biz bilan so‘rashishni ham ep bilmay, birdan po‘pisaga o‘tdi.

– Armiyaga ketyapmiz, singillar bilan xayrlashgani keldik, – dedi Davron ham qo‘rs bir ohangda. Men uning odatdagidek jazavasi tutib, qo‘riqchilar bilan yoqalashib ketishidan qo‘rqib turardim.

– Bunday bahonalar ketmaydi, salkam bir soatdan beri turibsizlar, qani, jo‘nanglar.

Men shosha-pisha mashina yukxonasini ochdim-u, Tanzilaga keltirgan yeguliklarimizni tutqazdim.

– Arzimas narsalar, ye-yeb bizni eslab yurasan.

– Bekor ovora bo‘psizlar-da, ovqat ko‘p bizda, – dedi Tanzila andak erkalangan ohangda.

– Xatlaringni kutaman, intizor kutaman, Tanzila.

– Albatta, yozaman. O‘zingizni ehtiyyot qiling.

Qiz shivirlabgina aytgan, qandaydir mehr, ayricha bir g‘amxo‘rlik va allanelar aralashib ketgan so‘nggi so‘zlar yuragimning tub-tubiga cha uzoq kutilgan malhamday singib bordi. Butun vujudimda harorat, halovat his etdim.

– Qani, qizlar, hamma dalaga, yetar, shuncha vaqt

gap sotganlaring, – dedi militsiya xodimi Davrondan uzoqlashishni istamayotgan qizlarga qarata.

Davron qo‘riqchilar tomon bir o‘grayib qo‘ydiyu, baraka topgur, bu gal ortiqcha gap-so‘z qilmay, ariqdan yana hatlab o‘tdi. Hartugul, poytaxtdagi uch sutkalik ta’lim-tarbiya behuda ketmaganga o‘xshardi.

Biz quyuq-suyuq xayrlashib, mashinaga o‘tirdik.

– Xay-ir! Oq yo‘l! – guvillashib qolishdi qizlar.

Men Tanzila bilan ahd-u paymon qilolmagan bo‘lsam-da, lekin uning o‘sha so‘nggi so‘zlari ta’sirida ich-u-tashim yorishib turardi. Davronning ham ko‘zlari porlaydi.

– Zo‘r qizlar ekan, – deydi orzumand bosh chayqab, – hali Tanziladan hammasining adresini olib, xat yozaman. Ayniqsa, anovi Guli degani menga yoqib qoldi.

Men o‘girilib ortga qaradim. Shag‘al to‘kil-gan yo‘ldan ko‘tarilgan quyuq chang-to‘zongina izimizdan ergashib kelardi. Bu chang-to‘zon, bu gardg‘ubor, yaqin yillar ichida hayotimni butkul qoplاب olishini men hali bilmasdim.

Biz Absal polvonni unutgan edik.

Davron aytganday, u bilan tomirimiz tutash ekan. Ikkovimizni bir kunda askarlikka olib ketishdi. Biz chiqqan poyezd uch kecha-yu uch kunduz, goh to‘xtab, goh tezlashib, goh imillab yo‘l bosdi. Rossiyaning qay bir shahrida Davron bilan ajralishdik. Ularni o‘sha yerda poyezddan tushirishdi. Nazarimda, butun borliq birdan huvillab qolgandek tuyildi. Tag‘in yarim kun yo‘l bosib, qalin o‘rmonlar, tund qishlog‘-u kentlar osha nihoyat, Krasnoyarsk degan shaharga yetib keldik.

Qizil pogon taqqan qo‘shinlar safiga tushdim. Men mashaqqatli mashq-mashg‘ulotlar, qat’iy, beshafqat

tartiblardan ko'ra sog'inchdan va yana sog'inchdan qiynaldim. Qishlog'imni, uyim, mehribon onajonimni qo'msayman, imkon topsam, o'sha yoqlarga qush bo'lib uchsam deyman. Tanzila! Mening hurkak jayronim, mening xumor ko'zligim. U hamisha, har soat, har lahma xayollarim mehrobida edi! Safda yurganimda, qorovulga chiqqanimda, mashq-mashg'ulot paytlari u shundoqqina qarshimda uyalibgina, jilmayibgina turgandek, meni kuchli va oqil bo'lishga undayotgandek tuyilardi. Tanzila ko'rib turibdi degan tasavvurda nomunosib, nojoiz xatti-harakatlardan o'zimni tiyar, doimo jiddiy, xushsurat, xushmuomala askar bo'lishga harakat qilar edim.

Bizning qismda bir qaraganda harbiy nizom, intizom yaxshi yo'lga qo'yilgandek ko'rinsa ham, ammo ichidan irigan ekan. Hamma yoqda millatchilik, ayirmachilik ufurib turardi. Kavkazliklar, O'rta Osiyoliklar, tag'in allaqanday to'dalar taraf-taraf bo'lib to's-to'polon ko'tarishar, mushtlashishar edi. Shunday kezlar Davron, mening jonajon do'stim esimga tushadi. Jo'ra, bu yer asil sen bop qism ekan, deb qo'yaman o'zimga o'zim. Ammo biz ham bo'sh kelmadik. Konibodomlik xuddi Davrondek yovqur, botir sambochi bola hammamizning boshimizni biriktirdi. Butun qismni qo'lga olib qo'ygan bo'lmasak-da, ishqilib, haq-huquqimizni, sha'nimizni himoya qilib yurdik. Men bu yerdagi quroldosh, yelkadosh do'stalarimga vaqt topildi deguncha Davron haqida, uning shonli-shavkatli qilmishlari haqida gapirib berardim. Gapirganim sayin uni sog'inib, juda sog'inib ketayotganimni his qillardim.

"Davron qayonda, tanishtirib qo'yanan bizni", – der edi o'sha konibodomlik do'stim, o'zbekcha-tojikcha so'zlarni qorishtirib.

“Albatta, – derdim men ham to‘lqinlanib, – xizmatdan so‘ng to‘ppa-to‘g‘ri bizning qishloqqa boramiz. Hammani qo‘y so‘yib mehmon qilaman”.

Safdoshlarim tantanali taklifimni shod-u xurramlik bilan qabul qilgan bo‘lishar, o‘z navbatida, bosh-qalar ham galma-galiga men kabi saxovatpeshalik namoyish etishar, xullas, biqiq, ozurda hayotimizni shu taxlit, mehmondorchilig-u ziyoftlarga boy kela-jak umidi bilan nurlantirar edik. Xizmatning uchinchi oyi boshlangan kunlar Davrondan xat oldim. Omsk degan shahardagi qurilish bataloniga tushibdi. Hech qursa, desant qo‘shinlarida xizmat qilishni bo‘yniga olib qo‘ygan do‘stimning kutilmagan omadsizlikdan naqadar tajanglashgani, jazavasi tutgani xatning har bir satrida silqib turardi. Men uni yupatgan bo‘ldim. Biz bir-birimizga yana bir yilcha uzuq-yuluq maktublar bitib turdik. So‘ngra, ko‘p xizmat qilib qo‘ygan dimog‘dor harbiylarga aylandik shekilli, g‘o‘r askarlaraga xos bunday yozishmalarni bab-baravar to‘xtatdik.

Tanziladan, mening Tanzilamdan roppa-rosa olti oygacha hech qanday xat-xabar bo‘lmadi. Shu paytga qadar uning paykal bo‘yida, “O‘zingizni ehtiyyot qiling” degan o‘sha sohir so‘zlaridan kuch-quvvat olib, bir-biridan shirin xayollar surib, o‘z-o‘zimni ruhlantirib yurdim. Ammo bu kuch-quvvat manbai ham dam sayin sob bo‘lib borayotgan, mavhum jim-jitlikdan yuragimga xavotir oralab, ich-ichimda yana shubha-gumonlar g‘imirlay boshlagan edi. O‘zim jon-jon deb maktub jo‘natardim-u, lekin yozgan xatim birovlar qo‘liga tushib, mohitobim noma‘ql gap-so‘zlarga qolishidan qo‘rqedim. Sog‘inchdan sillam qurib, dunyo ko‘zimga qorong‘i ko‘rinib yurgan rangsiz, nursiz kunlarning biri-da, nihoyat, najotkor noma yetib keldi! Yo‘q, men maktub emas, bir olam quvonch, umid va ishonch oldim!

Tanzilaning nomasida umumiy darak, so‘roq gaplardan boshqa, men intiq kutgan qizning ko‘ngil sirlaridan mujdalar beruvchi sirli so‘zlar sezilmasa-da, sahroda sulayib, sudralib buloq boshiga yetib olgan sayyohdek, cheksiz baxtiyor edim. Mohitobimning birinchi bo‘lib xat jo‘natgani, bitigi oxirida maktub javobini uylariga emas, jilda ko‘rsatilgan manzil bo‘yicha, texnikum yotoqxonasiga yozishimni iltimos qilgani men ilhaq kutgan alohida alomatlar kabi tuyilib, qalbimni masrur-mag‘rur hislarga chulg‘ardi! Mustahkam qal’ani zabit etgan qo‘mondonday tevarakka g‘olibona qaray boshladim.

Xizmat oxirlaganga qadar Tanziladan roppa-rosa o‘n beshta xat oldim. Yurak qonim bilan to‘lib-toshib javoblar yozdim. Lekin qanchalar qasd qilsam-da, qanchalar o‘zimni majburlasam-da, “Seni sevaman”, degan bir juft so‘zni ochiq-oshkora bitishga hech jur’atim yetmadi. Olis-olislarda qolib ketgan paykal bo‘yidagi o‘sha pichirlashlar, o‘zi maktub yozgani, yashirin manzil tayinlagani qiz ko‘nglidan yetarli ishora deya o‘z-o‘zimni ovutdim.

Shu sevinch, shu yupanch bilan ikki yillik harbiy xizmat amal-taqal o‘tdi-ketdi. O‘shanda biz nafaqat zimmamizdag‘i askarlik burchimizni, balki butun boshli Sho‘rolar Ittifoqi Armiyasini tugatib, to‘zitib qaytdik. Ulkan bir mamlakatning ulkan qo‘sishnlari safida xizmat qilgan so‘nggi askarlar bo‘ldik. O‘sha paytlar milliy respublikalar Ittifoqning zanglagan zanjiridan bo‘shalib, alohida-alohida davlatlarga bo‘linib ketdi. Jumladan, jonajon O‘zbekistonimiz ham mustaqillikka erishganini eshitib xo‘b xursand bo‘ldik.

Ammo Davron ikkimizning tomirlarimiz tutashligi chin ekan! Voajab, askarlikka qanday birga ketgan bo‘lsak, xuddi shunday, qo‘l ushlashib shod-u

xurram qishloqqa kirib bordik. Aslida hammasi Toshkent vokzalida tasodifan to‘qnashib qolganimizdan boshlandi. O‘sanda men poyezddan tushib, odamlar oqimiga qo‘silib endigina vokzal maydoniga chiqqan, xira kirakashlarning xurujidan bezib, alanglagan ko‘yi atrofdan xilvatroq joy izlayotgan edim. Vojab, mendan o‘n-o‘n besh qadam narida serjantlik pagonlariga, yeng yoqalariga zarhal ji-yaklar tikilgan, ko‘ksiga Armiyada mavjud-nomavjud jamiki nishon-u ordenlardan namunalar taqqan, kamari to‘qasi-yu, mundiri tugmalarini tilladek yaltirayotgan askar ham bir to‘p kirakashlar tajovuzidan tajanglashib xuddi men kabi pana joy qidirib tevarakka termulayotgan ekan! Davron! Nogoh bir-birimizga ko‘zimiz tushdi. Yo‘q, nazarimda, u birinchi bo‘lib meni ko‘rib qoldi.

– Ey! Ey! – deb qichqirdi qo‘lidan tutgan nusxalarni nari-beri surib, men tomon yurarkan. – Ey! Stoy, kto idyot?

– Ryadovoy Norsoat! – deya tovush berdim men ham, u tarafga sekin borarkanman.

– Parol!

Men an‘anaviy tarzda o‘ng qo‘limni musht tugib baland ko‘tardim. U ham ilkini havoga sermadi, shu lahzada ikkimiz bab-baravar hayqirib yubordik:

– *Quyosh hali botmagan!*

Hayqirig‘imizdan tund shahar tovlanib ketganday bo‘ldi.

Biz bir-birimizning bag‘rimizga otildik. Quvonchdan, hayajondan ikkimizning ham tilimizga tuzukroq so‘z kelmay, nuqul iljayamiz-jilmayamiz, namlangan ko‘zlarimizni yashirishga urinamiz.

Yo‘lovchilar, kirakashlar, mehmonlar-u mezbonlar bizlarga ajablanib, havaslanib qarashar, ularning ham

yuz-ko'zida tabassum, xayrixohlik kezinar edi. Afsus, hanuz bizlarni uy-uyimizga eltib qo'yish ilinjida turgan talabgorlarni noumid qilib, ikkimiz poyezdda viloyat markaziga yetib oldik. Ammo bu yerda baribir allakimning sutrang "Jiguli"sigi o'tirishga majbur bo'ldik.

Davronning yo'l bo'yi jag'i jag'iga tegmadi. Gaplari qanchalik chin yo o'trikligini bilmadim, to'lqinlanib aytishlariga qaraganda do'stim ikki yil xuddi kurortda yurganday mazza qilibdi. Jangariligi, to's-to'polonlari joniga tekkan komandirlari uni bir guruh askarga brigadir etib tayinlab, allaqanday zavodga ishga yuborishibdi. Alovida yotoq, alovida oshxona, bir-biridan go'zal, bir-biridan jozibali zavod xodimalari Davronning xizmatida bo'lgan emish.

– O'lay agar, hali-hali ko'z oldimda, – derdi u qizayollar haqida gapirgan chog' ko'zları porlab, lablari tamshanib, – Anya, Lyuba... eh, ularni eslasam hoziroq o'sha O'mskka qaytgim kelyapti.

Bilmadim, do'stimni qattiq sog'inganimdanmi, yo uya qaytish sururidanmi yo... yo ancha ulg'ayib, to'shak sarguzashtlariga qiziqishim ortganidanmi, harqalay, Davronning oldi-qochdi, beodob hangomalarini ilgarigidek uyatdan qizarib-bo'zarmay, maroq bilan tinglardim.

– Xo'sh, o'zingda nima gaplar? Ikki yil qalay o'tdi? – deb so'rab qoldi u, nihoyat mening ham Armiyadan qaytayotganim esiga tushib, – miq etmay-san, gapir-da.

Men quvlik bilan ko'z qisdim-da:

– Bizda bunday voqealar yo'q, jo'ra, har kuni poligon, har kuni yelkada quroq, har kuni mashq-mashg'ulot, – deb jangovar qismiga tushganimni pisanda qildim.

Pisandam qoq nishonga tegdi shekilli, Davronning qoshlari chimirilib, qo'llari musht bo'lib tugila boshladi. Men yana atay pishang bergen bo'ldim.

– Bizniki VVning desantlashgan polki edi-da.

– Enag‘arlar, meni boplashdi, – deb to‘ng‘illadi gaplarimdan toqati toq bo‘lgan Davron, -- anavi voen-kom seni flotga yo desantga jo‘nataman deb va’da bergandi, hali boray, marazning tumshug‘ini ezaman.

Men, nihoyat, Davronni burchakka qisganimdan g‘olibona iljayib qo‘ydim. Aslida esa yo‘lovchilar jangovar qismida xizmat qilgan menga emas, serham-sham mundir kiygan Davronga qiziqsinib, havas bilan qarashar, ba’zi birovlar beixtiyor ehtirom ko‘rsatar edi.

– Baribir kurashni tashlamadim, – dedi do‘stim alam-nafrat biroz bosilgach, – erta-yu kech zavodning sport zalida shug‘llandim. Hatto bir-ikkita shogird ham tayyorladim.

Ha, Davronning bu gaplari chin edi. Baquvvat, keng yelkalari, bo‘rtib turgan muskul-mushaklar shu haqiqatdan darak berib turardi.

Biz o‘tirgan “Jiguli” viloyat markazidan chiqib qo‘riq tumanlar tomon burilgandayoq dimog‘imga tanish, juda tanish bir hid urildi. Adashmasam, bu chuvilgan ko‘sakning, ezilgan g‘o‘zapoyaning isi edi. Tor shahar-u qalin o‘rnolarga o‘rganib qolgan bo‘lsam kerak, bepoyon kengliklarga boqib ko‘zim tinar, qadrdon bo‘ylardan boshim yengil aylanar edi.

– Men bu qoloq cho‘l-u biyoboningda yashay olmayman, – dedi mashina oynasidan o‘ychan qarab borayotgan Davron, – ketaman, yana ortimga qaytib ketaman.

Men indamay bosh irg‘ab qo‘ya qoldim. Chunki ayni paytda g‘alati bir zavq-u shavq qo‘ynida edim.

Yarim ochiq oynadan yoprilib kirayotgan shabada yuz-ko'zlarimni erkalab silardi, paykallar, dov-daraxtlar, uylar diydorlashish uchun qarshimga otilib chiqayotgandek tuyilardı. Xuddi shu cho'l-u biyobon men uchun olamning markazi, eng so'lim, eng go'zal go'shalarning eng so'limi, eng go'zali edi. Chunki... chunki bu yerda Tanzila degan suluv va oqila qiz yashaydi. Ilhaq-intizor yo'llarimga ko'z tikib turibdi. Shunday sohibjamol, shunday ma'suma qizni bag'rida o'stirgan cho'lga ming karra ta'zim, ming karra qulluq. Men sizni sog'indim, qadrdon dala-dasht! Men sizni sog'indim, ey, sertuproq yo'llar! Ey, bepoyon yantoqzorlar, sizni dunyoning eng ko'rksam bog'-rog'lariga ham alishmayman!

Ammo mening bu farahbaxsh o'ylarim, sururim ko'pga cho'zilmadi.

– Tanzilalar hali terimdan qaytmagandir-a...

Davron tuyqus aytgan bu gapdan xuddi yantoq ustiga ag'naganday bir sapchib tushdim.

– Nima? A? Ha-a... bilmadim, – deb g'udrandim arang.

Do'stim yelkamga sho'xchan bir turtib qo'ydi.

– Tanzilani ko'rsam, bilasanmi nima qilaman?

Mening miq etishga ham qurbim yetmadi.

– Yuzidan bir o'paman-u manavi medallarning hammasini unga taqib qo'yaman, – deb hirngladi Davron.

– O'chir ovozingni! – beixtiyor qichqirib yubordim men unga xezlanib, – tilingni tiy.

– Bo'irma-ye, senda medal-pedal yo'qligiga shama qilmayapman, ko'ngling nozik bo'p ketibdi-ya, darrov xafa bo'lning.

– Men... men... – deya hanuz alam-iztirobda tuttoqib gapimni ham yo'qotib qo'ydim.

Haydovchi peshoyna orqali bizga ajabsinib, qiziqsinib qarab qo‘yardi.

— Nega unga medal taqishimni bilmasang, bilib qo‘y. Menga eng ko‘p xat yozgan Tanzila bo‘ldi. Buning uchun qizni taqdirlashim kerak-ku, to‘g‘rimi? Roppa-rosa o‘ttizta xat oldim Tanziladan! O‘ttizza-ya?! Hatto, javob berishgayam erinib qoldim...

Davronning so‘nggi so‘zлari deyarli qulog‘imga kirmadi. Go‘yo o‘ttiz quloch yer qa‘riga kirib ketganday bo‘ldim. Ko‘z oldimni xira bir tuman qoplab oldi. Hozirgina yuz-ko‘zimni crkalab silayotgan yurtim shamoli, bamisli miyamda charxday g‘uvillab bir so‘zni betinim aylantirardi: “O‘ttizza-ya?!” “O‘ttizza-ya?!”

Yo‘l bo‘yidagi dov-daraxtlar, uylar qo‘porilib ustimga qulayotganga o‘xshardi.

“Hammasi ayon, hammasi endi ma’lum, — deb o‘ylardim iztirob bilan, — bu ikkovi allaqachonlar va’dalashgan, Tanzila uni zor-intizor kutyapti! Men... men yetim qo‘zi o‘zimcha nimalarni orzu qilib yuribman-a?! Sarobga intilib yashabman-a?! Ko‘nglimga qarab, musofirchilikda shu sho‘rlik ham xafa bo‘lmasin deb menga arang o‘n beshta xat yozgan, mehrini, sevgisini manovi maxluqqa jo‘natgan. O‘ttizza-ya?!”

Yo‘q, o‘sha kuni men qadrdon qo‘riqqa, qadrdon qishlog‘imga kirib bormadim. Aksincha, jazirama ostida sarg‘ayib so‘lgan, qovjirab qurigan cho‘l-u biyobon, toptalgan, to‘zg‘igan, ezilgan dala-dasht, hurpaygan, huvillagan, horigan tosh-beton imoratlar ko‘zlarimga, yuragimga, ong-shuurimga bostirib kirdi. Kengsoyning tap-taqir qiriday bezraygan, jonsiz va karaxt edim.

Atrofimda ming aylanib ming o‘rgilayotgan, meni o‘tqizgali joy topolmayotgan, ko‘zlaridan shashqator

yoshlar oqayotgan onajonim, shod-u xurram qavm-u qarindosh parishon holimni yo'l azobiga, charchaganlikka yo'yishdi, bemalol dam olishimga shart-sharoit yaratib bergen bo'lishdi.

Tanzila chindan ham hali paxta yig'im-terimidan qaytmagan ekan! Viloyat pedagog kadrlar tayyorlov texnikumi talabasi! Qanaqa pedagog... behayo, masx-araboz u! Soyga yetaklab borib, sug'ormay qaytaradigan ayyor alvasti! Tamom, bu qiz endi menga begona, ko'rmayin-kuymayin...

Men shunday qat'iy qarorga kelgan edim. Men shunday bir so'zli, sobit iroda, o'z qadr-qimmatini yuksak qadrlaydigan inson edim. Ammo... negadir sibizg'a chalgim, sibizg'a nolalariga qo'shilib qaylarga dir bosh olib, yo'q bo'lib ketgim kelardi. Biroq qay go'rga ham borardim. Mening anoviniki kabi O'msk degan shahrim bo'lmasa?!

– Ena, sizga ilgari bir sibizg'a berib qo'ygandim, shu turibdimi? – deb so'radim bir oqshom.

Ro'zg'or tashvishlari bilan kuymalanib yurgan onam darslarga hamisha tayyor a'luchi o'quvchiday, yuzlari yorishib birdan javob berdi.

– Ha, bolam, turibdi. To'yingga atalgan sandiqning tubiga tashlab qo'yibman.

Bu javob yuzimga yana bir tarsakiday tegdi, qarorimda qat'iy turishga, hayotga hushyor qarashga, to'y qilishga onajonim ilhaq ekanligini anglashga, demakki, o'zimga munosib yor topishga undadi.

Men xayolan qallig' qidirib ba'zan beixtiyor ko'cha-ko'yga chiqib ketardim. Biroq... nigohlarim tanish, juda tanish bir chehrani izlar, ko'nglim allaqanday mo'jizalarni orziqib kutar, o'sha qaddrdon muyulishda, qizil etik fitnasi kabi ne bir qaqqhatgich zarbalarning guvohi bo'lgan o'sha qayrag'och yonida

qadamlarim o‘z-o‘zidan sekinlashar, yuragimga laz-zatlì bir izardrob, og‘riq quyilib kelar edi. Har zarrasidan sog‘inch, sog‘inch va yana sog‘inch silqib turgan bir shivir lablarimdan sidrilib ketardi: “Tanzila! Mening jonim, mening mohitobim”.

O‘sha kunlar biz izzat-ikromga ko‘milib ketgan edik. Qo‘ni-qo‘shnilar, hamqishloqlar biri qo‘yib-biri olib harbiy xizmatdan qaytganlarni uylariga taklif etishar, alohida ehtirom bilan qurblari yetganicha mehmon qilishar edi. O‘sha kuz, ayniqsa, askarlikdan kelganlar orasida raisning bolasi borligi keng-soyliklarni odatdan tashqari sertakalluf, serhimmat, sermulohaza qilib yubordi. Erta-yu kech ziyofatlardan bo‘shamay qoldik. Quvondiq qaysarning har qatida mammunlik, masrurlik va mag‘rurlik qalqib turgan gulduros gap-so‘zlaridan, quvnoq qah-qahalaridan mudroq dala-dasht seskanib tushgandek, qip-yalang‘och, qovjiroq g‘o‘zapoyalar qayta gurkirab, qayta hosil bergudek bo‘lardi. O‘sha mavsum hukumatga paxta topshirish rejasini odatdagidan ham ortiq bajarganligi, izzat-obro‘sisi, mol-davlati uygan paxta xirmonidan ham ziyo-da bo‘lganligi, alp qomat, burgut nigoh, sher panja bolasining harbiydan kuchiga-kuch, aqliga-aql qo‘shilib qaytganligi, Davronining boshqa teng-to‘shlariga o‘xshamay, hatto, askarlikda ham chekish-ichish illatlaridan yiroq bo‘lganligi raisni go‘yo yana o‘n yoshga yashartirib, tik qaddini yana tiklab, yuz-ko‘zini nurlantirib yuborgan, u o‘zining qalb tug‘yonlarini, faxrini, quvonchini, sururini el-ulusdan ilgarigidek yashirolmay qolgan edi.

— Mana, mustaqillik davriga ham yetib keldik, — deb karillardı Quvondiq aka ba’zi bir davralarda, — zamon tez o‘zgaryapti, endi-i-i... es-hushli, aql-faro-

satli, mustaqil fikrli yoshlarga joylarni bo'shatib berishga asta-a-a... taraddud ko'ra berishimiz kerak.

Uning g'amxo'r, mehribon xalq otalariga xos so'zlarida, raislikdek sermashaqqat, sertashvish lavozimiga munosib voris izidan kelayotganiga, kengsoyliliklar bu borada hech o'ylanmay, hech qayg'urmay butun diqqat-e'tiborni ulkan bunyodkorlik ishlariga qaratishlari zarurligiga nozik ishora sezildi.

Ha, Davron do'stim ota amalini egallashga loyiq, har tomonlama yetuk, to'kis yigit edi. Biz qaytgandan uch kun o'tar-o'tmas u tuman markazidagi hosil bayramida uyushtirilgan kurash tomoshasida ketma-ket uch talabgorning kuragini yerga bosib yana shon-shuhrat quchdi, askarlik maqomidan yana polvonlik maqomiga qaytdi. O'sha tantanada men qatnashmadim. O'ttizta xat boshimga solgan o'ttiz ming dard-u hasrat olovida qurib-o'rtanib, go'yo hammasiga Davron aybdordek, do'stimdan o'zimcha arazlab, unga gap qo'shmay yurgandim. Davronning bir kurashda ketma-ket uch yutuqni qo'lga kiritganini eshitib ichim qizib qoldi.

Dilgir, zerikarli oqshomlardan biri edi. Maktab direktori xonadonida mehmon bo'lib o'tirardik.

– Endi-i... polvonjonlar, – deb qoldi ustoz ziyofat oxirlayotgan payt bir menga, bir Davronga xokisorgina ko'z tashlab, – biz ham kenjatoyning qo'lini halollataylik deb yig'inib yotibmiz. Keyingi oyda, nasib etsa, bir to'ycha o'tkazamiz. Boshqalarnikiday dang'illama qilishga bizning qurbimiz yetmaydi. Kichkinagina kurash tomoshasi o'tkazamiz. Endi-i-i... kichkina kurash ekan deb boshqa yoqqa qochib ketmangizlar. Ikkovingiz davrani qizitib turingizlar! Maylimi?

– Xo'p, xo'p, domilla, – deb Davron ham, men ham qo'limizni ko'ksimizga qo'ydik.

Vaqt allamahal bo‘lganda mehmondorchilikdan chiqdik. Pochta idorasi yonida boshqalar bilan xayr-lashib uy tomon yolg‘iz jo‘nadim.

Qop-qora osmon toqida to‘lin oy o‘ychan va xomush termilib turar, kech kuzning salqin epkinidan dov-daraxtlarning qovjiroq barglari hazin shitirlar, oyning zardobtus yog‘dulariga burkanib yotgan ko‘cha-ko‘y, ekinzorlar horg‘in va parishon mudrar edi.

Men tanish muyulishga yetib, qadrdon qayrag‘och yonidan o‘tarkanman, nogoh qulog‘imga sohir bir sas g‘ira-shira chalindi:

– Soat aka.

Men toshday qotdim. Eshitganlarim ro‘yo bo‘lib chiqishidan cho‘chib, hatto tovush taralgan tarafga qarashga ham botina olmadim.

– Soat aka...

Bu sohir sas sim-sim oy nurlariga qorishib ich-u tashimni yoritib yubordi, iztirobdan chatnab yurgan yuragimga urilib, butun borlig‘imda aks-sado berdi. Aks-sadodan gangib, emranib qayrag‘och tomon qaradim. Daraxt soyasidan Tanzila, mening Tanzilam chiqib keldi! Egnida bellari sirib bog‘langan uzun xalat, boshida qiya qo‘ndirilgan durracha, durracha jiyagidan ko‘pirib chiqqan quyuq, jingalak sochlari epkinda titranib turibdi! Qiyiq qoshlar, lo‘ppi yuzlar, hammasi – o‘sha-o‘sha, faqatgina bo‘yiga bo‘y qo‘silib, nozik qadlari andak to‘lishib, yana ham jozibali, yana ham suluv bo‘lib ketibdi.

– Assalomu alaykum, Soat aka, – dedi qiz sovuqdanmi, hayajondanmi qaltirab, – yaxshi yetib keldingizmi, xizmatlar bilan qiyalmadingizmi, do‘stlarining omomni...

Tanzila tantanali tadbiriga tayyorlangan talabaday to‘lib-toshib, titranib-tebranib, tez-tez gapirarkan, to-

vushi tobora to'nib, so'nib borar, entikar, qo'llarini goh ko'ksiga qo'yib, goh yoniga tushirar edi.

– Salom, Tanzila... mana, qaytdik, – dedim u tomon bir qadam tashlab.

Qiz ilkis ikki qadam ortga tisarildi. Shunda... shunda uning jiqqa yosh ko'zlar oy nurida yiltillab ketdi.

– Nega?.. – dedim a'zoi badanimga shirin bir titroq inib, – nega yig'layapsan, Tanzila?

Qiz xuddi ayb ustida qo'lga tushganday kaftlarini yuziga bosdi. Ammo bot-bot silkinayotgan yelkalari uning unsiz yig'layotganidan darak berardi.

– Tanzila, – men uni ovutish ilinjida bilagiga qo'l cho'zdim.

Qiz yana ilkis tisarildi. Kaftlari bilan ko'z yoshlari ni shosha-pisha artarkan:

– Qo'ying-ye... – deb pichirladi.

So'ng chuqur bir xo'rsinib uylari tomon yugurgilab ketdi.

Men izidan lol-u hayron qarab qoldim. To'lin oydan sim-sim yog'dular emas, sevinch, sevinch va yana sevinch sochilayotganday, ko'zimga, ko'nglimga, shuurimga sim-sim singib borayotganday edi. Neqadir qah-qah otib kulgim, sakrab-sakrab o'ynagim, sho'x-sho'x qo'shiqlar kuylagim kelardi. Qiz ko'zidagi shashqator yosh mening ko'ngil g'uborlarimni, achchiq alam-iztiroblarimni, shubha-gumonlarimni butkul yuvib ketganday bo'ldi. Yuragimni lazzatbaxsh orom va taskin egalladi.

O'sha tun, o'sha nurli, fayzli kecha to'lin oy hamrohim, sirdoshim bo'ldi. Uning zarrin yog'dularidan arqon eshib, arg'imchoq uchdim, qishloq biqinidagi paykal bo'yida majnunona kezinib yurdim.

"Nahotki, Tanzila ham meni sevsa?! – deb o'yayman to'lqinlanib. – Ha, aniq sevadi! Axir sog'in-

ganidan, o‘rtanganidan yig‘ladi-ku! Qizlar o‘zi shun-aqa bo‘ladi. Armiyada bir bilag‘on do‘stim sevib qol-gan qizlar ko‘z yoshlarga zo‘r beradi degandi, bundan chiqdi... Tanzila meni sevadi.”

Men shunday farahli xayollar yetovida kezinar-kanman, necha-necha kundan beri yelkamni o‘ttiz botmon yukday bosib turgan o‘sha o‘ttizta xat muam-mosi ham osongina, jo‘ngina hal bo‘ldi-qo‘ydi.

“Shu ham gap bo‘ldi-yu, – deb o‘yladim o‘z-o‘zim-dan taajjublanib, – balki menga ellikta, yuzta xat yoz-gandir, shunchaki, ular qo‘limga yetib bormagandir, – safdoshlarimdan unisi-bunisi olib, menga berishni unutgandir... Uinuman, gap xatlarning sonida emas-ku, hamma gap ularning men uchun, menga atab yozilganida-ku! Eh, qanday chiroyli, sermazmun xatlar edi. Hammasi esimda, nuqta, vergullarigacha esimda...

Ha, rost, askarlik davrimda Tanziladan kelgan har bir maktubni qayta-qayta o‘qiyverib, bir paytlar, mulla Mirza qo‘yarda-qo‘ymay o‘rgatgan muqaddas suralarday yodlab olardim. Bu ham yetmaganday, yuragim taftini bossin deb, uning so‘nggi xatlarini ko‘krak cho‘ntagimga uch-to‘rt kun solib yurardim. (Aslida boshqa qulayroq kissa yo‘q ham ediku-ya!) Ajab, safdosh, quroldosh do‘stlarim o‘zлari bilan se-vishgan, va’dalashgan qizlarning suratlarini yonlari-da olib yurishar, boshqalarga ko‘rsatib maqtanishar, hatto, ayrim ishqiy sarguzashtlarini oqizmay-tomiz-may aytib berishar edi. Men esa Tanziladan kelgan xatlarni ularga ko‘rsatish nari tursin, hatto qizning nomini boshqalar oldida tilga olishdan ham o‘zimni tiyardim, uni hamma-hammadan, hatto o‘zimdan ham qizg‘anardim. O‘sha konibodomlik sambochi do‘stim ko‘ngil kechinmalarimni ziyraklik bilan payqab, qo-

yil qolgannamo bosh chayqardi.

“Sen, jo‘ra, haqqiy erkak, – derdi u o‘zbekchatojikcha qorishtirib, – nag‘z deditona ba bozor andaxta nameshad”.

Do‘sstimning e’tiroflari menga moydek yoqardi. Olis-olislarda Tanzilam minnatdorona jilmayib qo‘yganini his qilib, o‘z-o‘zimdan sevinib, hovliqib qolardim.

O‘sha to‘lin oy balqqan kecha u o‘z dil izhorini ko‘z yoshlari bilan bayon etdi. Bu ko‘z yoshlar mening so‘nishga, so‘lishga shaylanayotgan sevgimga bamisli obi hayot bo‘lib tomdi. Mening muhabbatim, mening sevgim kech kuzning o‘sha kechasida qayta gullab yubordi.

Men baxtiyor edim, men mammun edim. Onajonim ertasi kuni rang-ro‘yimdagi o‘zgarishlarni ko‘rib shodlandi, o‘z-o‘zicha pichirlab duolar o‘qidi, yuz-ko‘zimga mehr bilan termuldi.

– Ana endi picha chehrang ochildi, bolam. Shu paytgacha qosh-qobog‘ing uyilib meni qo‘rqtib yurib eding.

Davron ham mening bir kechada xush-xandon do‘sting aylanib qolganidan taajjubga tushdi. Lekin ezmalanib, tafsilotlarini so‘rab-surishtirib o‘tirmadi. Biz yana qo‘lni qo‘lga berdik. Biz yana uzoq-yaqindagi to‘y-hashamlarda kurash tushib dong tarata boshladik.

Men tun-u kun yana Tanzila haqida o‘ylardim. Uning ishqisi qalbimda avvalgidan ham battar alanga oldi. Men qizga sevgi izhor qilish, u bilan va’dalashish payiga tushdim, uni yolg‘iz, ovloqda uchratish ilinjida juma kurnari, Tanzila shahardan qaytar paytari, pochta binosi qarhisidagi avtobus bekati yaqinida ivirsib yurdim. Ammo u-bu sabablarga ko‘ra hech

rejam amalga oshmadi.

“Yaxshisi, o‘qish joyiga borsam-chi?!” – degan o‘y tuyqus bir kuni xayolimga urildi. Bu reja har tomonlama qulay, samarador ekanligi yaqqol ko‘rinib turardi. Men barcha imkon-u shart-sharoitlarni chandalab, kelgusi hafta payshanba kuni shaharga tushishga qat’iy qaror qildim. Ammo... ming afsuski... rejalarim butkul barbod bo‘ldi. Hayotim, qismatim ag‘dar-to‘ntar bo‘lib ketdi.

Davronning “Jiguli”sida tuman markazidan keelayotgan edik. Bir payt do‘stim o‘ychan bir qiyofada mashinani yo‘l bo‘yiga to‘xtatdi.

– Jo‘ra, bir maslahatli ish bor-da, – dedi u qandaydir xijolatomuz iljayib. – Bilasan-ku, sendan yashiradigan hech sirim yo‘q.

– Gapiraver, – dedim qiziqsinib.

– Uylantirib qo‘yaylik, deb uydagilar toza garang qilyapti. Bilasan, o‘zimga qolsa hali bunday niyatim yo‘q, hali o‘qimoqchiman, hali Rossiyaga qaytib ketishim ham mumkin.

– Uydgilarga shunday deb tushuntir-da...

– Ko‘p gapirdim, baribir foydasi bo‘lmayapti. Qaridim, charchadim, menga kelin kerak, deb, ayniqsa, enam oyoq tirab turibdi.

– Qiyin bo‘pti senga, – deb o‘zimcha istehzo qilgan bo‘ldim.

– Otamning gapi menga ma’qul bo‘ldi, – dedi Davron o‘z-o‘ziga so‘zlaganday, – uylan, kelinni keltirib qo‘y, keyin to‘rt tomoning qibla, dedi. Shunga-a-a... o‘ylanib turibman, kimga uylansam ekan...

Do‘stim xuddi bozordan mol tanlayotganday bir-ikki qizning nomini tilga oldi. So‘ng g‘ijinib qo‘l siltadi.

– Senga shaharlik qizlar yarashadi, – deb qo‘ydim

men.

Bir payt Davronning xayolchan chehrasi yorishib ketganday bo'ldi, lablariga tabassum yugurdi.

– Aytgancha, Tanzila-chi?! Tanzilaga uylansam bo'lmaydimi? Qaysi qizdan qayeri kam, a, sen nima deysan? Boya shaharlik qizlar deganingda shu esimga tushib ketdi, rahmat, senga, jo'ra, rostdan ham u shaharlik go'zallardan qolishmaydi.

Ko'z oldim qorong'ilashib, boshim g'uvillab, Davronning vaysashlari elas-elash eshitila boshladi.

– Ey, nega o'chib qolding? – deya u yelkamga sho'x-sha'n turtdi, – mastmisan, nima balo? Ayt, nima qilay, do'stga o'xshab maslahat ber-da.

– Tanzilani tilga olma, – dedim arang.

– Nima?! Nega... tilga olmay?

– U... u meniki...

– Seniki?! Ux, ti, pismiqi, qoyilman senga! Menga bir og'iz aytmay, zimdan ish pishtib yurgan ekansanda, a? Non sindirdilaringmi?

– Yo'-o'q, hali...

– Yo hali ovloq-ovloqda uchrashib, ahd-u paymon qilib yuribsizlarmi?

Men "ha" deyishga botina olmadim. Yolg'on gapirsam, Davron ertagayoq ovoza qilib yuborishi aniq, bu uydirma Tanzilaning qulog'iga yetib borsa... qizni bepichoq so'ygan bo'laman-ku!

– Yo'q, hali va'dalashmadik, – dedim ovozim qaltilrab.

Davron napisand bir tarzda mashina o'rindig'iga yastanib kuldi.

– Tanzila va'da bermagan, non ham sindirilmagan, buyog'i qiziq bo'ldi-ku, nimaga ishonib u meniki, deyapsan?

– Tanzilani sevaman, jonimdan ham ortiq ko'-

raman.

– Mana, men ham sevaman endi, bu hali hech nimani hal qilmaydi. Soat, – dedi do'stim tuyqus jiddiy tortib, – agar Tanzila ham senga sevaman deb aytgan bo'lganida qo'limni ko'ksimga qo'yib, bemaza gaplarim uchun sendan kechirim so'rardim, senga hech qachon xalaqit bermasdim.

– Men Tanzilani sevaman, – deb g'udrandim men, o'zimni oqlashga boshqa so'z topolmay.

– Soat, meni bilasan-ku, bir aytdimmi, keyin ortimga qaytolmayman. Bo'pti, sen uchun sa-al chekinaman, gap bunday, ertagayoq Tanzilagasovchi yuboraman, agar u rad etsa, tamom, yana qo'lim ko'ksimda, bir chekkaga chiqaman, keyin, uni sevasanmi, pishirib yeysanmi, bu o'zingga havola. Qalay, taklifim ma'qulmi?

Men lom-mim deyolmay, ich-ichimda ingrab qo'ydim, xolos.

Sovchilar! Davron, raisning arzanda o'g'li sovchi qo'ysa, kim rad eta oladi, kim?! Mulla Mirzami, usta Abilmi, Uldon chechami? Yo'-o'q, qaytam, quvonishib hali sovchilikdan gap ochilmay turib hammalari bosh egishadi. Ustiga-ustak, Quvondiq qaysar bir paytlar hadya etgan sog'in sigir shuncha yillardan beri o'zidan ko'payib, butun urug'-aymog'i bilan og'ilda mo'rab turibdi. Anovi qizil etikning jozibasi ham hali-hali ko'zni qamashtirsa kerak. Kim biladi, menga noma'lum yana qanchadan-qancha sovg'a-salomlar sovchilarning tilini burro, qo'lini uzun qilishga shay turgandir?!

– Xo'sh, taklifim ma'qulmi, mulla Norsoat? – dedi Davron g'olibona iljayib, – sovchilarni ertagayoq jo'nataman.

– Yo'q! Yo'q! – beixtiyor bo'kirib yubordim men.

Davronning qoshlari chimirilib, ko'zlari qisilib,

burun kataklari pir-pir ucha boshladi. Bu... bu qiyofa menga tanish, juda-juda tanish. Bu shunchaki jahldan emas, do'stim yana ham qat'iylashganidan, ushlagan joyini uzib olishga shaylanganidan darak berardi.

— Soat, Tanzilani sevishingga men hali ishonib qolganim yo'q. Sen, shunchaki, qizni mendan qizg'anayapsan, mendan, jonajon do'stingdan! Sen... sen yo'limga atay to'g'anoq bo'lyapsan. Men buni do'stlikka xiyonat deb hisoblayman.

— Davron, gaplarim chin, men uni qattiq sevaman, bolalikdan beri sevaman, aytganlarimga ishon, har kuni, har daqiqa shu qizni o'ylayman.

— O'chir, o'chir ovozingni! Tanzilani sevishingni menga hech qachon aytmagansan, ana, boyta tan olding, uning o'zigayam hech narsa gapirmagansan. O'v, Tanzila tomonga birinchi qadamni men tashladim, men! Demak, birinchi bo'lib men sovchi jo'nataman. Men birinchi bo'lib Tanzilani tilga olganim senga yoqmayapti, shuning uchun tizinglayapsan, sevaman deb bahona qilayapsan.

— Yo'q, sovchi yuborishingga yo'l qo'ymayman!

— Men bilan urushmoqchimisan? — dedi Davron qaddini biroz kerib. Uning qaroqlarida qip-qizil shaFAQ akslanib turardi.

— Kerak bo'lsa, urushaman, — dedim men ham qo'lalarimni musht qilib, — bilaman, sen zo'rsan, otangning ham qo'li uzun, kattakon, meni o'ldirasizlar, lekin Tanzilani hech qachon senga berib qo'ymayman!

Davron istehzoli tirjaydi.

— Endi shunday shattalik yo'liga o'tdingmi? Nega otamni o'rta ga tiqayapsan? Ey, otamni biror yerda pesh qilganimni hech ko'rganmisan, a, ko'rganmisan? Nega tirriqlik qilyapsan?

— Urushaman desang urushaman, — dedim biroz

bo'shashib.

Davron panjalarini panskashaday kerib yuzini bir sidirib tashladi. Odatda, u o'zini arang bosib, jahlini pasaytirish uchun shunday harakat qilardi.

— Soat, — dedi do'stim hanuz tovushi temirday jaranglab, — to'yimning kurashini qizitib berasizlar degandi domilla, esingdami? Indin to'y, kechki payt kurash. Kel, ikkovimiz masalani boshqacha hal qilamiz.

— Qanday?

— Ota-bobolarimiz an'anasi bo'yicha hal qilamiz. Ikkovimiz kurashamiz. G'olib Tanzilaga egalik qiladi. Ham domillaning to'yi qiziysi. Qa'sy? Bu gapga ko'narsan endi, a?

Ha, Davron meni burchakka qisgan edi! Uning taklifiga rozi bo'lishlikdan boshqa ilojim qolmadni.

— Bo'pti, kurashamiz, — dedim qat'iy, — lekin... lekin bu kelishuv o'rtamizda, hech kim bilmashin.

Davron asabiy bir tarzda xoxolab kului.

— Ey, oshing halol bo'lsa, ko'chada ich, degan maqol bor-a. Sen nimadan qo'rquyapsan?

— Men hech narsadan qo'rquyapman. Tanzila gap-so'zga qolmasin tag'in deyapman.

— Ey, qizni qo'y, sen o'zingning sha'ningni o'yla. Yigitning ori but bo'lsa, qizlarga kiyimning keragi yo'q, shuni unutma. Men sening taklifingga ko'nmayman. Bunday imi-jimida bellashish ota-bobolar udu-miga to'g'ri kelmaydi. Hammasi oshkora, ochiq bo'lishi kerak.

— Bo'pti, bilganining qil, — dedim alam bilan qo'l siltab.

— Demak, kelishdik. Indin, kechki payt hammasi halollik bilan hal bo'ladi, — dedi Davron g'olibona iljayib, — endi-i, jo'ra, mashinamdan tushing. Shu

lahzadan boshlab ikkovimiz bir-birimizga ashaddiy dushmanmiz. Orani ochiq qilgach, qo'l tashlashib, to'n yopishib, qayta do'st tutinamiz. Qani, tush mashinadan!

Men g'azab va nafrat ichida kalovlanib mashinanadan tushib qoldim. Davron "Jiguli"ni o't oldirib, hanuz iljaygan ko'yi ochiq oynadan qo'lini chiqarib an'anaviy tarzda baland ko'tardi.

– Quyosh hali botmagan!

– Quyosh hali botmagan! – takrorladim men ham havoga qo'l sermab.

Ammo quyosh allaqachon qip-qizil qondek shaqqqa belanib ufqqa bosh qo'ygan edi.

Men jim-jit yo'l bo'yida so'ppayib qolib ketdim.

Yon-atrofim biyday dala-dasht. Shom qorong'ili-gi meni tobora qa'riga tortib borar, yo'l bo'yidagi yakkam-dukkam daraxtlarda chug'urchuqlar bezovta chug'ur'ashar edi. Sal kam o'n chaqirim naridagi qishlog'iñ tomon horg'in va ezgin jo'nadim. Unda-munda xira, mitti yulduzlar go'yo holi zabunimga achinganday jonsarak miltillaydi.

Men allaqachon mag'lub edim. Davron ilk ham-ladayoq meni yerparchin qildi. Hamla?! Bunday deyishim to'g'rimikan. Umuman, do'stimni malomat qilishga haqlimanmi? Axir, Davron biror gapida hamadolat chegarasidan chiqmadi-ku! Aslida hamma-hammafiga o'zim aybdorman. Noshud-landovurligimdan xafa bo'lishim kerak. Axir... axir Tanzilaga bir og'iz ko'nglimni yorib, uning umidbaxsh, nاجотбахш va'dasini olib qo'yganimda bunday ko'rguliklarga yo'liqib yurmasdim. Agar Tanzila bilan ahd-u paymon qilganimda, rais tugul, shahanshohning bolasi sovchi qo'yganida ham zarracha qo'rmasdim. Chunki bilaman, ich-ichimdan sezaman, Tanzila ahdi-ga vafodor qiz. Ammo... ming afsuski, shu paytgacha

unga na sevgimni aytdim, na va'dalashdim.

Men shunday hasratli o'ylar iskanjasida iyg'a-lanib, siyqalanib borarkanman, qishloq yana ming-ming chaqirim nariga surilishini, unga hech qachon, hech qachon yetolmasligimni juda-juda istardim. Qani endi, parcha toshga aylansam-u, shu yerlarda umrbod qolib ketsam degan orzu xayolimda bot-bot charx urardi.

Men o'zi nedan umidvorman? Tanzilaning goh kulganiga, goh yig'laganiga qarab o'zimcha fol ochib yuribman xolos. O'sha tungi ko'z yoshlarini ko'rib, bu sevinch, bu sog'inch, bu sevgi iztiroblaridan, deya o'z-o'zimni ishontirdim, quvondim, kerildim, g'ururlandim. Aslida boshqacha bo'lsa-chi? Balki Tanzila afsus-nadomatdan, xijolatpazlikdan yig'lagandir o'sha kech? Mening o'zimcha sevib, kuyib, o'rtanib yurganimni payqagan-u, muhabbatimni ko'z yoshlari bilan rad etgandir, ko'nglim Davron akanda, demoqchi bo'lgandir, besamar qiyab qo'ygani uchun mendan kechirim so'rashga uringandir?! Anovi o'ttizta xat-chi? O'sha to'lin oyli tunda, qizning ko'z yoshlaridan mast bo'lib o'ttiz xil bahonalar bilan ularni ham o'zimniki qilib oldim. Aslida o'sha maktublarda nelar yozilgan, bilmayman-ku, axir! Davronning haligi g'olibona iljayishlari, qat'iy gap-so'zлari balki behuda emasdir? Ikkovi allaqachon ahd-u paymon qilib, endi meni mazaxlashga o'tishgandir?

Men kimsasiz, jim-jit yo'l bo'ylab, tunkezar ar-vohday besar-u somon ketib borarkanman, ko'nglimda kechgan so'nggi shubha-gumonlarga chippa-chin ishonib, bo'g'zimga alam va nafrat tiqilib, sassiz, unsiz bo'zlab borardim.

Shu orada qishloq tarafga tirkama taqqan bir traktor tarillab, bir mototsikl pat-patlab, tun sukunatini,

mening xayollarimni parcha-parchalab o'tib ketdi.

Men shosha-pisha o'zimni daraxtlar panasiga oldim. Nazarimda, faralar nuri ichi-tashimni yoritib, bor sir-asrorimni oshkor etadigandek, ko'rganlar ustidan miriqib kuladigandek tuyilardi. Ammo bu qiliq'imdan o'zimning ensam qotdi. Hozir-ku amal-taql yashirinib qoldim, erta-indin ro'y bera-digan sharmandalikdan qanday qutulaman, degan o'y butun borligimni tilkalab turardi.

Qop-qora osmonning bir chekkasida zanglagan temir barkashday to'lin oy ko'rindi. Uning sarg'ish yog'dulari ostida olis-olislardagi uylar, imoratlar g'ira-shira ko'zga tashlanardi. Borliq sirli, vahimali bir sukut og'ushida tek qotgan edi.

Oy nurlariga chulg'anganimdanmi yo g'uj-g'uj yulduzlarning sho'x-sha'n jimirlashidanmi, har nechuk, ko'nglim andak yorishib, taskin topganday bo'ldi. Yo'q, yo'q, adashibman, aslida xayolimning bir chekkaginasida miltillab turgan, do'stim, shunchaki, hazillashdi, hozir biror daraxt panasidan qah-qah urib oldimga otolib chiqadi, degan o'y mashinadan tushib qolganimdan buyon umidvor qilib turgan ekan. Shu ilinjda qarshimda ko'ringan qoraga talpinib, bir mo'jiza kutib borayotgan ekanman. Afsus, umidlarim sarob bo'lib chiqdi.

Shu alfozda qoqilib-surilib, goh imillab, goh tezlashib bir soatcha yo'l yurdim. Nihoyat, qishloq bi-qinidagi, "Kengsoy burgutlari"ning doimiy qo'nalg'alaridan biri bo'lган tutzorga yetib keldim. Shu payt yo'l chekkasida qiyshayibgina turgan yengil mashinani ko'zim ilg'ab qoldi.

"Iya, do'stimniki-ku?! Qo'nalg'amizda kutib turgan ekan-da, yaramas hazilkash!" – degan o'ydan butun borlig'imga quvonch yugurdi. Beixtiyor qadamla-

rim ildamlashdi.

Ha, Davron chindan ham kutib turgan ekan! Ammo yolg‘iz emas, yonida “Kengsoy burgutlari”dan bo‘lgan, ikkitasi kasalligi tufayli harbiy xizmatdan qutulib qolgan, ikkitasi bir hafta burun askarlikdan qaytgan, to‘rt nafar do‘stimiz ham hurpayib turardi.

— Gap bunday, burgutlar, — deb tantanavor, baland bir tovushda so‘z boshladi Davron, — Norsoat do‘stim bilan nozik bir masalada to‘qnashib qoldik. Bu haqda boyta sizlarga aytdim. Indin mакtabimiz direktori, To‘xtasin domlaning to‘yida ikkovimiz kurashib masalani hal qilamiz. Muqaddas tutzorimiz, to‘lin oy, marjon yulduzlar guvohligida, sizlarning huzuringizda ont ichib aytamanki, hammasi ota-bobolar udumi bo‘yicha, halollik va mardlik asosida bo‘lib o‘tadi...

Davronning bolaligimizdan beri tanish, hatto, o‘sha O‘mskdagi Anya-Manyalarning noz-karashmlari ham yo‘q qila olmagan, g‘irt kitobiy tilda baland-parvoz gapirishlari, o‘ng qo‘lini bosh uzra ko‘tarib, chap qo‘lini ko‘krakda tutib turishlari bizga ham hech bir g‘ayritabiyy tuyilmas edi.

Uning aytganlarini some’ bo‘lib eshitdik. Ayniqsa, men sud hukmiga qulqoq tutgan tutqunday itoatkorona bosh egib, yerga kirib ketgudek bo‘lib turardim.

— Shayx, G‘iyos, — dedi Davron yonidagi bolalariga yuzlanib, — ikkovingiz Norsoat taraf, uning oldiga o‘tinglar. Bu ajralish vaqtinchha, kurashdan keyin hammamiz hamishagiday do‘st bo‘p ketaveramiz.

Davron o‘z taraf dorlarini olib mashinasiga o‘tirdi-yu, shiddat bilan jo‘nab ketdi. Biz “Jiguli”ning qip-qizil cho‘g‘day milti!lab, tobora uzoqlashib borayotgan orqa chiroqlariga xomush va o‘ychan termulib ancha payt tek turib qoldik.

Hoynahoy, ko‘nglimni ko‘tarishga shaylandi,

shekilli, birozdan so'ng G'iyos:

– Domillaning to'yi rosa qiziydigan bo'ldi-da, – dedi kaftlarini bir-biriga ishqalab, – hayajonli, esda qoladigan, qiziq kurash tomosha qilamiz.

Men hasrat to'la nigohlarimni sitilib ketgan ko'z yoshlardek g'uj-g'uj yulduzlarga qadadim: "Bu senga qiziq, senga zavqli, G'iyosboy... Mening dardimni qaydan ham bilarding..."

Shayxali ham yelkamga do'stona qo'l tashlab hamdardlarcha dalda bergen bo'ldi.

– Davronning maqtanishlaridan qo'rqma. Bir qo'ldan qoldirmaysan uni, biz senga ishonamiz.

O'sha tungi, Davronchasiga aytganda, muqaddas tutzor, marjon yulduzlaru to'lin oy guvoohlida ahdashganimiz, qasdashganimiz butun qishloqqa ovoza bo'lib ketgan ekan.

Men buni to'y oqshomida, kurash tomoshasi boshlanish arafasida, qismatimday qop-qora qorong'ilikka qorishib kimningdir g'ildiraklari o'rniga siniq g'isht bo'laklari qalab qo'yilgan, nosoz yuk mashinasi panasida, tarafkash do'stlarimni, umidbaxsh bir mo'jizani kutib turganimda nogoh bilib qoldim.

Uch-to'rt sharpa bo'lajak kurash maydoni tomon gurunglashib borishardi.

– Ie, shunday bo'ptima-yey...

– Ha, qishlog'imizning ko'zga surtgan ikki polvon ni qiz talashib qopti.

– Qaysi qizni?

– Abilning asrandi arzandasibor-ku, shuni.

– Obb-o-yey, obbo... kurashda kim yengsa, qiz shuniki bo'larmishmi?

– Ha, ikkovi qattiq garovlashgan.

– Bu gap avval qay biridan chiqdi ekan?

– Kimdan bo'lardi, raisning anovi erkatoyidan-da, doim bemaza ishlarni boshlab yuradi. Bolaligidan

beri shunday buzg'unchi, janjalkash.

– Hech oldi qaytmagan-da, bu bolaning. Hamma narsaning egasi o'zimman deb o'rgangan, hech kimni yuz-xotir qilmaydi.

– Norsoatboy bi-i-r shoxini sindirsa, yaxshi bo'lardi-da.

– Kim biladi, u ham bir sho'r yetim-da, qo'rqqanidan yiqlilib berar avvali.

– Abilboyning ahvoli qanday? Qulog'iga yetibdimi bu talash?

– Raisning uli qiziga oshiq bo'p qolganidan dimog'i chog' deb aytdi birov, yana bilmadim...

– Yiqitsayam, yiqlisayam, raisning bolasini desa kerak u.

Odamlar to'pi shu tarzda gurunglashgan ko'yi oldimdan o'tib ketdi. Ularning menga tarafdrorligi ichimni ilitib, ko'nglimni ko'targan esa-da, biroq bizlarning garovlashganimiz ovoza bo'lib ketganidan dilim g'ash, ta'bim tirriq edi.

Ko'p o'tmay Shayxali va G'iyos yonimga kelishdi. Uchovimiz ikki kun davomida zovur ortidagi paykal bo'yida mashg'ulot o'tkazgan edik. Goh unisi, goh bunisi men bilan olishdi. Men ularni chirpirak qilib uloqtiraman. Uloqtirar ekanman, ikkovini qo'shgan taqdirda ham bitta Davron bo'lomasligini ich-ichimdan his etaman. Sodda do'stlarim esa meni astoydil alqashadi: "Qoyil, qo'sh ho'kizdan ham kuching ko'p. Rost, sen g'olib bo'lasan".

Biz kechki payt to'yxona yonida uchrashishga kelishib xayrlashgan edik. Mana, ular hovliqqan ko'yi yetib kelishdi.

– Yur, kurash ham boshlanib ketdi, – dedi G'iyos maydon tomon alanglab. – Davronlarning joylashib

olganiga ancha bo'ldi.

Katta polvonlarga xos tarzda, boshimdagi jun qalpoqni ko'zlarimgacha bostirib, qalin choponimga burkanib, ikkovining o'rtasiga suqulib, odamlardan panalagan ko'yi kurash maydoni tomon yurdim.

– Qo'rqlama, hayajonlanma, baribir sen yutasan, – deb qo'yadi Shayxali.

Qor-qirovsiz kirib kelgan qish dimog'idan sovuq havo purkab turardi. Bir haftacha burun yengil yog'ib o'tgan yomg'irdan namiqqan dalalardan chirkin o't-o'lanylari, xazon isi anqiydi.

Baland ustunlarga tortilgan simlarga osilgan lampa chiroqlar yog'dusidan chor-atrof charog'on edi. Kurash maydoni tegrasida qari-qartang qo'r solib o'tirar, ular ortida yosh-yalanglar tik turib polvonlarni kuzatar edi. To'p-to'p tomoshatalablar maydonga taqab qo'yilgan yuk mashinalari, traktor tirkamalari ustida turib davraga zavq-shavq bilan tikilishib qiy-qirishar, irg'ishlashar edi.

Davra bakovuli o'sha mashhur Ergash mirob ekan. Bir paytlar Davron unga humatsizlik ko'rsatganini, kurashni g'irrom baholadingiz deb yuziga solganini hisobga olsak, bu hakim ham menga tarafkash bo'lib chiqardi.

– Ha, polvonjonlar, bo'shashmanglar, jonli-jonli olishinglar, – deya chirkin somon, yog'och qirindisi qalin to'shalgan hovarda bellashayotgan o'spirinlar atrofida aylanib turardi u, – zot kam bo'lsa, hali yana qo'shaman.

Xuddi shu gapni kutib turganday chorpxaxil, xumkalla yosh polvon raqibini chalpak qilib yerga urdi.

Davra guvillab yubordi.

– Halol, jigitning haqini bering, – deb qichqirdi

bakovul.

Biz tomoshabinlar to'dasini yorib, o'zimizga qulayroq joyga o'mashib oldik.

Ajab! Haligi gurungdan ruhlanib o'zimga ishonch ortdimi, yo davraga suqulib, bellashayotganlarni ko'rib polvonlik tomirim qabardimi, hanechuk, biroz xotirjam tortib qolgan edim. Davron garovga chorlagan o'sha tundan beri yuragimni g'ijimlab yotgan alam-iztirob, uyat-andisha, qo'rquv qaylargadir bekinib qolganday edi.

Men zimdan yon-verimga ko'z tashladim. To'y egasi – To'xtasin domla bir paytlar ta'kidlaganday, kichkina kurash musobaqasi bo'lishiga qaramay, tomoshatalablarning haddan ziyod ko'pligi bizning talashimiz, garovimiz butun qishloqqa yoyilganidan darak berardi. Hatto davraning bir chetida xotin-qizlar ham maydonni hurkibgina kuzatib turardi.

“Tanzila ham shu yerda-yov, axir bugun yakshamba” – shu fikr xayolimdan lip etib o'tdi. Ammo yig'ilgan ayollar orasidan uni ilg'ay olmadim. Shu orada Davronga ko'zim tushib qoldi. U davraning kunbotar tomonida, o'z tarafkashlari orasida, xuddi menga o'xshab kiyimlariga burkanib, kurash tushayotganlarni noxush kuzatib, o'z gali kelishini betoqtat kutib turardi.

Davra yana qiyqirib yubordi. Poxol to'shamaga qorishib qolgan mag'lub polvon gangigan ko'yi o'midan turdi. G'olib esa ko'krak kerib bakovul yordamchisi qo'lidan o'z sovrinini oldi. Mag'lubning origa chiqqan, baland bo'yli, mushak-muskullari bo'rtiq yigit davra bo'ylab ohista aylanardi.

– Jartepalik Nozim polvon! – deya uni tomoshabinlarga tanishtirdi bakovul.

G'olib polvon sovrinni sheriklariga topshirib yana

maydonga qaytdi.

To‘lin oy, ko‘k to‘la yulduzlar ham, nazarimda davraga yaqin kelib, bellashuvlarni ajablanib kuzatayotganga o‘xshardi.

Men yana yon-verimni zimdan kuzatdim.

Hurmatli mehmonlar o‘rnashgan joyda Quvondiq qaysar ko‘rinmas edi. Davron ikkimiz mashinada aytishib, qizarishib qolgan kuni u peshin payti alla-qanday katta majlis bahonasida viloyat markaziga jo‘nab ketganini eshitgandim. Aftidan, u yoqdan hali qaytmaganga o‘xshaydi. Biroq bundan na quvonch, na tashvish his etdim.

Tomoshabinlarning qiyqirig‘i, g‘ala-g‘ovuri ostida kurash qizg‘in davom etardi. Bir payt to‘y egasi To‘xtasin domla lapanglab bakovulning yoniga kel-di-da, uning qulog‘iga allanelarnidir uzoq shivirladi. Ergash mirob mammun bir qiyofada bosh irg‘ab turdi. Shu orada harsillab olishib yotgan polvonlardan biri raqibini belidan quchib dast ko‘tardi, ammo zil-zambil yukdan nogoh o‘zi qalqib ketib, chalqanchasiga quladi, raqibi uni shu holatda bosib qoldi. Davra qiy-qirib yubordi.

– Halol! Abror polvon g‘olib! – deya e’lon qildi bakovul.

Men yiqilgan kurashchini yaxshi tanirdim. Mahoratli, chapdast polvonlardan. Ammo hozir qo‘pol xatoga yo‘l qo‘yanini ko‘rib, o‘z tashvishimni ham unutib, xayolan unga dakki bera ketdim.

– Xaloyi-i-iq! – deb qoldi bir payt Ergash mirob qo‘llarini baland ko‘tarib, – to‘y egasi kamtar, kam-suqum odamligidan xabaringiz bor. Shuning uchun bugungi kurashimizga bittagina toboq qo‘ymoqchi. Hozir shu toboq uchun bo‘ladigan bellashuvni tomosha qilamiz-da, keyin oqsoqollardan bir duo olib

kurashimizni yakunlaymiz.

Bakovul shunday dedi-da, yordamchisi uzatgan oq matoni olib o'rtaga qo'ydi.

– Mana, toboq! Shu toboqni yerdan oladigan talabgor polvon bormi?! Zoti katta bir ho'kiz! Qani...

Ergash mirob so'zini tugatar-tugatmas Davron maydonga otilib chiqdi-yu, o'rtadagi oq matoni qo'liga olib, katta polvonlarga xos bir tarzda manglayiga tegizib qo'yib, davrani bir aylanib, so'ng yana joyiga borib o'tirdi.

– Toboqni Davron polvon ko'tardi! – deb e'lon qildi bakovul, – qani, oralaringizda unga talabgor bormi?!

Davron davra aylana boshlagandayoq Shayxali ustimdagi to'nimni, G'iyos boshimdag'i qalpog'imni yechib olib, meni kurashga shaylab turishardi. Men Mulla Mirzadan o'rgangan oyatlarni chala-chulpa o'qigan ko'yi, adashmasam, garovlashgan kunimizdan beri o'z-o'zimga beshinchি bor dam sola boshladim. Ergash mirob yana qayta talabgorlar chorlagan payt Shayxali yelkamga turtdi.

– Soat, davay, omad senga! Xudo qo'llasin!

Men belbog'imni qayta bog'lay-bog'lay o'rtaga chiqdim.

– Talabgor davraga tushdi! – deb e'lon qildi bakovul, aft-angoridagi ayyorona ifodaga qaraganda, u ham hamma shov-shuvdan xabardorga o'xshardi, – o'zimizning Norsroat polvon! O'rtadagi zotga to'y egasining jiyani tomonidan yana ellik so'm qo'shil-di, bir ho'kiz-u ellik so'm! Bu hali hammasi emas... g'olibni yana bir ajoyib mukofot kutib turibdi, uni ikkovlari yaxshi bilishadi.

Tomoshabinlar tarafdan qiqirlagan, pixillagan kul-

gular eshitildi.

Men ustoz Absal polvon o'rgatganlariga amal qilib atrofimga alanglamay oyoq ostidagi poxol, qirindi to'shamadan ko'z uzmay davra aylanardim. Davron mendan sal oldinda, qo'llarini belbog'iga tirab, gerdaygan ko'yi lapanglab odimlardi.

– Qani, polvonjonlar, boshlanglar, davra sovimasin, – dedi bakovul qo'lidagi xivichni sermab.

Davron ilkis ortga burildi-yu qo'llarini havolatib hujumga o'tdi. Men ham tovonlarimni to'shamaga mahkam tirab himoya marrasini egalladim. Davra tuyqus jim-jit bo'lib qoldi. Raqibim odatdagidek chalg'ituvchi harakatlar qilib o'tirmay, shiddat bilan tashlandi-yu yaktagim yoqasidan tutdi. Men uning belbog'iga qo'l cho'zdim. Ammo Davron ushlashim-ga yo'l qo'y may zarb bilan siltab tortdi. Men nogoh tizzalab qoldim. Davra guvullab yubordi. Raqibim yana bir siltab ustimga o'zini tashlaganda bormi, men to'shamaga to'shalib qolishim tayin edi. Ammo... ammo u hech kutilmagan payt yoqamni qo'yib yubordi-da, yana shiddat bilan davra aylana boshladi. Men ham tizzalab qolgan joyimdan turib, yaktagimning yelkamdan sidirilib tushgan yoqalarini to'g'riladim. Davronning favqulodda jo'mardligi meni allaqachon ruhan sindirganday, kuch-quvvatimning yarmini kesib ketganday tuyilardi. Bel-bilaklarimga biroz titroq kirdi.

Biz yana yuzlashdik. Bu gal men raqibimning belbog'i-yu yaktagini mahkam siqimlab, o'zim tomon zarb bilan tortdim-u, oyoqlari orasiga chil soldim. Biroq Davron oyoq bo'g'inlarini tarang rostlab chilimni chiqarib yubordi. Shu asnoda bellarimdan mahkam quchib meni azot ko'tardi-yu chap yelkasidan oshirib yerga tashladi. Men chalpak bo'lib tushayotgan bir

paytimda o'zimni arang o'nglab yuz tuban yiqildim.

Davra yana guvillab yubordi.

Davron yana shiddat bilan, boshini mag'rur tutgan ko'yi davra aylana boshladi. Men ham apil-tapil o'rnimdan turdim-da, bo'shashgan belbog'imni qayta bog'lay-bog'lay uning izidan odimlay boshladim. Davronning mendan bu qadar kuchli, chaqqon va mahoratlri ekanligini avvallari jiddiy bellashib ko'r-maganimiz uchunmi, harqalay, bilmas ekanman. Men xiyla dovdirab qoldim. Na ikki kunlik betinim mashg'ulotlarim, na ustoz o'gitlari, na mulla Mirzadan o'rgangan duolarim menga yordam berardi. Har qadamidan shiddat, kuch, ishonch yog'ilib turgan raqibimga zimdan ko'z tashlarkanman, navbatdagi qafasda masalam hal bo'lishini ko'nglim sezardi.

Ammo g'olibona tirjaygan sharpa quchog'ida to'l-g'onayotgan Tanzila xayolimda jonlanardi-yu, xuddi dimog'iga sun'iy nafas yuborilgan behush bemorday sapchib-sapchib tushardim.

— Ha, polvonjonlar, — deya xitob qildi bakovul, — muncha ko'p aylanib qoldilaringiz, nima, charchadilaringizmi? O'rinc-to'shak qilib beraylikmi?

Davrada gurr kulgi ko'tarildi.

Biz yana betma-bet keldik. Davron birdan o'ziga tortib usul qo'llashga urindi. Men qattiq himoyalandim. Raqibim goh o'ngdan, goh chapdan yaqinlashmoqchi bo'lar, turli aldamchi harakatlar qilar, men ko'kragiga tirab olgan qo'llarimni sidirib tashlashga urinar edi. Ammo baribir himoyamni yorib o'tolmay meni qo'yib yubordi-da, yana jahl bilan davra aylana boshladi. Nihoyat, bu safar ham arang qutulib qoldim.

Tomoshatalablarning men usul qilganda qiyqirishib, Davron hujum boshlaganda jimb qolishlari

ham, ularning kim tarafda ekanligini ochiq-oydin ko'rsatardi. Ustiga-ustak, Quvondiq qaysarning tomoshada yo'qligi ham kuchlar nisbatini men tomon bosar edi. Biroq, bunday ustunlikdan qanday naf? Men tobora charchab, zaiflashib, Davron esa tobora quturib, jununga kirib borardi.

"Yiqilishga haqqim yo'q, sira haqqim yo'q, odamlar ham menga ixlosmand, – degan o'y xayolimda charx urib aylanardi, – nima qilib bo'lsayam yengishim kerak. Tanzilasiz hayot menga harom!"

Davron kimdir idishda uzatgan suvdan ho'plab bir g'arg'ara qildi-da, og'zidagi suvni qo'llariga purkab, barmoqlarini namlab yana jo'shqin o'ynoqlaganicha maydonga qaytdi. Shu galgisi so'nggi bellashuv bo'lishini yuragim sezdi. Shu barobarida ko'nglimning bir burchagida biqinib yotgan nopok, g'irrom bir reja shilliqqurtday sudralib chiqdi.

"Konibodomlik do'stim o'rgatgan usulni qo'llayman. Samboda qat'iy taqiqlangan deb ogohlantirgandi, shekilli... – deb o'yladim raqibning baquvvat qo'llaridan ko'z uzmay, – boshqa ilojim yo'q, yo, Xudoyim, o'zing kechir, Tanzilani birovlarga berib qo'yolmayman".

Men payt poylay boshladim. Davron usul qo'llash ilinjida oyoqlarimdan ko'z uzmay irg'ishlayotgan payt chap ilkinning barmoqlari orasiga panjalarimni taroqday tiqib, ikkinchi qo'lim bilan o'ng tirsagi ustidan mahkam tutdim. So'ng raqibim yaqin kelishiga atay qo'yib berdim. Davron meni dovdirab qoldi degan o'uda shiddat bilan usul qo'llamoqchi bo'ldi. Ammo men qayirib yuborgan barmog'ining og'rig'idan birdan bo'shashib ketdi.

– Ax! – dedi afti burishib.

Men shu lahzadayoq o'ng qo'lini bilagim bilan

o'rab bilagini tirsagidan qayirib yubordim. Davron bemisl og'riqdan ko'zlarini chirt yumib, yonboshga qulay boshladi.

Men yashin tezligida uni usulga oldim-u, belimdan oshirib yerga urdim.

Davra gulduros solib hayqirib yubordi.

— Halo-o-o!

Men chalpak bo'lib tushgan Davronning ko'kragidan bosib turardim. Kallam karaxt, ko'zim ko'r, qulog'im kar edi.

— Halol, — deya yelkamga turtdi bakovul, — qo'yring endi uni.

Shu asnoda o'rtaga otilib chiqqan Shayxali va G'iyos meni yetaklab maydondan olib chiqib, yelkamga to'nimni tashlashdi, boshimga jun qalpog'imni kiydirishdi.

Tomoshatalablar tobora kuchliroq qiyqirib, hayqirib, g'olibni olqishlashar edi.

— Ey! Ey, xaloyiq! — deb qichqirdi Davron o'ng qo'lini silagan ko'yи o'rnidan turarkan, — Norsoat nomardlik qildi, qo'limni qayirib yubordi. G'irrom bu!

Tevarak-atrofdan masxaraomuz kulgilar, istehzoli qiyqiriqlar eshitildi.

— Yiqilgan olishga to'ymaydi, Davronboy!

— Yana qanday bahonalaring bor?

— Xarxashani otangga qilasan!

Shu orada bakovul yordamchisi kelib menga sovrin pulini uzatdi.

— Mana, Norsoatboy, oling, ona sutiday halol sizga. Ho'kizni ertaga to'xonadan yetaklab ketasiz.

Men hanuz karaxt va parishon edim. Bakovul yordamchisining gaplari deyarli qulog'imga kirmadi. Shayxali bir intilib uning qo'lidan pulni

oldi.

– Ey! Ey, yaxshilar! – deya Davron qo'llarini qanotday yoyib javdiragan ko‘yi u yon-bu yon yugurgilay boshladi, – bu nomardlik-ku?! Qo‘limni sindirib qo‘yishiga sal qoldi! Agar aldayotgan bo‘lsam, meni polvon piri ursin!

Ergash mirob kinoyali kulimsirab uning qo‘lidan tutdi-da tarafkashlari turgan tarafga yetakladi.

Davron adashib qolgan yosh boladay atrofga alangladi. U, aftidan, meni izlardi.

– Ey, Norsroat! – deb baqirdi u alam bilan, – mard bo‘lsang maydonga chiq! Aybingni tan ol!

G‘ala-g‘ovur, qah-qahalarga ko‘milgan davra unga e’tibor ham bermadi.

– Qani, oqsoqollar! – dedi bakovul qariyalar to‘piga yuzlanib, – chiroyli bir duo qilib, kurashni yakunlaylik. Omi-i-in!

– Omi-i-n!

Men ko‘zlarimni ko‘kka opqochdim. Miltillagan yulduzlar go‘yo hurkib, uyalib g‘uj-g‘uj to‘planib olgandek edi. Sap-sariq to‘lin oy battar sarg‘ayib, so‘lib, behol bo‘zarib turardi.

Olomon duvva qo‘zg‘aldi. Maydonga taqab qo‘yilgan traktorlar tarillab, yuk mashinalar gurillab jildi. Ularning faralaridan taralgan yog‘du yaqin-uzoqdagi uylarni, g‘o‘zapoya, xas-xashak g‘aramlarini ola-chalpoq yoritdi. G‘ala-g‘ovur, kulgilar-u qiyqiriqlar har yon-har yon to‘zib qoldi.

Ana, Davron! U o‘zini yetaklab ketishga urin-gan tarafkashlarini siltab tashlab bo‘m-bo‘sh maydonda, poxol to‘sama ustida jazava bilan yurinib turardi.

– Ey, Norsroat, ey, qo‘rkoq, qayerdasan, mard bo‘lsang maydonga chiq! Hali oramiz ochiq emas, –

deb bo'kirardi u atrofga alanglab.

Biz g'ildiraklari o'mniga g'isht qalab qo'yilgan,
nosoz o'sha yuk mashinasi biqinida turardik.

– Qo'ygin, unga e'tibor berma, ketdik, – dedi
Shayxali biiagimdan tortib.

G'iyos ham behafsala qo'l siltadi.

– Endi tong otguncha shu, bo'kirib turaveradi.

Ammo mening joyimdan jilgim yo'q edi. Qandaydir kuch Davronning yoniga chopib borishga,
yelkalariga do'stona qo'l tashlab, kechirim so'rashga
undardi.

– Ey, nomard, yaxshilikcha aybingni tan olmasang,
polvon piri qarg'aydi seni, ulug' ajdodlar ruhi uradi!

Do'stim shu ahvolda ham kitobiy, tantanavor iboralarini tildan qo'ymay, ixlos-u ikrom bilan takrorlardi.

Bir payt, bilmadim qaydan chiqdi, qizg'ish-sarg'ish libosi lampa chiroqlar yog'dusida olovday lovullab turgan Tanzila qunishgan ko'yi Davronning shundoqqina qarshisida paydo bo'ldi.

– Oh, Tanzila! Sohibjamol farishta! – dedi u xuddi kinolardagi ritsarlar kabi qiz qarshisida tiz cho'kib,
– biz hammasini ota-bobolar udumi bo'yicha o'tkazishga kelishgandik, lekin Norsoat g'irromlik qildi,
qo'limni qayirib meni yiqitdi, o'zing izn ber, kurashni
sening ko'z oldingda qayta o'tkazaylik.

Davron gapirgan sayin jo'shib, qulochini keng yoyib qiz tomonga sudraklanib yaqinlashardi. Men esa bu yoqda rashk-alam olovida qovrilib, qo'llarimni musht qilib maydon taraf o'qdek uchishga shaylanardim. Nazarimda, Tanzila hoziroq o'zini nayrang qurboni quchog'iga tashlab, yuz-ko'zlarini silab, sevgisiga iqror bo'ladigandek, Davron uni ozod ko'tarib, tevarakka g'olibona boqib qorong'ulik qa'riga singib ketadigandek tuyilardi. Agar... shu

tasavvurim chin bo‘lib chiqsa, men qarchig‘ayday uchib borib ikkisini ham burdalab tashlashga tayyor edim.

Ammo... ammo bir payt Tanzila to‘lib-toshib hasrat qilayotgan Davronning yuziga tarsaki tortib yubordi! So‘ng nimadir dedi-yu kaftlarini yuziga bosib, to‘xona tarafga tez-tez yurib ketdi.

O‘rtanib o‘rmalayotgan polvon lampa chiroqlar yog‘dusi ostida hanuz tiz cho‘kkani ko‘yi haykalday qotib qoldi. Uning shu turishi kitoblardagi antik davr yunon-rum qahramonlari tasvirini eslatib yuborardi.

Bir mahal yonginamizdan qandaydir mashina shitob bilan o‘tdi-yu maydon qarshisiga borib to‘xtadi. Undan miliitsiya mundiridagi uch barvasta yigit tushib xas-xashak to‘shamasi ustida hanuz parishon o‘tirgan Davron tomon yurishdi. Ulardan biri Halim Norbo‘ta o‘g‘li, uchastka noziri edi. Hoynahoy, shov-shuvlar qulog‘iga yetib borib, To‘xtasin domlaning to‘yida katta janjal chiqishidan xavotirlanib u boshqarmadan yordam kuchlari chaqirtirib qo‘yan, vaziyatni zim-dan kuzatib turgan edi.

Davron mundirli tartibot posbonlarini ko‘rdi-yu irg‘ib o‘rnidan turdi. Halim Norbo‘ta o‘g‘li unga nimadir dedi.

— Menmi jinoyatchi?! — deb tuyqus qichqirib yubordi Davron sultanib, — jinoyatchi g‘irrom g‘alabasidan shishinib uyida o‘tiribdi! U qilmishi uchun qonun oldida, xalq oldida javob berishi kerak. Udumlarimizni oyoqosti qildi, nomard!

Ikki barvasta posbon orkash polvonning ikki yonidan tutib mashina tomon ishora qilishdi. Yo‘q, Davron ortiqcha jazavasiz ularga buysundi, aftidan, poytaxtdagi o‘scha uch sutkalik ta’lim-tarbiya hali-hanuz ta’sirini yo‘qotmagan ekan.

- Ketdik, – deb chuqur tin oldi yonimdagি G‘iyos,
- bo‘ldi, endi tinchidi.

Yo‘q, Davron hali tinchimagan ekan. Mashina yoniga yetgan payt u posbonlar yetovidan bir siltanib chiqdi-da o‘ng qo‘lini musht qilib boshi uzra baland ko‘tardi.

– Quyosh hali botmagan!

Uning alam va iztirobga limmo-lim qiyqirig‘idan g‘uj-g‘uj yulduzlar pirpirab ketganday bo‘ldi.

– Quyosh hali botmagan! – beixtiyor pichirladik biz ham.

Davron o‘tqazilgan mashina yana shitob bilan jildi. Bir just faraning o‘tkir nurlari yon-atrofni bir yalab o‘tdi.

Tanzila sermagan o‘sha tarsaki go‘yo Davronga emas, menga tegib ko‘zlarimdan o‘t chaqnab, karaxtligim tarqab, xiyla hushyor tortib qolgan edim. Ko‘zlarimda chatnagan o‘t shu’lasida qaltis qilmishimning butun sharmisorligi, vahimasi yaqqol ko‘rinib ketdi. G‘iyos va Shayxali hamrohligida uy tomon borarkanman, ich-ichimda tavallolar qilib Davrondan, Tanziladan, barcha-barchadan uzrlar so‘rardim. Ayniqsa, kaftlarini yuziga bosib ketayotgan Tanzila ko‘z oldimda bot-bot jonlanib, farishtaday pokiza bir qizni qanday noma‘qul gap-so‘zga giristor qilganimni yetmish ikki tomirim bilan his etib o‘kirib yuborgim kelardi.

Do‘srlar bilan ko‘cha boshida xayrashdik. Bo‘lib o‘tgan mashmashalar ularning ham tinkasini quritgan, shekilli, ortiqcha gap so‘z qilmay, uy-uylariga yuzlanishdi.

Men o‘sha tanish muyulishda, o‘sha qayrag‘och yonida Tanzilani kutib turishni o‘ylagan edim. Ammo ich-ichimdagи allanedir bunga monelik qilardi. Go‘yo isqirt, iflos bir balchiqqa botib qolganmanu, bu ah-

volda Tanzilaga ko‘rinishni istamasdim. Qalbim, ongshuurim bo‘m-bo‘sh bir tarzda uyga kirib bordim.

Onajonim, yangam va akam meni kutib o‘tirgan ekan.

Akam bo‘lib o‘tgan kurash tafsilotlarini to‘l-qinlanib aytib bergan shekilli, yangam meni ko‘rdi-yu sho‘x-chan ko‘z qisib qo‘ydi.

– Bolam, bu nima qilganlaring, bolam, – deb zorlandi onajonim ro‘moli uchi bilan og‘zini bekitib, – hammayoqqa sharmanda bo‘ldik-ku, Tanzila bechora endi qanday bosh ko‘tarib yuradi?

– Xola, muncha vahima qilavermang, – deb chimirildi yangam, – qishloqning eng zo‘r yigitlari uni deb yoqalashsa, qiz xafa bo‘ladimi, qaytam boshi osmonga yetadi. Qani edi biz uchun ham birov garovlashsa.

– Ey, o‘chir ovozingni, – deb po‘pisa qilgan bo‘ldi akam xotiniga.

– O‘ho‘-o‘, siz nega nam tortayapsiz? Garovda boy berib qo‘yishingizni bilasiz-da, a...

Akam indamay unga o‘qrayib qo‘ydi

– Yanga, iliq suv qilib bering, yuvinib olay, – dedim pichirlab.

– Xo‘p, polvonjon, xo‘p, – dedi yangam ildamgina o‘rnidan turib, so‘ng ayyorona kulimsiradi, – shuncha dardingiz bor ekan, armiyaga ketishdan avval o‘zimga sal shipshib qo‘ymaysizmi, qayniginam, hammasini hal qilib qo‘yardim.

Akam g‘ijinib bosh chayqadi.

– Ey, ko‘p gapirma, shusiz ham Norsoat rosa charchadi.

Men ko‘rpachaga tizzalab onajonimning yelkasiga suykaldim.

– Ena-a, kechiring, shunday bo‘p qoldi-da. Davronning o‘zi garang qildi.

— Voy, bolam-yey, — deb onajonim sochlarimni siladi, — senlar bu yoqda shoxlashib yotsalaring, Tanzila boshqa birovni desa-chi.

Men beixtiyor onajonimning ro‘moliga yuzlarimni yashirdim.

— Yo‘q, ena-a, yo‘q, unday demang.

Akam tizzalariga shapatilab xoxolab kului.

O‘sha tun yangam ilitgan suvda obdon yuvindim. Bel-bilaklarim qaqshab og‘rirdi. Bir payt akam imlab uyga chaqirib oldi.

— Norsoat, asablaring chatnab ketdi, — dedi akam bir piyolani to‘lg‘azib aroq quyarkan, — shuni ichib yubor, esam, uxlayolmaysan.

Men beixtiyor buysundim. Achchiq suyuqlik ichichimni kuydirib o‘tdi. Ammo allanechuk yengil tortdim. Shundagina qornim nihoyatda ochiqqanini his etdim.

— Yana quying, — dedim bir bo‘lak yaxna go‘shtni huzurlanib chaynar ekanman,— o‘ldirsa, birdan o‘ldirsin.

Chindan ham ikkinchi piyolani bo‘shatib apil-tapil ovqatlandim-u o‘likday qotdim. Ertalab uyg‘onganimda kun xiyla yorishib qolgan ekan. Yaxshi dam olganman shekilli, suyaklarim yengil, miyam tiniq edi.

— To‘xtasin domlanikiga borarkansiz, tayinlab ketishdi, — dedi yangam yuz-qo‘limni yuvib dasturxon yoniga o‘tirgan paytim, — Quvondiq rais ham o‘sha yerda emish.

Onam menga tashvishlanib tikildi.

— Nima qilib qo‘yding-a, bolam. Endi rais bizni tinch qo‘yadimi?

Bo‘lib o‘tgan voqealar yana esimga tushib ko‘nglim birdan g‘ash tortib qoldi. Ammo sir boy bermay:

– Kecha bakovul ho‘kizni to‘yxonadan opketasan, deb aytgandi, shunga chaqirishgandir-da, – dedim bir burda nonni zo‘rg‘a yutib.

Havo tund, andak sovuq edi. Yulingan tovuq patlariday to‘zg‘in bulutlar ko‘kda suzib yurardi. Maktab tomondan bolalar qiy-chuvi eshitiladi.

Men choponimga burkanib to‘yxonaga kirib bordim. Hovli o‘rtasidagi qalin ko‘rpachalar to‘shalgan chorpojada, osh-ovqatlar mo‘l-ko‘l dasturxon atrofida, bir to‘p oqsoqollar o‘rtasida Quvondiq qaysar hamishagidek gulduros ovozda gurung berib, hammani og‘ziga qaratib o‘tirardi.

– Bundan keyin raykom, obkom degan xo‘jayinlar bo‘lmaydi, eshon buvajon, bundan keyin hokimlar rahbarlik qiladi.

Men rais ehtirom bilan murojaat qilayotgan opopoq soqolli, qoshlari qalin, rang-ro‘yi tiniq, o‘sinq soqollariga quyuq oq oralagan Karamxon eshon bovani tanib negadir ko‘nglim yorishib ketdi.

– Assalomu alaykum!

Qiroat bilan salom berdim-da, chorpoja atrofini chaqqongina aylanib avval eshon bova bilan, so‘ng boshqalar bilan qo‘l uzatib ko‘rishib chiqdim. Quvondiq qaysar bahaybat kaftlari orasiga qo‘llarimni olarkan, qizg‘in silkitib qo‘yganday bo‘ldi.

– Kecha qishlog‘imizda ko‘p g‘ala-g‘ovur bo‘pti, siz ham eshitdingizma, eshon buva, – deb iljaydi rais, – ayniqsa, To‘xtasin domillaning kurashi xo‘b boshqacha bo‘pti-da.

– Ha, eshitdim.

– Bizning bolalar bir bemaza ish qilishibdi-da.

– E, bemaza joyi yo‘q, – dedi jilmayib eshon bova, – yoshlik shunisi bilan qiziq-da, shunday ajoyibotlar esda qoladi-da.

Oqsoqollardan biri gurungga aralashdi.

– Chin aytasiz, taqsir, kechagi kurash juda qizi-qarli bo‘ldi. Hatto bizning ham maydonga tushgimiz kelib ketdi.

Men chorpoya qarshisidagi, ustiga ko‘rpacha tashlangan uzun o‘rindiqning bir chetida tavoze bilan o‘tirardim.

– Eshon bova, bu jigitni tanidingizmi, – deb qoldi Quvondiq qaysar menga ishora qilib, – rahmatli Eshqobil oshnamning uli, Norsoat polvon.

– Yoshlarni bir ko‘rganda tanib olishim qiyin-da, lekin rahmatli Eshqobilboy juda yaxshi odam edi.

– Shu jigit bilan bizning o‘g‘il kechagi hangoma-larning boshida turgan.

– Ha, shundaymi, – deb kulimsiradi Karamxon hazrat.

Shu payt darvozadan hurpaygan ko‘yi Davron krib keldi. Ikki yonga singan qanotday osilib turgan kalta charm kamzuli, chala-yarim o‘tkazilgan qalin ko‘ylak tugmalari uning istar-istamas, nari-beri kiyanganidan darak berardi. Nazarimda, Quvondiq qaysar to‘y bahona uzoq-uzoqlardan kelgan Karamxon eshonning oldida bizni yarashtirib qo‘yish uchun atay chaqirtirgan edi.

– Bizning o‘g‘il shu jigit, – deb qo‘ydi rais.

Davron ham xuddi men kabi chorpojadagilar bilan ko‘rishib chiqdi-da, o‘rindiqning narigi chekkasi-ga omonatgina ket qo‘ydi.

– Norsoatga yaqinroq o‘tir, – dedi Quvondiq qaysar qo‘rs bir tovushda, – do‘sstar ham shunday arazlashadimi?

Davron yana irg‘ib o‘rnidan turdi.

– Bu mening do‘stim emas. Nomard, g‘irrom odam bilan hech qachon do‘st tutinmayman.

– Polvonchilikda shunday-shunday bo‘p turadi-da,
– deb bosh irg‘adi oqsoqollardan biri, – endi yara-
shinglar, uyat bo‘ladi.

– Mayli, men yarashaman. Lekin avval manovi
nomardlik qilganini ochiq tan olsin.

– Ey, gurri, – Quvondiq qaysar o‘g‘liga qahr bilan
qaradi, – eshon buvaning oldida tomosha ko‘rsatma,
joyingga o‘tir, yiqilishga yiqilibsan, endi nima ... arpa
uni bahona bo‘p qoldimi?

Davron bir sapchib tushdi. So‘ng:

– Menga ishonmayapsizlar-a, – dedi orqaga as-
ta-sekin tisarilar ekan, – manovining qilmishini ma’-
qullab turibsizlar-a, unda... men oxirgi so‘zimni ay-
zaman, bu qishloqda yo nomard Norsoat yashaydi, yo
men... Xayr.

Davron ilkis burildi-yu ko‘cha tomon yugurgilab
ketdi. Keta-keta darvoza yonida odatdagiday qo‘lini
boshi uzra to‘lg‘adi.

– Quyosh hali botmagan!

Uning tovushi bu gal ancha past, lekin tahdidli,
tazyiqli tarzda chorpozagacha yetib keldi.

– Bizning o‘g‘il shunday tentak-da, – deb qo‘ydi
xijolatomuz Quvondiq qaysar.

– Unday gapni qo‘ying, rais, buning hamma-
si yaxshilikka, – dedi Karamxon eshon bova bosh
irg‘ab, – hali hammalaringiz ko‘p xursand bo‘p qo-
lasizlar. Qani, hozir shu ikki polvon bolalarning ha-
qiga bi-ir duo qilaylik, omi-i-in... – u kishi qo‘lla-
rini fotihaga ochib, ko‘zlarini yarim yumib, arabiy
lahjada uzoq pichirladi, so‘ng ovozini balandlatib
qo‘srimcha qildi, – iloyo, yigitlarimizning mangla-
yida iqboli porlab tursin, el-yurtning orini ko‘tarib,
qo‘shgani bilan qo‘sha qarib, o‘zlaridan ko‘payib
yurishsin, omin!

– Omi-i-n! – deya fotihaga qo’shildi chorpojada o’tirganlar, jonsarak yurgan xizmatchilar, katta-yu kichik barchasi.

O’sha choshgoh uzundan-uzun qilingan duo Davronga yetib borgan-bormagani menga qorong‘u, ammo kechga yaqin ma’lum bo‘ldiki, orkash polvon to‘yxonadan chiqa solib, to‘ppa-to‘g‘ri uyiga kelib, kiyim-kechak, lash-lushlarini bir jomadonga joylab allaqayoqqadir jo‘nab ketibdi!

Men ham qishloqda qolmadim. Kutilmagan mashmashalar bosilguncha qo‘ni-qo‘shni ko‘ziga ko‘rinmay tursin dedimi, harqalay, onajonim, meni qo‘yarda-qo‘ymay, o’sha ishbilarmon pochchamlarnikiga jo‘natib yubordi. Opanqlar bir og‘il qurishgan ekan, hali tomini yopishga ulgurmabdi, yog‘in boshlanib ketmasidan shuginani butlab olay deb pochchang bechora bir o‘zi tirishib yotgan emish, borib, uch-to‘rt kun qabatida turgin, dedi.

Onajonimning qiyin-qistovi, ochig‘i, menga ham ma’qul tushdi. Chunki o‘zimning ham bir yoqlarga bosh olib ketgim kelib yurgandi. Eshon bova oq fotiha bergenining ertasi kuni, hali Tanzila bilan gaplashib ololmaganimdan ko‘nglim g‘ash bo‘lsada, safar to‘rvasini orqaladim.

O’sha yili qish botinib-botinmay bo‘sag‘ada uzoq turib qoldi. Dekabr oyи sob bo‘lib borayotganiga qaramay, To‘xtasin domlaning to‘yidan roppa-rosa bir haftacha avval andakkina namlab o‘tgan yomg‘irdan boshqa osmondan biror tomchi tushmadi. Goho ko‘k yuziga bir-birini turtib, surib-sudraklab bahaybat, qop-qora bulutlar chiqar, qanchadir payt o‘zlarini tantanavor namoyish etishgach, ortlarida sovuq, muzdek havo qoldirib olis-olislardagi tog‘lar taraf bosh olib ketishar edi.

Qassobga yog‘, echkiga jon qayg‘usi deganlari chin ekan. Hamma yog‘in bo‘lmayotganidan nolib, ko‘kka umidvor termulib yurgan bir paytda, pochcham chala ishlarini chandalab, yana bir haftacha kun ochiq bo‘lsin-da, deb o‘zicha iltijo qilardi. Ikkovimiz qattiq kirishib to‘rt kun ichida tomni yopdik, xashak g‘arami ustini suv o‘tmas mato bilan qopladi.

“Sizlarning joylaringizdan bu yer yaxshi, suv mo‘l, chorvaga ham, dehqonchilikka ham qulay,— deb qoldi pochcham qaytar kunim, — oldimizga ko‘chib kelsalaringiz ma’qul ish bo‘lardi-da, avval ham enangizga aytgandim, ulim armiyadan kelsin-chi, maslahatlashamiz degandi”.

Mening tomsg‘imdan non o‘tmay qoldi.

“Ko‘chamiz?! Qayoqqa. Tanzilani tashlab-a?”
— degan o‘y meni darhol oyoqqa turg‘azdi. Hoziroq jo‘nab ketmasam, go‘yo ular meni umrbod ushlab qoladigandek, Tanzilani boshqa hech qachon ko‘rolmaydigandek tuyildi. Mening hovliqib, shoshib qolganimdan opam ham, eri ham hayron, taklifim yoqib tushdi, degan xayolda pochcham mammun iljayadi.

Hatto meni o‘zining “Moskvich” mashinasida shahargacha olib kelib qo‘ydi.

- To‘yga aytish esdan chiqmasin, — dedi u kulib.
- Hali erta, — dedim ichimni it tirnab.
- Qo‘rqmang, oz qoldi, — dedi u sho‘x-chan ko‘z qisib.

Ha, pochcham ham uncha-muncha avliyodan qolishmas ekan!

Qishloqqa keldim-u uyimizda boshlanib ketgan to‘y taraddudini ko‘rib bunga amin bo‘ldim. Onajonim quvonchdan o‘zini qo‘yarga joy topolmaydi, yangamning ham yuz-ko‘zi to‘la tabassum, akam bir gapirib o‘n kuladi. Xonadonimiz nurga, fayzga

to‘lib-toshib ketgan edi. Tafsilotlarni keyin eshitib bildim.

Men pochchamnikiga ketgach, ertasi kuni uyimizga Quvondiq aka odatdagidek gulduros solib kirib kelibdi. So‘ng akamni yetaklab to‘ppa-to‘g‘ri usta Abilnikiga boshlab boribdi. Mulla Mirzani ham allaqachon chaqirtirib qo‘ygan ekan. Raisimiz birdan masalani ko‘ndalang qo‘yibdi. Abilboy, bir farzandingizni ikkita qilgani keldik, bizning Norsoatboy sizning xonadoningizga munosib kuyov emas, o‘g‘il bo‘ladi, qizingiz Tanzilaoyga sovchilikka keldik, debdi. Mulla Mirza taomilga ko‘ra, bir-ikki kun muhlat bering, o‘ylashib, maslahatlashib ko‘raylik, deb tixirlik qilgan chog‘, Quvondiq qaysar xaxolab kulganicha, qariyaning ixchamgina jussasini bahaybat quchoqlariga olib, xushomad so‘zlardan aytib uni ham op-oson ko‘ndiribdi. Hatto raisimiz oshxonada karaxt turgan Tanzilanening yoniga borib, allanelardir deb, qizni bir qizartirib, bir kuldirgan emish.

– Shu kunning o‘zidayoq, kechki payt, bir qo‘yni so‘yib, oqsoqollarni chaqirib, ustani kida non sindirdik, to‘y maslahatini ham pishitib oldik, – deya hikoyasini yakunladi akam.

Men hayron-u lol edim. Quvonch-u hayajondan o‘zimni qo‘yarga joy topolmay, goh uyga kiraman, goh ko‘chaga chiqaman. Bir payt... bir payt hovliqqan ko‘yi kiyinishga tushdim va... taxtaday qotib qoldim! Axir, men... men xushxabarni yetkazish uchun Davronning yoniga shoshilayotgan edim! Yo, Xudo, bu qanday sir-u sinoat, o‘z shodligimdan o‘zim mast bo‘lib, do‘stimdan, aziz, yagona do‘stimdan ajralib qolganimni unutdimmi?

Men bo‘shashgan ko‘yi ko‘rpacha ustiga yalpayib qoldim.

Davron shu ketganicha qishloqqa qaytmadi. Mish-mishlarga qaraganda, men to'y taraddudi us-tidan chiqib qolgan o'sha kunlar u viloyat markazida, akasining uyida biqinib yurgan ekan.

Unashtiruv haqidagi xushxabar ham meni tinch-lantira olmadi. Men Tanziladan xavotirda edim. "Na-hotki, u op-oson rozi bo'lgan? Yo ota-onha qistovidan, raisning aralashuvidan noiloj ko'ndimikan? Yo'q, u bilan gaplashib ko'rishim kerak. Qilmishlarimni ochiq-oydin aytib, Tanziladan uzr so'rashim shart. Butun bir qishloqni nayrangimga jo'ngina ishontir-gandirman, lekin Tanzilani hech qachon aldamayman, alday olmayman! Men chimildiqliqqa yorug' yuz, toza yurak bilan kirishim kerak".

Shunday o'ylar silsilasida Tanzilaning shanba-yakshanba qishloqqa kelishini ham kutmay sha-harga otlandim. Ammo avtobusda tiqilib, tanish-bilishlarning ko'ziga ko'rinish, ular bilan gaplashib yu-rishga tob-u toqatim yo'q edi. Ko'nglim yolg'izlikni, beadoq xayollar og'ushida lazzatlanishni, o'rтанishni tusardi. Shu sababli katta trassagacha yayov chi-qishga, u yerdan biror bir ko'likka ilashib ketishga qaror qildim.

Oftob obdon artilgan askar tugmasiday yaltirab turgan iliqqina kun edi. Qarshimdan esgan yengil shamol qovjiroq o't-o'lanlar isini dimoqqa keltirib urardi.

Men shag'al to'shamali yo'l cheti bo'ylab ketark-anman nenidir, kimnidir unutib qoldirganday ortimga, atrofimga beixtiyor alanglab olardim. Sog'inchmi, in-tiqlikmi, yuragimdan zardobday sizib turardi.

Ana, izlaganim, ana! "Kengsoy burgutlari"ning muqaddas makoni hisoblanmish tutzor yonidan o'tayotgan chog'im men uni ko'rdim! Yovqur,

mag‘rur qiyofasi ko‘z oldimda jonlanib, o‘ktam ovozi, zavqli kulgilari quloqlarim ostida jaranglab entikib qoldim. Ammo u menga qaramadi. Jazava bilan silkinib yo‘l bo‘ylab keta boshladi. Men emrana-emrana ergashdim.

“Davron, kechir meni, do‘stim! Ketma, qishloqqa qayt, jo‘ra! Seni juda sog‘indim. Xuddi yarmim yo‘qday yuribman. Axir tomirimiz tutash deganding-ku, meni qanday tashlab ketasan. Senga aytar gaplarim ko‘p, do‘stim. Qaytsang, mayli, sen istaganday kechirim so‘rayman.”

Ammo Davron qayrilib ham qaramadi. Yerdan ko‘z uzmay, qo‘llarini asabiy to‘lg‘ab-to‘lg‘ab ketib borardi.

“Ey, shoshmagin, biroz to‘xtab gapimni eshit. Aslida hammasini o‘zing boshladning-ku, Tanzilani sevmaysan-ku, nega unga to‘satdan chippa yopishib olding, hayronman. Davron, kechir meni, o‘sha kuni boshqa ilojim qolmadni. Axir, sevgan qizimni op-oson birov larga topshirib qo‘ymayman-ku. Do‘stim, hozir menga juda-juda keraksan, sensiz xuddi paypaslanib yurgan ko‘rga o‘xshab qoldim. Davron, mayli, meni tepkilab tashla, suyaklarimni sindir, lekin yonimga qayt, do‘stim, yonimga qayt...”

Biroq u baribir qaytmadi. Qaylargadir singib yo‘qoldi. Men mashinalar signalidan cho‘chib atrofimga alangladim. Shahar! Ajab, ming bir xayol, ming bir iztirob-u tavba-tazarrular girdobida charx urib, qachon, qanday viloyat markaziga yetib kelganimni ham bilmay qolibman.

Shahar tund va parishon edi. Ko‘cha-ko‘y, bektalar odamlar bilan gavjum. Mashinalar u yon-bu yon chinqirib yeladi. Qurum ichidan, chirkin chiqindilar badbo‘yidan ko‘ngil ayniydi.

Tanzilalar o‘qiydigan texnikum shundoqqina katta yo‘l bo‘yida ekan. Aftidan dars payti bo‘lsa kerak. Temir panjara bilan o‘ralgan hovlida bir-ikki jonsarak yurgan yosh-yalangdan boshqa hech kim ko‘rinmaydi.

Men atrofimga alanglagan ko‘yi qo‘sh qavat, uzun binoning qo‘sh tabaqa, rangi uniqib, bo‘yoqlari ko‘chib qolgan kirish eshigiga yaqin bordim. Shu payt eshik sharaqlab ochildi-yu uch nafar qiz bir-birini turtib-surib, baralla kulishib tashqariga otolib chiqdi. Oldda kelayotgan, sarg‘ish ko‘ylak ustidan guldor jemper kiygan, qo‘lida bir just daftar tutgan qiz nogoh oyog‘imni bosib oldi.

– Voy, kechirasiz.

Qiz shunday deya yuzimga qaradi-yu taxtaday qotdi.

Men esa allaqachon unga angrayib qolgan edim.

– Tanzila?!

Menga bir lahza, bir lahzagina yuzlangan chehra behad suluv, behad jozibali edi! Manglayni qoplab turgan jingil-jingil soch tolalari, tip-tiniq yuz, qop-qora, qilichdek qoshlar, uzun-uzun kipriklar ostidagi hurkak ko‘zlar, hamma-hammasi, meni butkul sehrlab qo‘ydi. Bunday go‘zallikka erishish uchun necha-necha davronlarning qo‘li tugul, bo‘ynini ham qayirib yuborishga tayyorligimni ich-ichimdan his qildim, hatto, o‘zimni aybdor sanab yo‘l-yo‘lakay tavba-tazarru qilganimdan uyalib ketdim.

– Tanzila, men... sening oldingga...

– Nega keldingiz? – dedi qiz chimrilib. So‘ng ilkis burildi-yu qo‘lidagi daftarini yuziga tutib binoning orqa tarafiga yugurgilab ketdi. Men unga ergashdim. Ikki dugona ajablanib, qiziqsinib bizni andak kuza-tib turgach, o‘zaro ma’noli ko‘z urishtirib, kulishib

ko‘cha tomon ketdi.

Tanzila hovli to‘ridagi, o‘sinq butalar panasidagi suyanchig‘i siniq yog‘och o‘rindiqqa borib o‘tirdi. U daftarini yuziga bosgan ko‘yi silkinib-silkinib yig‘lardi.

– Tanzila, senga aytar gaplarim bor, – dedim qiz qarshisida sarosimalanib turarkanman.

U ilkis bosh ko‘tardi. Qop-qora ko‘zлari jiqli jiqqa yosh edi.

– Hamma gaplaringizni Quvondiq aka yetkazdi. Yana nima demoqchisiz?

– Men seni sevaman... jonimdan ham ortiq ko‘raman, – dedim botinmaygina uning yoniga o‘tirarkanman.

Tanzila daftar tutgan qo‘llarini tizzalari ustida qovushtirgan ko‘yi, qarshisidagi qip-yalang‘och atirgul butasiga termulib, lablari qimtinib unsiz yig‘larkan, sizib chiqqan g‘unchasimon ko‘z yoshlari bir lahzagini yonoqlarida turib qolardi.

Men qovushgan qo‘llar ustiga ohista qo‘limni qo‘ydim. O‘z dard-alamlari bilan andarmon bo‘lib qoldimi yo holi zabunimga achindimi, ishqilib, Tanzila meni siltab tashlamadi.

– Iltimos, ishon, – dedim vaziyatdan botirlanib, – seni juda qattiq sevaman. Seni hammadan, hatto, o‘zimdan ham qizg‘anaman.

Tanzila hiqillab, sho‘rqillab chuqur tin oldi.

– Bor-yo‘g‘i bir juft so‘z ekan-ku, men... men shuni besh yil kutdim. Besh yil-a... har uchrashganda yuragim qinidan chiqquday bo‘ladi, hozir aytadi, hozir aytadi, deb o‘ylayman, o‘zimcha bir kulib qochib ketishga chog‘lanaman.

– Besh yil deysan-a, ehe-e, tutzorda ikkimiz quvlashgandan beri men faqat seni o‘ylayman, kecha-yu

kunduz o'layman.

– Siz esa... – deb davom etdi Tanzila go‘yo gaplarimni eshitmay, – meni ko‘rsangiz otamning hol-ahvolini so‘raysiz, bobomni eslab qolasiz, bir darslarni muhokama qilasiz, bir etigim bilan qiziqasiz, boryo‘g‘i bir juft so‘zdan esa darak yo‘q.

– Tanzila... men sevgimni aytishga juda ko‘p urindim, lekin doim seni xafa qilib qo‘yishdan qo‘rqdim, menga boshqa ko‘rinmay qolsang, o‘lib qolardim, chin.

Qiz tegib-tegmay turgan barmoqlarim ostidan o‘ng qo‘lini tortib oldi-da, kafti bilan yuz-ko‘zlarini artdi va... bilibmi-bilmaymi, qo‘lini yana qo‘lim ustiga qo‘ydi! A’zoyi badanimga yoqimli bir titroq indi.

– Qaynilar ko‘pincha yangalar bilan sirdosh bo‘larmish, – deb pichirladi u, – biror narsa aytgansizmi deb Salima chechamning og‘ziga qarayman, qayoqda, zaris gapni ololmay, uyga muzlab qaytaman, balki, do‘sti bilan dardlashgandir, deb Davron akamga yukenib boraman, armiyada bo‘lgan paytlaringiz, unga ham juda ko‘p xat yozdim, javoblar ichidan, senga bir sirmi ochaman, do‘stimning dardi qattiq, degan so‘zlarini intiq izlayman, lekin umidlarim chil-parchin bo‘ldi.

Davronning nomi tilga ko‘chdi-yu, yuragimning bir chekkasida biqinib yotgan shilimshiq g‘ashlik yana buruqsib ko‘tarildi, hozirgina to‘lqinlanib turgan tuyg‘ular qaylargadir chekinib ketdi.

“Hammasini ochiq-oydin qilishim kerak, – deb o‘yladim ta‘bim tirriq tortib, – aybimni tan olishim, kechirim so‘rashim shart, erta-indin kech bo‘ladi”.

Tanzila bir nuqtaga tikilgan ko‘yi xuddi o‘z-o‘ziga gapirganday hanuz o‘pka-gina qilardi.

– Hammasi boshqacha bo‘lishini kutgandim, ming

xil orzular qilgandim, endi o‘ylab ko‘rsam, g‘irt sodda, tentak, xayolparast ekanman, nimalarni tasavvur etganimni eslasam, hozir ham uyalib ketaman. Domlaning to‘yi kuni... – qiz ortiq gapirolmay, shartta qo‘limni siltab tashladi-yu daftari bilan yana yuzini bekitdi.

– Tanzila, – dedim yurak yutib, – meni kechir, hammasi uchun kechir, ayniqsa, o‘sha voqealar uchun alohida uzr so‘rayman, aslida hammasini Davron boshladi.

– “Davron boshladi” deysizmi, – Tanzila daftarini tushirib, yana qip-yalang‘och atirgul butasiga xayolchan tikilib qoldi.

– Ha, hamma qilg‘ilikni u boshladi.

– Aytdim-ku, g‘irt tentak, xayolparastman deb. Davron biror nojo‘ya gap aytgan bo‘lsa, meni himoya qilib chiqqansiz, deb o‘z boshimga quvoniblar yuribman-a... Hatto, o‘qishdagi dugonalarimga ham maqtanib qo‘yibman.

Bilmadim, qanday epladim, bu gal gapimni darrov o‘nglab oldim.

– To‘g‘ri, to‘g‘ri o‘ylapsan, chindan ham Davron bir-ikki noma‘qul gapirgandi, ikkovimiz janjallashib qoldik. Keyin... kurashadigan bo‘ldik.

Qiz indamay, o‘qtalgan nayzaday shox-shabbalariga xayolchan termulib turaverdi. Nazarimda u, xiyonatkorona qilmishimga iqror bo‘lishimni ilhaq kutardi.

– Tanzila, – dedim yana yurak yutib, – men... men seni aldayolmayman, to‘g‘risi, pok muhabbatga yolg‘on aralashishini istamayman.

Qiz hurkak ko‘zlarini jovidiratib, uzun-uzun kipriklarini pirpiratib yuzimga xavotir bilan qaradi.

– Tinchlikmi?

– Men... o'sha kuni g'irrom kurashdim, nomardlik qildim...

Tanzila yana daftarini yuziga tutdi. yelkalari, soch turmamlari silkina boshladi. Men uning uvvos tortib yig'lab yuborishini kutgandim. Ammo...

– Nima, men g'irromchilikka arzimaymanmi? – deb sharaqlab kulib yubordi u, – halol kurashganin-gizda ikki qo'lni burunga tiqib qolib ketardingiz-da.

– Men... nomardman...

Shu payt... shu payt Tanzila nogoh yelkamga boshi-ni qo'ydi. Go'yo shundoqqina ko'z oldimda rangin-rangin kapalaklar qanot yoyib yuborganday bo'ldi. Men ularni cho'chitib yuborishdan, qaltis qimirlab birortasini bexosdan ezib qo'yishdan qo'rqib, na-fasimni ichga yutgancha taxtaday qotdim.

– Qo'rwmang, – deb pichirladi qiz, – men na Oy-barchinman, na malika Diloromman... o'sha Davroningiz ming ma. 1 mardlik pesh qilsayam baribir unga tegmasdim.

Tanzilaning so'zları deyarli qulog'imga kirma-di. Uning ko'ksim tomon egilgan boshi tanish, juda tanish manzarani esimga solar, o'sha bolalik, o'sha tutzor, bolalar qiy-chuvidan cho'chib men tomon tal-pingan qizaloq ko'z oldimda jonlanar, xuddi o'sha lahzadagi kabi o'zimni mard, jasur his etib, tanish, juda tanish tuyg'ulardan boshim mastona aylanar edi.

– Tanzila... jonom... jahonim...

– Men siz uchun yaralganman, – deb pichirladi qiz, – bunga o'sha tutzor bo'yidayoq ishonganman.

– Biz bir-birimiz uchun yaralganmiz.

Men qizni ohista quchog'imga tortdim.

Biz Absal polvonni unutgan edik.

Qish o'tib, bahor endi bo'y ko'rsatgan kunlarning birida, Tanzila amaliy mashg'ulotga chiqib, qishlo-

g‘imiz maktabiga qatnab yurgan paytlari ikkimizning nikoh to‘yimiz bo‘lib o‘tdi. To‘yga yana Quvondiq qaysarning o‘zi bosh-qosh bo‘ldi. Shahardan mashhur hofizlarni chorlatdi. Davron o‘sha-o‘sha ketgan ko‘yi qishloqqa qaytib qadam bosmadi. Poytaxtga borib, u yerda qandaydir tayyorlov kursida tahsil olayotgani haqidagi gap-so‘zlar qulog‘imga chalindi. Quvondiq akaning xotirjam qiyofada, hamishagidek guldirab yurishi ham o‘g‘li masalasida hech bir muammo yo‘qligidan darak berardi.

Men do‘stimdan ayrilib qolgan edim! Muhabbat mojarolari tinib-tinchib, ertak erkalaridek murod-maqсадимга yetgan bo‘lsam-da, ko‘nglim g‘ash, ruhim bezovta edi. Nogoh noyob narsani sindirib qo‘yib, kattalarning muqarrar jazosini kutayotgan bolakayday jovdirardim. Yo‘q, yo‘q, gavjum joyda ishtoni yirtig‘ini yashirishga behuda urinayotgan nodon dovdirga o‘xshardim. Faqtgina Tanzilaning sevgi-muhabbatga limmo-lim qarashlari, baxt ufurib turgan iforlari, sirli shivir-shivirlari vaqtinchalik og‘riq qoldiruvchi malham kabi meni ovutar, yorug‘lik va‘da qilar, yuragimga taskin berar edi.

Ayniqsa, tantanali to‘yimiz kuni Davronning o‘rni juda-juda bilindi. Garchand biqinimda G‘iyos kuyovo‘ra sifatida g‘o‘ddayib turgan bo‘lsa-da, o‘zimni tubsiz jar labida his qilib, yonimga qarashga ham botinmay beixtiyor kelinning pinjiga tiqilar edim. Mening talpinishlarimni o‘zicha tushungan Tanzila uyalib, sarosimalanib tirsagimga turtib qo‘yardi. To‘y dasturxonidan bosh ko‘tarmay yeb-ichayotgan mehmonlar, nazarimda, istehzo, piching bilan pichirlashayotganday, qo‘llarini bigizday nuqib, do‘stiga xiyonatkor, nomard nusxa sifatida meni malomat qilayotganday tuyilardi. Hatto teng-to‘shlarim

o'tirgan tarafdan Davron nomi bir-ikki tilga olin-gandek, kimlardir men tomonga tirjaygancha tikilib qo'ygandek bo'ldi.

Asal oyining totli-totli kunlari ham menga tatimadi. Asal oyi ham yuragimdagi zahr-u zardobni bosolmadi. Men, nihoyat, qat'iy qarorga keldim. Toshkentga borib, Davronni topib, u istagan shart bo'yicha kechirim so'rashga ahd qildim. Bag'rim qonidan qizargan shomlarning birida, do'stimning manzilini bilish ilinjida Quvondiq akaning darvozasiga ko'ndalang bo'ldim. Tuyqus ichkaridan qattiq-quruq tovushlar eshitildi.

"Bolaginamni yuz-xotir qilmadingiz, avval-u oxir o'zingiz bosh-qosh bo'lib anovi yetimchaning qo'yninga solib qo'ydingiz".

"Atay shunday qildim deyapman-ku senga, xotin, kelib-kelib bir tashlandiq, asrandi qizni o'g'limizga ravo ko'ramanmi? Na otasining tayini bor, na onasining. Mening ham chapga-o'ngga besar-besar yurgan paytlarim ko'p edi. Aytib bo'ladimi, bu qizning bino bo'lishiga hissa qo'shgan bo'p chiqmayin tag'in. Shuytib bu masalani tezroq bir yoqli qilayin, Davronning ko'ngli bo'lsa, ko'nglini sovutayin dedim".

"Bemaza gaplarni qo'ying. Boyagi aytganim qachon bo'ladi. Davronjonimni sog'inib ketdim, bolam bechora shuning dastidan uyga kelolmayapti".

Men oyoqlari ostida nogoh ilon ko'rib qolgan yo'lovchiday bir zum karaxt bo'lib qotdim-u, so'ng asta-asta tisarilib katta ko'chaga chiqib oldim.

Qishloq shomning kirchil, xira pardasiga burkan-gan edi. Ko'm-ko'k osmon mag'zava to'la tog'oradek boshim uzra chayqalib turardi. Qay bir hovlidan go'ng, chirkin xas-xashak hidi anqiydi.

Men yag‘riniga achchiq-achchiq qamchi tushgan qirchang‘iday uyimiz tomon chopib ketdim. Baland-past imoratlar, dov-daraxtlar ko‘z o‘ngimda charx urib aylanardi. Bir paytlar mol dorigan ekinzori yoq-qqa pochchamning shunday talvasa bilan yugurganini ko‘rganman. Bir mahallar tog‘ etagidagi qishlog‘imizda sel yo‘lida qolib ketgan qo‘y-qo‘zilarini haydash uchun shu taxlit quyunday qo‘zg‘algan qo‘srimizni eslayman. Mening esa qarovsiz qolgan na polizz-paykalim, na mol-holim bor edi. Men Tanzilamning, mohitabonimning, jon-u jahonimning oldiga yeldek yelib borardim! O‘y-xayolimda u hozirgina ichkarida sha’niga aytilgan noloyiq, noma’qul so‘zlarni eshitib qolgandek, bir qorong‘u burchakka qisilib, zor-zor yig‘lab o‘tirgandek tuyilar, uni tezroq bag‘rimga bosib yupatgim, sassiq g‘iybatlardan, balo-qazolardan tog‘day turib qo‘riqlagim kelar edi.

— Tanzila, Tanzila! — deb qichqirdim hansirab, hovliqib hovlimizga kirib borarkanman.

O‘choqboshida kuymalanib yurgan ikki oylik go‘zal kelinchak xavotir bilan qarshimga otilib chiqdi.

— Labbay.

— Ichkariga kirgin, gap bor.

Tanzila taajjublangan ko‘yi peshbandiga qo‘llarini arta-arta izimdan ergashdi. Ikkovimizga ajratilgan xonadan ohorli liboslarning, atir-upalarning xush ifori ufurib turardi.

— Nima deysiz? Tezroq bo‘la qoling, ishlarim ko‘p,

— dedi yap-yangi xotinim tantig‘lanib.

Men gap-so‘zsiz uni quchog‘imga tortdim-u yuzko‘zlaridan yutoqib o‘pa ketdim.

— Voy, nima qilyapsiz? — dedi Tanzila taajjub va noz aralash bir tovushda, — mastmisiz, nima balo?

– Ha, mastman, ishqingdan, sevgingdan mastman. Tanzila, jon-u jahonim, seni ko‘zim qorachig‘iday as-rayman, qayg‘udan bir tomchi ham yosh to‘kishingga yo‘l qo‘ymayman. Sening sha’ning mening sha’nim...

Quchog‘imdan amal-taql bo‘shagan xotinim sochlarmi siladi.

– Nega bu gaplarni gapiryapsiz, bilmadim-u... lekin men sizga juda qattiq ishonaman!

– O‘sha tutzordagi kelishuvimiz esingdami?

– Esimda, – deb sirli shivirladi Tanzila, – Seni hamisha himoya qilaman, qochsang birga qochamiz degandingiz. Xuddi kechagidek esimda...

– Unda... qochamiz!

– Qochamiz?! Qayoqqa?

– Bu yerlardan bosh olib ketamiz.

– Voy, enamlar-chi, chechamlar...

– Ularni ham olib ketamiz.

– Siz dunyoning narigi chekkasiga boshlasangiz ham men tayyorman. Axir, ikkimiz bir jon-u bir tanzim-ku, shundaymi?

Men javob o‘rnida xotinimni bo‘salarga ko‘mib tashladim.

– Ena, opamlarning oldiga endi ko‘chib boraversak ham bo‘lar, – deb gap boshladim o‘sha kuni kechki ovqat payti, – mana, to‘y ham o‘tdi.

Onajonimning ko‘zlarida quvonch paydo bo‘ldi.

– Chin aytasan, bolam. Quvondiq akaning oldidayam ko‘p besaranjom bo‘p qolyapman.

Akam va yangam ham o‘zaro ko‘z urishtirib, bosh irg‘ab qo‘yishdi.

Oradan bir oycha o‘tib biz Kengsoyni tark etdik. Bir paytlar Quvondiq qaysar xushxandon qarshi ol-gani kabi pochcham ham oilamizni quchoq ochib kutib oldi. Shaharga ko‘chib ketgan bir shoirtabiat ki-

shining keng-mo'l hovlisi biz uchun hozirlab qo'yilgan ekan. Bu yerdagi shart-sharoitlarni ko'rib ham-mamiz xursand bo'ldik. Pochchamning mehnatkashligi, tadbirkorligi, opamning ham undan sira qolish-masligi jonimizga aro kirdi. Akam yana garajga ishga joylashdi. Yangam ikkisi olamshumul rejalarни tuzgan bo'lishsa kerak, turmushning yana eski hammom-eski tos, tarzida davom etishidan andak ranjishdi.

"Normurodboy, ko'p tajanglashmang, – dedi poch-cham sirli iljayib, – siz hozircha shu yerga ilashib turing, hali zo'r gap bor".

Men opamning yoniga, qishloqdagi hayhotday, ammo ichida sotishga arzigulik moli yo'q magazinga ishga kirdim. Tanzila shundoqqina uyimiz qarhisidagi maktabga boshlang'ich sinf muallimasi sifatida o'mashdi.

Biz Kengsoydan ko'chish tashvishlari bilan chopa-chop qilib yurgan kezlarimiz Uldon checha va usta Abilning qovoq-tumshug'i osilib ketgan edi. Il-gari ham ma'lumu mashhur rais bilan quda bo'lish-dek baxtdan ayirgan Qorabotir sifatida meni unchalik xushlashmas, shu barobarida, arzanda qizning ko'ngil mayliga qarshi borisholmas, qisqacha aytganda, yonib-yonmay, o'chib-o'chmay, ho'l o'tindek tutab yurishardi. Ko'chib ketishimizga ham tishni-tishga bosib arang rozi bo'ldilar.

Tanzila! Mening Tanzilam, mening mohitobonim esa o'zga bir dunyo edi! Mulla Mirza aytganday, chindan ham eni boshqaga o'xshardi uning! Quvondiq qaysarning darvozasi yonidan gangib, o'rtanib, justi halolimni yupatish, himoya qilish niyatida hovliqib uyga kelganimda, qandaydir noxushlik yuz bergenini u ham gap-so'zsiz, hech bir izohsiz angladi. O'shanda men Tanzilani emas, sochlarmi silagan ko'yi Tan-

zila meni ovutdi, rejalarimga dalda bo'ldi, ko'chish mashaqqatlariga ham matonat bilan bardosh berdi, bir og'iz ham nolimadi, norizo chimirilmadi. Kirishim-liligi, xushmuomalaligi uchunmi, yangi makon tutgan joyimizda ham qo'ni-qo'shni, mahalla-ko'y bilan tezgina til topishib, apoq-chapoq bo'lib ketdi. Hatto, ish masalasini ham boshqalarning aralashuvisiz, o'zi op-oson hal qildi-qo'ydi. Nazarimda, u menga emas, tobora men Tanzilaga suyanib, cheksiz mehr-muhabbi ostidan panoh topib borardim.

Biz yangi manzil-makonimizga shu taxlit asta-sekin ko'nika boshladik. Kunlar ketidan kunlar, oylar ortidan oylar shitob bilan o'tardi.

Men baribir bu yerda ham halovat topmadim. O'zimni jang maydonini tashlab, sharmandalarcha qochib qolgan askardek his qilar, Kengsoyda o'ta muhim, o'ta zaril allanelarnidir unutib qoldirganga o'xshar edim. Nazarimda, u yoqda hamma nomard, g'irrom polvon sifatida meni masxaralab, ustimdan qotib-qotib kulib yotganday tuyilar, og'ir, ezgin xayollar iskanjasida o'zimni qo'yarga joy izlab qolardim.

Shu orada Davronning universitet talabasi bo'l-ganligi, kurash bilan hamishagidek hormay-tolmay shug'ullanib yurganligi haqidagi gap-so'zlar qulog'imga chalindi. Yana bir qancha muddatdan so'ng, jiddiy bir musobaqaning g'olibi sifatida uning nomi ham radioeshittirishda tilga olib o'tildi.

Bu paytlar men kurashlardan xiyla sovib qolgan edim. Davralarga, maydonlarga yaqin borishga qandaydir qo'rquvmi, uyatmi monelik qilardi. Tomosha-talablarning tiyiqsiz qiyqiriqlarini eshitishga tob-u toqatim yo'q edi. O'zimni tirikchilik tashvishlari bilan ovutishga zo'r berib urinar, ko'cha-ko'yda, da-

la-dashtda dalli-devonalarcha kezinib, holi zabunimni o'nglashga o'zimcha chora-tadbirlar izlardim. Izlay-izlay dilgir kunlarning birida kallam to'qillab sharob shishasiga urildi. Hash-pash deguncha ichkilikbozga aylandim. Shirakayf chog'larim bepoyon paykal chekkalarida yolg'iz kezish jonu dilim edi. Zovur yo-qasidagi tuproq uyumi ustida mag'rur o'tirgan Davronni ko'rardim.

"Quyosh hali botmagan!" – deb qichqirardim havoga musht o'qtalib.

Ammo do'stim javob bermas edi.

"Javob bermaysan-a, javob berishni istamaysan-a, – derdim xo'rligim toshib, – mening quyoshim al-laqachon botganini bilasan-da, shundaymi?"

Davrondan hech bir sado chiqmaydi. Men hiqillab yig'layman. Aytib-aytib bo'zlayman.

"Aytganing chin ekan, do'stim, polvon pirlari meni qarg'ashdi, meni duoibad qilishdi. Yuragimga hech tuzalmas jarohat orttirib oldim. Uning og'rig'ini, azobini o'zginam bilaman, kechalar to'lg'onib chiqaman, Davron! Bu dardimning davosi sening qo'lingda, do'stim. Kel, oyoqlaringga bosh uray, istagan shartingga ko'nayin, faqat meni tezroq qutqar!"

Tuproq tepe ustidagi sharpadan yana sado bo'lmas edi. Men alam-iztirobdan tutoqa boshlardim.

"Seni zo'r bo'p ketgan deb eshiddim. Kel, zo'rilingnini ko'rsat, meni chavaqlab tashla, majaqlab anovi zovurga uloqtir! Shunda ko'ngling to'ladimi, do'stim?"

Men behol o'tirib qolaman. Davron ham asta-sekin ko'z oldimdan yo'qoladi. Qishloqqa qaytaman. Magazinga yashirib qo'ygan arog'imdan bo'kib-bo'kib ichaman. Devor-u tomlar, ko'cha-ko'y, dov-daraxtlar ko'z oldimda chirpirak aylana boshlaydi. Qaylarda-

dir yiqilib qolaman, yana turib, amal-taqlal uyga yetib olaman.

Tanzila mening ichkilikka berilib qolganimni zo'r berib onamdan yashirishga urinar, tunlari uyga qaytgunimga qadar darvoza yonida dardisar erni kutib o'tirar, mast-alast sharpam paydo bo'ldi deguncha, loshimni sudraklab, imi-jimida yotoqqa kirgizib olar, bosh-adoq yuvib-chayib ko'rpaga o'rab tashlar edi.

Biz Absal polvonni unutgan edik.

Yangi manzil-makonga ko'chib kelganimizning ikkinchi yili Tanzila ko'hlikkina qizaloq tug'ib berdi. Boshim ko'kka yetdi. Oilamiz quvonchga ko'mildi. Ammo men hanuz sharob shishasi bilan oshno edim. Kunora bo'sag'ada chayqalgan ko'yi paydo bo'ladim.

Qishning uzun tunlaridan biri edi. Kechki payt qishloqdag'i bir-ikki bekorchixo'jalar bilan qarta o'ynab, aroq ichib uyga qaytdim. Tanzilam odatdagidek bir og'iz ham e'tiroz bildirmay, biror marta ham norizo chimirilmay meni o'mimiga yotqizib qo'ydi. Hamishagidek dong qotib qoldim. Bir payt... tush ko'rdimmi yo qandaydir alomat zohir bo'ldimi, bilmadim, tutzor bo'y lab chopib borayotgan qizaloq, qah-qah otib kulganicha uni quvlab borayotgan Quvondiq qaysar ko'z oldimdan lip-lip o'tdi. Iya, Tanzila-ku, uni qutqarishim kerak, uni himoya qilishim shart, dedim o'zimga o'zim. Qiziq, ko'zim ochiq, fikrim tiniq edi! Qo'rqa-pisa boshimni yostiqdan ko'tardim. Tunchiroqning sarg'ish yog'dusida hujramiz g'ira-shira yorishib turardi. Nogoh qulog'imga sho'rqiillagan yig'i sasi eshitildi. Avvaliga ishonmadim. Nafasimni ichimga yutib, taxtaday qotdim. Chindan ham xonamning bir burchidan yig'i sasi kelardi. Ilkis o'mimdan turib tovush kelgan tarafga qaradim.

Tanzila! Mening Tanzilam, mening mohitobonim, mening jon-u jahonim bir burchakka qisilib, bir paytlar, raisning darvozasi yonidan o'rtanib qaytgan chog'imda tasavvur qilganimdek unsiz, kuyinib yig'lab o'tirardi.

– Tanzila, jonim, senga nima bo'ldi? – deb so'radim uning yoniga borib, – mazang yo'qmi?

Xotinim kaftini yuziga bosib ho'ngrab yubordi.

– Ha, mazam yo'q, kasalman. Ichim kuyib ketgan. Xo'sh, nima qilib bera olasiz? Qo'lingizdan nima keladi o'zi?

– Sen uchun o'lishga ham tayyorman.

– O'lmafsiz, birov uchun o'lomafsiz, – dedi Tanzila ko'z yoshlarga qorishib yuzimga tik qarar ekan, – boshqalarni tiriklay ko'mishni bilasiz faqat.

Xotinimning ketma-ket otilgan o'qday so'zlari aniq nishonga tegdi. Men kalovlanib ko'rpa chaga o'tirib qoldim. Haq e'tiroz oldida tilim lol edi.

– Sen uchun g'irromlik qildim deganingizga ishonib yuribman-a, – dedi Tanzila ko'z yoshlarini yengiga artib, – siz faqat o'zingizni o'ylagansiz, yiqilib, sharmanda bo'lishdan qo'rqqansiz.

– Xudo haqqi...

– Xudoni aralashtirmang, – deb ojizona boshlagan e'tirozimni shartta bo'ldi u, – siz aytganday bo'lsa, mana, men, murodingizga yetdingiz-ku, yana nima kerak?

– Ochig'i... baribir ko'nglim g'ash, jonim, dilim vayron. Xuddi bir iflos o'rqa tushib ketganman-u... hech toza bo'lolmayapman.

– Shuning uchun aroqqa cho'milyapman deng...

– Istehzo qilma, iltimos.

– Aroqxo'rlik muammoni hal qilmaydi-ku, erkak bo'lsangiz, hammasini erkakcha hal qiling.

Xotinimning talabini o'zimcha tushunib yuragim shuv etib ketdi.

– Nima?! Qanday qilib?

– Davrondan qayeringiz kam? Siz ham shug'ullaning, mashq qiling, sal kam bekorchisiz-ku, keyin uni biror davrada toping-da ko'tarib yerga uring, ikkinchi men zo'rman deb bo'kirmaydigan qiling. Masalaning yechimi shu.

Tanzilaning tarsakiday tarsillagan so'zlaridan nogoh ko'zim charaqlab ochilganday bo'ldi.

"Ha, mulla Mirza haq, eni boshqa buning, oqilaginam, shugina oddiy yechimga ham aqlim yetmabdi-ya mening", – degan o'y xayolimdan lip etib o'tdi.

– Jonim, meni kechir, – dedim unga yosh boladay suykalib, – endi sira ichmayman, sen aytganday qilaman.

Tanzila xuddi o'sha ko'chish arafasidagi kabi sochlarimni silab meni ovutdi, oqilaligi, mehri panohiga oldi.

– Aroq odamni adoi tamom qiladi. Hech qursa, qizimizni, onangizni o'ylang. Bunday ojiz bo'p yurish sizga yarashmaydi. Siz mening mardimsiz, himoya-chimsiz, tog'day suyanchig'imsiz. Quyosh hali botmagan, esdan chiqarmang.

O'sha tun men onadan qayta tug'ilganday bo'ldim. O'sha tun ertak qahramonlaridek bir dumalab alp qomat bahodirga aylanib qoldim.

Yupanch, ovunch, taskin va ilinj sharpalariga qorishib kunlar, oylar, yillar o'tdi. Biz er-u xotinning o'sha tundagi ahdimiz, shahdimizga go'yo qasd-ma-qasd poytaxtdan bir-biridan shov-shuvli, bir-biridan hayratlanarli xabarlar kelardi. Davronning kurash bo'yicha avval O'zbekiston, keyinroq Osiyo chempioni bo'lganligi haqida eshitdik. Gazeta-yu jurnallarda,

televizor-radiolarda uning nomi tez-tez tilga olinadi-gan bo‘lib qoldi. Hatto bir gal Davron Tirkashevning viloyatimizga tashrif buyurib, mehnatkashlar bilan uchrashuvlar o‘tkazgani to‘g‘risida axborot beruvchi telelavhani o‘zim ham ko‘rdim. O‘sha-o‘sha, o‘ktam qiyofali, burgut nigohli kengsoylik polvon kazo-kazo rahbarlar orasida baxtiyor jilmayib turar, yosh-u qari unga havas-u hayrat bilan termular edi. Men ekran qarshisida baqaday baqrayib o‘tirarkanman, yo‘qtgan do‘stimni sog‘inganimni, juda-juda sog‘inganimni yana bir karra his etdim.

Bu yoqda Tanzila ham bo‘sh kelmadi. Yana bitta qizaloq tug‘ib berdi. Ustiga ustak, viloyat markazidagi pedagogika institutini sirdan amal-taqal bitirib, maktab direktori o‘ribbosari lavozimini egalladi. Ro‘zg‘orning ham o‘tidan kirib kulidan chiqadi. Eng muhim, vaqtı-vaqtı bilan boshimni silab meni ovutadi, yupatadi, mehr-muhabbati ostidan panoh beradi.

Men xotinim o‘g‘il tug‘sa-yu, sog‘inchim, sado-qatim, tavba-tazarruim timsoli sifatida Davron deb bolamga ism qo‘ysam degan orzuda emranib yurardim. Ammo bir kuni Tanzila qizalog‘imni qo‘limga tutqazarkan:

– O‘g‘il ko‘rsam, otini Po‘lat deb qo‘yamiz, – dedi xuddi ichimdagini payqaganday, – po‘latday mustahkam, chidamli odam bo‘lsin, otasiga o‘xshab mo‘rt, idragan narsa bo‘lmasin.

Tanzilaning chin-hazil aytganlaridan mening tag‘in bo‘shashib, tob tashlay boshlaganimdan ogohlantirish, hali-hali urush so‘qmog‘ida ekanligimni yana bir karra uqtirish shundoqqina silqib turardi.

“Ha, mulla Mirza haq, buginaning eni boshqa”, – deb o‘ylayman xotinimning qat’iyat qalqqan go‘zal chehrasiga zavq bilan termulib.

O'sha tungi ahdu paymondan so'ng ichkilikbozlikni tark etgan bo'lsam-da, ammo Tanzila tayinlagan mashq-mashg'ulotlarni muntazam olib borolmadim. Ustiga-ustak, Davron quchgan shon-shuhratning o'ziyoq har gal xayolimga kelgan mahal, xotinimning iborasi bilan aytganda, meni ko'tarib yerga urar, ruhimni sindirar, da'volardan voz kechishga undar edi. Bir necha marta pochcham qo'yarda-qo'y may davraga tushirdi. Mayda-chuyda polvonlarni yiqitib, xuddi olamshumul vazifani uddalaganday xotinimning huzuriga mag'rur kirib keldim.

Bir kuni negadir tushimga Karamxon eshon bova kirdi. To'xtasin domlaning o'sha chorpoyasidami, yo o'sha kungi kurash davrasidami, oppoq liboslarga burkanib, mamnun bosh irg'ab o'tiribdi.

"Hammasi yaxshilikka, hali hammangiz ko'p xursand bo'p qolasizlar" – der emish, xuddi o'sha kungi gaplarini takrorlab.

Cho'chib uyg'onib, g'alati bir hislar og'ushida ancha payt o'tirib qoldim. Nonushta payti tushimni onamga aytib berdim. Onam o'zicha eshon bovani g'oyibona tavof qilib menga yuzlandi:

"Eshonimizga bir qo'chqor atab qo'ygin, yo'lla-ring tushganda tashlab kelasizlar".

Vaqt shitob bilan o'tar, zamon, davr kundan kunga o'zgarib borardi. Bir paytlar davlat mulki sanalmish imoratlar, qurilmalar, texnikalar zari-zo'ri bor odamlar o'rtasida taraka-taqsim qilina boshlandi. Sovxoz, kolxozi degan tuzilmalar o'rnida katta-kichik fermer xo'jaliklari tashkil etishga kirishildi. Zamona boylari, zamona zo'rlari bo'y ko'rsatib qoldi.

Biz yangi manzil-makonga ko'chib kelgan chog'larimiz akamni garajga, meni qishloq magaziniga ishga joylagan pochcham o'sha paytlardayoq

uzoqni ko‘zlab reja tuzgan ekan. Keyinchalik, garaj mudiri lavozimini egallagan akam pochchamning yo‘l-yo‘riqlari, qo‘llab-quvvatlashi sharofatidan bu hayhotday imoratni o‘z nomiga xatlab mulkdor toifaga aylanib oldi. Keng-mo‘l, mustahkam qishloq magazini esa opamning xususiy do‘koniga do‘ndi. Men ham tala-to‘pda quruq qolmay kattagina unum-dor yer maydoniga fermer sifatida ega bo‘lib oldim. Pochchamning o‘zi esa tuman hokimiyatiga ishga o‘tib ketdi.

Kengsoy tomonlarda ham torta-tort, ola-ol avjida ekan. Oxir-oqibat, taqdirga tan bergenidanmi yo ketma-ket, bir-biridan shirin ikki nevaraga bobo bo‘lganidanmi, ishqilib, xiylagina chehrasi ochilib, xushmuomala bo‘lib qolgan qaynotamning kuyinib, g‘ijinib aytishicha, eski shirkat xo‘jaligini Quvondiq qaysar bus-butunicha yana o‘z qo‘liga olibdi. Shahardagi katta o‘g‘li qishloqqa ko‘chib borib, sug‘orishga o‘ng‘ay, eng unumdar yerlarni egallab, kuni kecha otasinikidan osh-ovqat tashib yurgan noshud nusxdan boy-badavlat ishbilarmonga evrilib, kekirib, bosar-tusarini bilmay yurgan emish. Quvondiq qaysar-ning shuncha obro‘-e’tibori, kuch-qudrati yetmagan-day, Davronning ham shon-shuhrati, izzat-hurmati qo‘shilib Tirkashevlarining hatto pishagini ham birov pisht deyolmay qolibdi.

Men Davron haqidagi har bir xabarni, har bir mish-mishni nafas olmay eshitardim. Bunday jonsarakliklariimda shoyad u meni kechirgan bo‘lsa, degan ilinj-umid miltillabgina turardi.

Bir kuni shaharda Shayxalini uchratib qoldim.

– Davron shishingandan-shishindi-da, – dedi u gapdan-gap chiqib, – allatovur qop-qora mashinada uch marta qishloqqa kelib ketdi. Kattakonlar atrofi-

da xizmatkorday chirqillab aylanadi, birligina so'ziga mahtal. Lekin baribir oqibatli jigit Davron. Ko'p qishloqdoshlarning mushkulini oson qilib berdi.

Eh, mening mushkul-muammoim-chi?! Bu qachon bartaraf bo'ladi, qachon? Tanzilaning tinimsiz ta'lim-tarbiyalariga qaramay, askar badanida qolgan qo'rg'oshin parchasiday, yuragimdag'i dard-iztirob o'qtin-o'qtin qo'zg'alib meni bezovta qilar, yana dunyo ko'zimga qorong'u ko'riniq qolar edi. Shunday kezlar ekin-tikinni bahona qilib dala-dashtimga chiqib ketaman. Polvon pirlariga tavallollar qilib tavbalar qilaman. Qiziq, shunday paytalar yana o'sha ko'rgan tushim, eshon bovamning aytganlari, hammasi yaxshilikka, deganlari yodimga tushib allanechuk taskin topgandek bo'laman. Yuragimda umid, ilinj, ishtiyoq yana tirila boshlaydi.

Biz Absal polvonni mangu yo'qotib qo'ydik.

Iliq bahor kunlarining birida Absal polvonning o'limi haqidagi sovuq xabar bizga ham yetib keldi. Birdan o'yinchog'i yashirib qo'ygan joyida yo'qligini bilgan bola ahvoliga tushib, ko'z oldimni kirchil bir parda qopladi, uy-imoratlar, dov-daraxtlar qaylargadir singib-yitib, bo'm-bo'sh bo'shliq ichida yeli chiqqan pufakdek muallaq qotdim. Pochchamning "Neksiya" siga o'tirib peshinga mo'ljallangan dafn marosimiga ulgurish uchun shosha-pisha yo'lga tusharkanmiz, tevaragimdagilar jonsiz bir sharpalardek tuyilar, tovushlar, yig'ilalar, kulgilar olis-olislardan eshitilar edi.

Shu yil bahor haddan tashqari seryog'in, injiq va sertashvish kelgan edi. Sel-toshqinlar, shilta-shalabbolar, loy ko'pchigan dalalar hatto, hamisha qor-yomg'irga tashna cho'lliklarni ham butkul bezor qilib yubordi. Omonat devorlar quladi, ilma-teshik tomlardan suv sizib o'tdi, qadalgan urug'lar chiridi,

eng yomoni, chigit ekish ishlari kechikib ketdi. Kuni kecha cho'1 osmonini tilkalab chaqmoq chaqqani, qaerlargadir do'1 yoqqani ham rost. Demak, ustoz Abdusalomning qazosi haqidagi mish-mishlarda ham jon borga o'xshaydi. Kimdir uni yashin uribdi desa, tag'in birov do'lida qolgan ekinzoriga achinib sibizg'a chalib o'tirgan yerida jon beribdi, deya sirli pichirlardi.

– Eh, bu dunyoning ishlari, – deb afsus bilan bosh chayqadi pochcham, mashinasini katta yo'1 bo'ylab yeldirib borarkan, – shunday odam ham qazo qilib-di-ya.

Orqa o'rindiqqa yastanib olgan akam tili tagiga nosvoy tashlashga chog'langan ko'yi gapga aralashdi.

– Shu... Absal polvonlarga yetarli shart-sharoit qilib berilganda dunyoning o'n karra championi bo'-lardi-yov.

– Bu kishi unday shov-shuvlarga umuman qiziqmagan, – dedi pochcham keskin bosh chayqab, – ovloq-ovloq yashashga intilgan, bir mulla, Absalom akani polvon pirlari shunga undagan deb aytgandi, gaplari chinga o'xshaydi.

Men mashina oynasidan qo'ng'irtus, polvoning keng yag'riniday yastanib yotgan dala-dashtga o'ychan tikilaman. Alpqomat ustoz, uning tog'dek tebrana-tebrana sibizg'a chalishlari lip-lip ko'z oldimdan o'tadi, donishmandlarga xos gap-so'zları quloqlarim ostida jaranglaganday bo'ladi.

Ichimni beadoq afsus-nadomat kemirib borardi. Abdusalom akani hechqursa, biror marta borib ko'rmaganimdan, u kishi chalgan sibizg'a nolalariidan mast bo'lmananimdan o'kindim. Harbiy xizmat chog'i uyni, qishloqni, qavm-u qarindoshni, xullas, olis va ovloq cho'llar qo'ynida qolib ketgan jamiki

ko'rgan-bilgan-tanigan insonlarimni qattiq qo'msaganimdan bo'lsa kerak, ustoz Abdusalom ham yodimga tushib, u kishini askarlikdan qaytgandayoq ziyyarat etishni, to'yimizga alohida, tantanali taklif etishni ko'ngilga tukkandim. Biroq kutilmagan tashvishlar bilan bo'libmi, yo o'zim beparvo, beburd odammanmi, ishqilib, ko'ngildagi reja ko'ngilda ko'milib qolib ketdi. Qismat meni yana bir bor g'ijimlab tashladi. Men ham do'stidan, ham ustozidan ajralib qolgan g'arib, bechora inson edim.

Nihoyat, ko'zlangan manzilga yetib keldik. To'p-to'p odamlar azador xonadon tomon shoshapisha borishardi. Yo'l bo'ylarida turli-tuman avtoulovlar tirband tizilgan.

– Iya, viloyat hokimi shu yerda-yov, ana, mashinasi, – dedi pochcham baland bir imorat yonida turgan qop-qora mashinaga ishora qilib.

Akam ham yon-veriga alanglab:

– Toshkentdan ham mehmonlar borga o'xshaydi,
– deb qo'ydi.

“Davron ham kelgan!” – degan o'y xayolimdan shuvullab o'tdi. Shu o'y barobarida yuragimga qandaydir tahlika, titroq sizib kirdi.

Azador xonadon tomondan ayol-bola-chaqalarning uvvos yig'isi baralla eshitila boshladi.

Biz adashmagan ekanmiz.

Janoza o'qilib, tobut yerdan ko'tarilib, qo'lma-qo'l bo'la boshlaganida bir to'p amaldornamo odamlar orasida xomush qo'zg'alayotgan Davronga ko'zim tushdi. Boshiga omonat qo'ndirilgan oppoq hoji qalpoq, egnidagi qimmatbaho, qop-qora charm kamzul, baland, tik qomat uni yig'ilganlar ichidan yaqqol ajratib turardi. Davron qo'ldan-qo'lga, yelkadan-yelkaga o'tayotgan tobut tomon har gal intilganda jonsarak

olomon beixtiyor unga yo'l bo'shatar, kimdir tanib, kimdir tanimay aft-angoriga bir zum angrayar edi.

"Allatovur, allatovur odamlar ham kepti, – deya hayratomuz shivirladi kimdir, – katta hokim bova ham shu yerda! Polvonning obro'si zo'r ekan-da, a?!

Yonidagi hamrohi xomush bosh irg'adi.

"Bechora umrida muncha izzat ko'rmagandi. Tiri lib ketmasaydi, deb qo'rqaman".

Tobut katta yo'l bo'yida hozirlab qo'yilgan yuk mashinasining ustiga avaylabgina qo'yildi. Bir to'p hassakashlar, qavm-u qarindosh ixrab-sixrab kuzov ustiga chiqib, tobut tevaragini o'rab olishdi. Dafn marosimiga yig'ilganlar bir zum to'zib, kimdir poy-u piyoda, kimdir avtoulovda qabriston tomonga jilishdi.

Chor-atrof allanechuk mahzun sukutga tolgan edi. Bahorning bodi shamoli ham kalovlanib dovdaraxtlar, ekinzorlar oralab ketdi. Quyuq, yam-yashil yaproqlar tebranib-tebranib mahzun shitirlaydi. Ko'm-ko'k maysalar to'lib-toshgan xo'rlikdek bezovta chayqaladi.

Dafn marosimi uzoq davom etdi. Biz qabristondan azador xonadonga yana qaytganimizda quyosh xiyla qiyalab qolgan edi.

– Hokimlar ketguncha chekkaroqqa chiqib turamiz, – dedi pochcham mashinasi eshigini ocharkan.

Shu payt beqasam to'n kiyib belini mahkam bog'lab olgan hassakashlardan biri yonimizga keldi.

– Sizni birov chaqiryapti, – dedi u menga yuzlanib.

Beixtiyor hassakashga ergasharkanman:

– Hozir kelaman, – deb qo'ydim pochchamga bosh irg'ab.

Akam ham ajablangan ko'yi ortimdan qarab qoldi.

– Mana shu hovliga kiring, – deb pichirladi hassakash azador xonadonga yaqin uylardan birining

yonida to‘xtab, – sizni kutib turishibdi.

Bo‘yoqlari oftobdan uniqqan darvozani qiya oolib ichkariga oyoq oshirdim. Shundoqqina ro‘paramda, temir suyanchiqli chorpojaga tirsak tiragan ko‘yi Davron turardi! Uning menga tik qadalgan sovuq nighohlarini ko‘rib negadir to‘xtab qoldim.

– Siz ham janozaga keldingizmi? – dedi istehzo bilan Davron, – betingiz bilan ketingiz birmi deyman.

Ajab! Tahlika, hayajonlarim bir lahzada tutunday tarqab ketdi. Hatto qarshimdagи mana shu bez, ters nusxani shuncha paytdau beri sog‘inib, xayolan oyog‘iga bosh urib yurganlarimdan xijolat tortdim.

– Sen o‘zing shundaysan. – dedim Davronga tik qarab, – ustozni bir tiyinga olmay, chiraniб yurishlaring esingdan chiqdими?

– Sen ustozni tilga olma, noloyiq, nomunosib jipiriqsan.

– Shuni aytgani chaqirdingmi? Gaping bo‘lsa, gapir! Sen bilan g‘ijillashib turishga vaqtim yo‘q.

Davron suyanchiqliqdan tirsagini olib qad kerdi.

– Voy-bo‘-o‘y, ham g‘arlik, ham o‘rlik-ku bu yog‘i. Ey, bilasanmi, hali oramiz ochilmagan.

– Bo‘pti, ochamiz, – dedim tobora polvonlik qonim ko‘pirib, – qachon, qayerda, ayt, men tayyor. Ko‘rsat maydonni!

Mendan bunday muomalani kutmaganmi, Davron bir zum sarosimalanib kinoyali tirjaygan ko‘yi bosh chayqab turdi.

– Yaxshi, bu gaping menga yoqdi, – dedi yana sovuqqon bir ohangda, – viloyat rahbarlari, bir master klass o‘tib bering, deb holi jonimga qo‘yishmayapti, bir oydan so‘ng Abdusalom polvon xotirasiga yosh kurashchilar o‘rtasida turnir o‘tkazamiz, dedim, shun-

da master klass ham bo‘lishini aytdim.

– Xo‘p, yaxshi, – to‘ng‘illab qo‘ydim men.

– Toshkentdan zo‘r-zo‘r championlarni opkelishimni tayinlashyapti. Men rozi bo‘lganday indamay qo‘ydim. Aslida hech kimni opkelmayman. Ikkovimiz olishamiz, ikkovimiz orani ochiq qilamiz, tushundingmi?

Davron so‘nggi so‘zlarni aytarkan, qoshlari chimirilib, ko‘zlaridan shafqatsiz uchqunlar sachrab ketdi.

– Roziman, qayoqqa desang boraman.

– Turnir Kengsoyda bo‘lib o‘tadi. Kelgusi oyning so‘nggi shanbasiga belgilaymiz. Qo‘rqma, hammasini o‘zim tashkil etaman, hokimlar gapimga kiradi.

– Menga baribir, orani ochiq qilishga tayyorman. Hammasi jonga tegdi o‘zi.

– O‘v, – deb yana istehzoli tirjaydi Davron, – shar timiz hali o‘z kuchida, unutma shuni.

Men indamay yana temir darvozaga yuzlandim.

Biz Absal polvonni mangu yo‘qotib qo‘ygan edik.

– Kengsoyga ham yaqinlashib qoldik, ey, uyg‘on!

Pochchamning chorloviga e’tibor bermagan bo‘ldim.

Yo‘lga chiqqanimizdan beri mashina o‘rindig‘i suyanchig‘iga bosh qo‘yib, ko‘zlarimni yumib, bir og‘iz ham gapirmay kelayotganim uchun u hoynahoy meni allaqachon uqlab qolgan degan xayolga bordi. Qani endi chindan ham dong qotib yotgan bo‘lsam?! Qani endi, bir umr qaroqlarim ochilmasa? Axir, Kengsoyda, beg‘ubor bolaligim, sho‘x-sha’n o‘smirlilik davrim o‘tgan bu qishloqda meni bemisl sharmandalik kutib turibdi-ku?! Gazetalarda yozishganday, ikki marta O‘zbekiston, bir karra Osiyo championi, qator xalqaro musobaqalar sovrindori D.Tirkashev yeng shimarib, qasos olovida yonib, yo‘llarimga mahtal ko‘z tik-

kan-ku!

Mana, ustoz Abdusalomning janozasidan beri ropa-rosa bir oy o'tdi. Bir oy meni Davronning sovuq nigoohlari, istehzolari, kinoyali kulishlari ta'qib qilib turdi. O'sha kuni beayov, beshafqat raqibim bilan ahflashib, qasdashib mashina yoniga qaytganimda pochcham va akam menga ajabsinib, xavotirlanib ko'z tikishdi.

"Yettilik xudoyiga hamma shogirdlar yig'ilishi shart ekan, shuni tayinlagani chaqirishibdi", – deb qo'ydim o'zimcha qo'l siltab.

Ammo asabiylikdanmi, hayajondanmi hanuz bo'-g'inlarim bo'shashib turardi. Akam darrov xotirjam tortib, tili tagiga yana nosvoy tashlab olgan bo'lsa-da, pochcham gaplarimga ishonqiramay yo'l-yo'lakay menga savolchan-sinovchan ko'z tashlab qo'yar edi. Baribir chidayolmay o'sha kuni kechki payt pochchamga dardimni aytdim. U kishi ham bir paytlar, yarim tunda xotinim aytgan gaplarni xuddi kelishib olganday takrorladi.

"Raisning shu arzandasidan qaering kam, a, nimang kam? Sen ham shug'ullan, mashq qil, ko'tarib yerga ur shu championini, ikkinchi men zo'rman deb boshqa maqtanmaydigan bo'lsin".

Pochcham shunchaki pand-nasihat bilan cheklanib qolmadni. Meni har kuni tuman markaziga olib borib, kechgacha sport bilan shug'ullanishga majbur qildi. Hatto shahardan qachonlardir dzyudo bo'yicha xizmat ko'rsatgan, yoshi qirqni qiyib o'tgan Salmon ismili chechen murabbiyni mo'maygina haq evaziga yollab, izzat-ikrom bilan boshlab keldi. Ammo unga asl maqsadimizni aytmadik. Salmon biz kutgandan ham ortiq qattiqko'l, injiq, o'z ishiga puxta chiqib qoldi. U ikki hafta betinim shug'ullantirib meni polvon surob

qilib qo‘ydi. Ammo Davronning sovuq nigohlarini, kinoyali kulishlari-yu g‘olibona istehzolarini eslasam yana ichimdan irib jo‘nardim. O‘sha kuni u bilan tikkama-tikka tillashishga qanday jur’at etganimga o‘zim ham hayron edim. O‘sha jur’at, o‘sha o‘rlik sahro sarobiday qaylargadir singib yo‘qoldi.

Kun bo‘yi mashq-mashg‘ulotlarda charchaganimdan, bu yog‘i ta‘bim tirriqligidan harchand urinsam-da uyda qosh-qobog‘im ochilmas edi. Bu holni Tanzila hali-hanuz ustozim qazosiga qayg‘urib yurganimdan deb bilibmi, harnechuk, ortiqcha so‘roq-tergovga olmay, ko‘nglimga qarardi.

Men, ayniqsa, turnirning aynan Kengsoyda bo‘lib o‘tishi haqida dahshat va vahimaga tushib o‘ylardim. Qanchalar yovuzona reja bu?!

Birinchi jahon urushida yengilgan Germaniya lashkarboshilarini g‘olib Fransiya hukumati qandaydir o‘rmon qo‘ynida, qandaydir vagon ichida taslim bo‘lganligi haqidagi hujjatga imzo chektirgan ekan. Ammo shunday sharmandali mag‘lubiyat ham nemislar ko‘nglidan vatanparvarlik tuyg‘usini, qasos hissini yo‘q qila olmabdi. Germaniyaliklar o‘sha qora kunga guvoh vagonni bir omborxonaga yashirib qo‘yishgan emish. Ikkinci jahon urushi davrida Fransiyani bir hamla bilan tiz cho‘ktirgan Germaniya o‘sha vagonni o‘sha o‘rmonga olib kelgan, mag‘lub taraf uning ichida yengilganligi haqidagi qog‘ozga qo‘l qo‘ygan ekan.

Tarix darslaridan ham tuzukkina baholar olib yurdigan Davron, hoynahoy, shu voqeani eslagan va meni shu tarzda jazolashni diliga tukkan ko‘rinadi. Ha, bu champion, nihoyat, qochoq qashqirni qora qafasga qamadi! Meni endi na Salmonning murabbiyligi, na Tanzila, na pochchamning taskin-tasallisi qutqara ola-

di. Men Kengsoyda, qadrdon qishlog‘imda, el-u xalq ko‘z o‘ngida sharmanda-yu sharmisor bo‘lishga mahkumman, mahkum. Aslida ham... bu baribir qachonlardir sodir bo‘lishi kerak edi.

Men umidsizlana boshladim. Uzun tig‘li pichoqni qayrab safar xaltamga solib qo‘ydim.

“O‘ldiraman! Aval unga, keyin o‘zimga pichoq uraman!” – de gan o‘y kallamda charx urib yurardi.

Pochcham so‘nggi rejalarimdan bexabar, xudi ko‘pkariga kirar otni ko‘zdan kechirayotgandek, meni tez-tez ko‘rikdan o‘tkazadi, bel-bilaklarimni ushlab-ushlab o‘zicha mamnun bosh irg‘aydi.

“Xorazmcha aytganda, janli, bir chempionga shuyog‘i ham yetib-ortadi” – deb qo‘yadi iljayib.

Biroq shu kez shundoqqina qarshimda boshqa bir iljaygan, tirjaygan bashara meni ta’qib qilib turganini bilmaydi.

“O‘v, shartlarimiz hali kuchida, unutma shuni”.

Davronning sovuqqonlik bilan aytgan bu gaplari quloqlarim ostida bot-bot aks-sado berib a’zoyi badanlarimni muzlatib yuboradi. Uning nelarni nazarida tutganini tusmollar ekanman, alam, g‘azab, xavotir yuragimni g‘ijimlay boshlaydi.

Xotinini qimorga yutqazib qo‘yanlar, qarzga botib, evaziga ayolini qo‘sh-qo‘llab tutqazganlar qismati haqida eshitganlarim bir-bir xayolimda aylanadi.

“Hech qachon! Hech qachon! – deb ich-ichimda bo‘kiraman safar to‘rvamdag‘i pichoqni paypaslab. – Ko‘zim ochiq ekan, bunga hech qachon yo‘l qo‘ymayan”.

Pochcham kecha ertaroq uyquga yotib, yaxshilab dam olishimni tayinlagan edi. Ammo alam-iztirob iskanjasida mijja qoqmadir. Bolalik xotiralari, sevgi kechinmalari bir-bir ko‘z oldimdan kapalakdek

qanot qoqib o'tdi, xayollarim sertuproq yo'lning chang-to'zonlaridek to'zidi. Shiringina uxlab yotgan qizaloqlarimga, mohitobon Tanzilamga termulib to'y-mayman. Men to'lg'onaverib ularni bezovta qilishdan qo'rqib, bir paytlar xotinim qimtinibgina o'tirib, unsiz yig'lagan burchakka tiqilib oldim. Xo'rligim toshdi. Ko'zlarimdan silqib chiqqan yoshni kaftlarim bilan artib, o'kirib yubormaslik uchun taxmondagi ko'rpachalarga yuzimni bosdim.

Bir payt Tanzila ilkis boshini ko'tardi. Qizaloqlarim ustidagi yopinchiqni to'g'rilab qo'ygan bo'ldi-da, sharpaday sirpanib, tunchiroqning sarg'ish-qizg'ish yog'dulariga qorishib yonimga keldi. Bo'ynimdan hech gap-so'zsiz quchib, boshimni ko'kragiga bosdi:

"Hammasidan xabarim bor, – deb pichirladi sochlrimni silab, – kengsoyliklar manglayingizga nomard degan tamg'a bosib jo'natishsayam men sizdan voz kechmayman. Mening or-nomusim ham, shon-shuhratim ham siz-ku! Sizning kimligingizni Tanzilaning yuragi o'sha tutzor yoqasidayoq bilib bo'lgan. Butun dunyo boshingizdan malomat yog'dirsayam u hech qachon o'chmaydi. Noma'qul xayollarni kalladan chiqarib, endi biroz dam oling".

Ajab, xotinimning shivirlarini alladay tinglab o'tirgan joyimda ko'zim ilashibdi! Ertalab allanechuk tetiklanib, fikrlarim tiniqlashib turdim.

– Ey, ey, polvon, – deb yelkamga turtdi pochcham mashinasini bir chekkada to'xtatib, – Kengsoyga keldik, uyg'onsang-chi.

Men og'ir qo'zg'alib ko'zlarimni ochdim.

Chor-atrof shomning kuygan kuliday kirchil ko'y-lagiga burkangan edi. Tanish tutzor, tanish yo'llar, uzoqdagi uy-imoratlar g'ira-shira ko'zga tashlana-di. Yonginamizdan besh-oltita qo'y-qo'zini haydab

o'tayotgan qariyani pochcham gapga tutdi.

– Assalomu alaykum, bovajon, hormang. Kengsoy shumi?

– Vaalaykum, ha, shu.

– Qishloqda nima gaplar, bova?

– To'y bo'layapti, tomosha bo'layapti. Quvondiq qaysar choshgohdan beri butun qishloqqa osh tortib yotibdi. Kazo-kazo kattakonlar ham shu yerda. Hozir olish boshlanadi.

Chol mollarini haydaganicha bizdan uzoqlashdi.

– Umuman olganda, bunaqa rasmiy turnirlar kunduzi bo'lardi, nega bular, kechki payt o'tkazyapti, bilmadim, – deb qo'ydi pochcham ajablanib.

Sababini juda yaxshi bilsam-da, men indamay yelka qisib qo'ya qoldim.

Katta yo'l tarafdan shitob bilan kelgan ikki mashina chiroqlarini yoqib-o'chirib, yonginamizdan g'i-zillab o'tib ketdi. Hoynahoy, ular ham kurash tomoshasiga oshiqayotgan edi.

– Biz ham seki-in boraveramiz, birato'la kiyinib olgin, – dedi pochcham ma'noli bosh irg'ab.

Men intilib orqa o'rindiqdagi safar xaltamni oldim-da mashinadan tushdim. Qadrdon qishloqqa qadam qo'yganimni qutlayotganday yengil epkin yuz-ko'zlarimni silab o'tdi. Dimog'imga tanish, juda tanish dala-dasht isi gupillab urildi.

Nazarimda, tutzor tarafdan "Kengsoy burgutlari" qiyqirishgan ko'yi otlib chiqadigandek, qo'rinqinchli tushimni to'zitib, meni og'ir, talvasali uyqudan uyg'otib yuboradigandek edi. Afsuski hammasi hu-shimda, ko'zim tiyra, aqlim tiniq holimda ro'y berardi. Sal naridagi tutzor ham shamolda shitirlab, go'yo menga hamdardlik bildirardi.

Men egnimga polvonlik yaktagimni, oyog'imga

maxsus charm poyafzalimni kiyib, yana choperonimga burkanib olarkanman, safar xaltamdag'i o'tkir tig' pi-chog'imni paypaslab qo'ydim. Tanzilaning dil izhorlariga qaramay, qaltis rejam hali-hanuz ko'nglimning bir chekkasida pusib-poylab turardi.

— Bo'l, tezroq, boshlanib ketdi-yov, — deb qo'ydi pochcham mashina motorini o't oldirib.

Xuddi uning tusmolini tasdiqlaganday qishloq tomondan tomoshatalablarining hayqirig'i osmonga o'rladi.

Mashina qo'zg'aldi.

Biz Absal polvonni mangu yo'qotib qo'ygan edik.

Qishloq ko'tarma polvonning ko'ngliday o'z quvonchiga o'zi qorishib yotardi. Ko'cha-ko'y supirib-sidirlgan, baland imoratlar peshtoqiga, yo'l bo'ylariga har xil shiorlar, bayroqlar osilgan edi. Son-sanoqsiz lampa-chiroqlardan charog'on maktab stadionida odam qaynaydi. Dush kelgan joyga qantarib qo'yilgan mashinalar oralab yashinmachoq o'ynayotgan qora-qura bolakaylor u yon-bu yon g'ir-g'ir yugurishi. Tillatusda tovlanib turgan stadionda g'ala-g'ovur, qiy-chuv avjida edi.

Keng maydonning to'rt tarafida, maktabdan tashib chiqilgan qator-qator parta, stol-stullarda mehmon nusxalar, ayollar, qari-qartanglar o'tirishar, o'rindiq tegmagan tomoshatalablar odatdagidek bir-birini itarib-surib tik turishar, davraning uch-to'rt joyida juft-juft bo'lib bellashayotgan polvon bolakaylarni zavq-shavq bilan kuzatishar, ahyon-ahyon kurash-chilardan birortasi raqibini yiqitgan payt, guvullab yuborishar edi. Biz ham tomoshabinlar siyrakroq joydan suqilib, qulayroq o'mashib oldik. Davra to'ridagi, alohida yasatilgan joyda qo'r to'kkani kazo-kazo rahbarlarni olisdan ko'rgandayoq pochcham

egilib-bukilib, qo'li ko'ksidan tushmay qoldi. Ilgarigi amaldorlik shlyapasi o'rniga do'ppini dol qo'ndirgan Quvondiq qaysar ham rahbarlar to'pida har doimgidek qoyaday qad kerib maydonni loqayd va napisand kuzatib o'tirardi.

– Xap-pa-a!

Qotmagina yosh polvon shunday chinqiriq bilan raqibini boshidan oshirib tashladi.

Davra yana guvullab yubordi.

Ahyon-ahyon hushtagini churillatib, kurashchilar atrofida charx urib aylanayotgan, sport liboslari lampachiroq yog'dusida yalt-yult qilayotgan hakamlar, har-har joyda, murabbiylar nazoratida, yaktak kiyib, bel bog'lab shaylangan bolalar, polvonlarning oti-zotini, sovrin-sovg'alarni mikrofonda e'lon qilishlar davraga chala rasmiy tus bergen bo'lsa-da, maydonga qalin to'shalgan xas-xashak, g'ala-g'ovur, qiyqiriqlar to'y-hashamlarda odatiy kurash tomoshalarini eslatar edi. Men, ayniqsa, barragina kurashchilarining chapdast-chaqqon bellashuvini ko'rib bolalik chog'larim, Davron bilan davralarda zavq-shavqqa ko'milib yurgan kezlarim ko'z oldimda lip-lip jonlanib, g'alati hislar og'ushida qolgan edim. Qoshimgacha qoplab turgan qalpoq ostidan atrofimga ko'z yogurtirib, do'st-u qadrdonlarni, tanish-bilishlarni ilhaq-intizor izlayman. Ammo odam ko'pligidanmi yo bezovta bir tarzda turganimdanmi, har nechuk, yon-verimda birorta ham qadrdon qiyofani ilg'ay olmadim. Faqtgina maydondagi hakamlar yonida, tantana egasi o'rnidami yo turnirning alohida qahramoni sifatidami, vazmin kezinib turgan Davronga ko'zim tushardi.

– Halo-o-o! – tuyqus hayqirib yubordi olomon.

Ular alohida olqishlaganidan hozirgina raqibini yiqitgan o'spirin kengsoylik bo'lsa kerak, degan xa-

yolga bordim. Shu orada maydonning bir chekkasida ko‘pdan beri bir-birini yiqitolmay, surishib-tirashib yurgan polvonlarni hakam ajratib, durang natija e’lon qildi, ammo qaynoq qon yoshlari allanima deya silkinishib, qarorga norozilik bildirgan bo‘lishdi.

Mag‘lublar bosh egib, g‘oliblar gerdayib, sovrinsovg‘ani olib davrani tark etishar, maydonda yangi-yangi juftliklar paydo bo‘lishar, bosh hakam erinmay, qog‘ozdag‘i yozuvlarga qarab ularni mikrofon orqali xalqqa tanishtirar, qo‘yilgan sovrinni e’lon qilar edi.

— Ushbu juftlikka, tuman sog‘lijni saqlash bo‘limi tomonidan eng kam ish haqi barobarida mukofot ajratilgan! Marhamat, halol kurashib, sovrin ga egalik qiling, aziz yoshlari!

Davra eshitganlarini qiyqirgan ko‘yi ma’qullab qo‘yadi.

To‘nkarilgan qozondek qop-qora osmon toqida yulduzlar g‘ujg‘on o‘ynaydi. Go‘yo ular ham hurkib, miltirab kurash maydonini kuzatishadi.

“Bizning yana qasdlashganimizdan odamlar xabar dornikan, – deb o‘ylayman yon-verimdagilarning yuz-ko‘ziga sinchkov qarab, – yo‘q, menimcha, Davron bu gal sir saqlagan ko‘rinadi”.

Pochcham kurash tomoshasi bir chekkada qolib, hali-hanuz kazo-kazolarni ixlos bilan kuzatar, hoyna hoy, ularga ko‘rinish, qo‘l olib ko‘rishish ishtiyoyida yonar edi.

Bir payt bosh hakam mikrofonni qitirlatib sudragan ko‘yi o‘rtaga chiqdi.

— Hurmatli kengsoyliklar, aziz mehmonlar, – deb ehtirom bilan gap boshladи u atrofiga alanglab, – xalqimizning ardoqli farzandi, marhum Abdusalom polvonning xotirasiga bag‘ishlangan turnirimiz,

viloyat yosh kurashchilar o'rtasidagi musobaqa davom etadi. Sir emas, bugungi tadbirimizga tumanimizning, viloyatimizning, qolaversa, butun respublikaning faxr-iftixori bo'lmish, kurash bo'yicha Osiyo championi, qator xalqaro musobaqalar sovrindori Davronbek Tirkashev tashrif buyurgan!

Davra gulduros solib hayqirib qo'ydi. Ayniqsa, o'z murabbiylari yonida to'p-to'p turgan bolalar alohida hurmat-izzat ko'rsatib qarsak chalib yuborishdi.

– Shuning uchun, shuning uchun... – deya bosh hakam qo'l ko'tarib, davrani tinchlantirgan bo'ldi, – bu yerda o'tirgan muhtaram rahbarlarimizdan, hurmatli oqsoqollardan bir taklif tushayapti. Davronbekning kurashini ham bi-ir tomosha qilaylik, kengsoylik polvonimiz yoshlarga o'z mahoratini ko'rsatsin, deyishyapti ular. Sizlar bu taklifga qanday qaraysizlar?! Ana undan keyin musobaqamiz yana davom etaveradi.

Davra qiy-chuv, qiyqiriqlar bilan bosh hakamning gaplarini ma'qullagan bo'ldi. Ayniqsa, yosh polvonlar shavqqa to'lib-toshib chapak chalishar, betinim irg'ishlashar edi.

– Bu yerda katta polvonlar ko'rinxmayapti, Davronbekka talabgor topilarmikan? – deb qichqirdi kimdir.

Bosh hakam uning gapini ma'qullaganday bosh irg'ab iljaydi.

– Xudoga shukur, yurtimiz polvonlar yurti. Championni bir ko'rsam, gupillatib yerga ursam, deb chekka-chukkada yurgan azamatlar topilib qolsa kerak.

Davrada gurr kulgi ko'tarildi.

Mendan ko'ra ko'proq hayajonlanayotgan pochcham qo'limni mahkam qisib, silkitib qo'ydi.

Shu payt kazo-kazolarning yaqinida qo'l qovushtirib turgan Davron vazmin qadamlar bilan

o‘rtaga chiqdi-da, tomoshabinlarning olqish u qarsaklariga ko‘milib to‘rt tomonga o‘zicha ta’zim qilgan bo‘ldi. So‘ng bosh hakamning qo‘lidan mikrofonni olib:

– Eng avvalo e’tibor uchun rahmat, – deya o‘ng kaftini yana ko‘ksiga qo‘ydi, – biz xalq xizmatidagi o‘g‘illarmiz, shuning uchun oqsoqollarning taklifini qabul qilaman.

Davrada tag‘in qiy-chuv ko‘kka o‘rladi.

– Lekin bir iltimosim bor, – deb gapida davom etdi Davron bosh hakamga yuzlanib, – bizning kurash rasmiy emas, shunchaki, xalqona bo‘ladi, shuning uchun to‘y-tomoshalarda bakovullik qilib yurgan yurtdoshlarimizdan birini taklif etsak, bizning kurashni kuzatib tursalar.

– Marhamat, juda yaxshi, – deb chinqirdi bosh hakam, – siz o‘zingiz aynan kim bakovul bo‘lishini istaysiz?

Davron atrofga o‘zicha bir alanglab qo‘ydi.

– Men qishlog‘imizdagи juda ko‘p kurash tomoshalarida bakovullik qilgan Ergash akani tanlangan bo‘lardim. Agar u kishi davrada bo‘lsalar, marhamat, o‘rtaga chiqsalar. Bu kishi halolligi, xolisligi bilan har doim elning hurmatini qozonib kelgan.

– Ergash aka, shu yerdamisiz – deb chorladi bosh hakam championning qo‘lidan mikrofonni olib. – Marhamat, maydonga chiqing.

Davrada g‘ala-g‘ovur, jonsaraklik qo‘pdi.

“Ax, maraz, hammasini puxta o‘ylabdi! Domlaning to‘yini aynan takrorlamoqchi bu!” – degan xayol butun vujudimda chaqmoqday chaqib o‘tdi.

Birozdan so‘ng davraning qay bir burchidan Ergash mirob sidrilib o‘rtaga chiqdi. Ancha to‘lishib, lapanglab qolibdi. Hatto soqol ham qo‘yib yuborib-

di. Tomoshabinlar qiyqiriqlar bilan uni ham olqishlab qo‘ygan bo‘lishdi.

– Baribir championimizga talabgor chiqmaydi, o‘zim olishadiganga o‘xshayman, – deb hazil qilgan bo‘ldi Ergash aka.

Shu orada polvonlik liboslarini kiyib o‘rtaga chiqqan Davron davrani vazmin aylana boshladi. Kazo-kazolar to‘pi ham avval-u oxir voqyealarni qiziqish bilan kuzatib o‘tirardi.

– Shahri Toshkentdan kelgan Davron polvon Quvondiq o‘g‘li! Qani, unga talabgor bormi? – deya qichqirdi bir soatlik bakovul u yon-bu yon yuzlanib.

“Ukkag‘ar, pismiqi, – xayolimdan o‘tdi mening, – atay “Quvondiq o‘g‘li” deb qo‘ydi. Sobiq raisga yaxshi ko‘rinmoqchi”.

– Qani, davra sovimasin, polvonjonlar, maydon mahtal bo‘lmasin, – deb yana hayqirdi Ergash mirob.

Pochcham ko‘zlari chaqnab yelkamdan quchdi.

– Xudo yuzingni yorug‘ qilsin, qaynim, qani, chiqa qol.

Men odamlar dabdurustdan tanib qolishidan cho‘chib, choponimni, qalpog‘imni yechmay o‘rtaga oyoq bosdim. Ammo uch-to‘rt qadam qo‘yar-qo‘ymasim:

– Iya, bu o‘zimizning Norsoat-ku! – deya qichqirib yubordi kimdir.

Davrada g‘ala-g‘ovur, shivir-shivir jonlandi. Tuyqus meni tanib qolgan bakovulning ham rang-ro‘yi o‘zgarib, viqor bilan yurinib turgan joyida taqqa to‘xtadi, kazo-kazolar tomonga xavotirli ko‘z tashlab qo‘ydi. Faqatgina Davron bu voqealarning o‘ziga sira daxli yo‘qday, oyoq ostidagi poxol to‘shamadan ko‘z uzmay davra aylanib turardi.

Men yana joyimga qaytib, choponimni, qal-

pog‘imni yechib pochchamga tutqazarkanman, tevarakdagi shivir-shivirlar qulog‘imga chalindi.

“Ilgari bir to‘yda Davronni shu chalpak qilib urgandi”.

“Esimda, qandaydir qizni talashib, garov o‘ynashgan”.

“G‘irrom olishgan ekan deb men eshitib edim”.

“O‘sha qiz keyin nima bo‘ldi ekan?”

“Bilmadim... boshqa birovga tegib ketdi-yov”.

“Ketdik, kengsoyliklardan so‘raymiz”.

“Match revansh...” – dedi pixillab kimdir.

Odamlarning gap-so‘zlaridan, davraning zavq-shavqidan men ancha tetiklashib, jo‘sib qolgan edim.

– Norsoat polvon Eshqobil o‘g‘li, – deb bakovul meni davraga tanishtirgan bo‘ldi, so‘ng bosh hakam qo‘liga tutqazgan bir parcha qog‘ozga ko‘z yogurtirib e‘lon qildi, – bu kurashchilarga viloyat hokimligining maxsus sovrini tikildi-i-i!..

Biz yuzma-yuz keldik.

Davron bir intilib yoqamdan tutdi. Men bir qo‘lim bilan uning bilagiga, ikkinchisi bilan belbog‘iga chang soldim. Biroq bamisli ulkan qoyaning bo‘rtiq toshini ushlaganday bo‘ldim. Davron meni biroz sudraklab, so‘ng qo‘yib yubordi-da davra aylana ketdi.

Boyagina badanimga yugurgan tetiklikdan asar ham qolmadı. Axir, ushlaganday oq raqibimning barmoq uchlarigacha kuch-quvvatga to‘laligini, metindek mustahkamligini yaqqol his qildim!

– Ha, polvonjonlar, bo‘sashmanglar, – deb qo‘ydi bakovul.

Yana bir-birimizga tashlandik. Bu gal Davron botinmaganday belbog‘imdan tutdi. Men uning yomasidan g‘ijimlab ushладим. Ushладим-u odatiy bir tarzda raqibimni kuch bilan siltab tortdim. Bilmadim,

chindan muvozanatni yo'qotdimi yo atay qildimi,
Davron nogoh poxol to'shama ustiga tizzalab qoldi.

Davra guvullab yubordi.

"Domlaning to'yida men ham ikkinchi qafasda
cho'k tushgandim" – degan o'y lop etib xayolimdan
o'tdi.

Men raqibim yoqasini bo'shatib davra aylana ket-dim. Davron ham belbog'ini qayta bog'lay-bog'lay izimdan ergashdi. Tomoshabinlar orasida menga hay-ratomuz, xayrixoh tikilgan nigohlarni ilg'arkanman, bel-bilaklarimga yana andak tetiklik indi.

Champion shartta ortga burildi-da, ko'zlarida allanechuk uchqunlar porlab hujumga o'tdi. Men qo'l-larimni oldga cho'zib yana yoqadan tutishni mo'l-jalladim. Biroq shu payt o'ng barmoqlarim orasidan Davron baquvvat panjalarini o'tkazib olib, ikkinchi qo'li bilan chap tirsagimdan tutdi. Men beixtiyor raqibning ko'zlariga qaradim.

– Shunaqamidi usuling? – deb pichirladi u yuzlarda istehzo o'ynab.

Muqarrar og'riqni his qilib aftim burishib ketdi.

– Shu bilan ko'ngling to'lsa, qayirib yubora qol...

Ammo Davron bir sultanib meni bo'shatdi-yu, yana vazmin, o'ychan alfozda davra aylana boshladи. Taqilangan sambo usulining boyagi tahdididan men hanuz dovdirab turardim.

"Hal qiluvchi qafas bo'ladi hozir", – xayolimdan lip o'tdi mening.

Kalovlanib davra aylanarkanman, biror bahona bilan joyimga borib, pichoqni qo'ynimga solib olish rejasini tuzardim. Ammo fursat yetmadi.

Biz yana betma-bet hujumga o'tdik. Bu gal Davron op-oson ham yoqamdan, ham belbog'imdan mah-kam tutdi. Raqibimning yaktagini omonatgina ush-

lagan qo'llarim deyarli bemajol osilib turardi. Raqib bu holatda meni bemałol belidan oshirib yerga urishi tayin edi. Ammo Davron kutilmaganda bir-ikki usul-lar qo'llagan bo'ldi-yu, xuddi mening siltovimdan silkinganday bir payt dustaman quladi.

Davra yana guvillab yubordi.

Men... men... Davron atay yiqilganini yetmish ikki tomirim bilan his qilib turardim. Es-hushim karaxt qotdi.

Bir payt raqibim go'yo arang qo'zg'alib o'rnidan turdi-da, qo'llarini yoyib, bakovulga bosh chayqadi.

— Bo'ldi. Men boshqa olisha olmayman. Tan berdim.

Davragna tuyqus jimlik indi.

— Yaxshi eshitmay qoldim, Davronboy, — deb tal-movsiradi bakovui — biroz dam olmoqchimisiz?

Ammo Davron vazmin qadamlar bilan borib bosh hakamning qo'lidan mikrofonni oldi.

— Hurmatli yurtdoshlar, — dedi go'yoki hansirab, — to'g'risi, dunyo kezib, qancha-qancha musobaqalarda qatnashib, men hali bunday polvonni uchratmadim. Men unga tan berib, davradan chiqaman. O'z qishlog'imda yelkam yer iskashini xohlamayman. Bilmaganlar bilib qo'ysin, Norsoat dunyodagi eng kuchli polvon ekan.

Davron shunday dedi-yu, bosh hakam uzatgan to'nni yelkasiga ilib, yana to'rt tomonga ta'zim qildi.

Davra guvullab, gulduros qarsak chalib yubordi.

Men hang-u mang, ko'r-u kar holatda joyimda qotib qolgan edim. Pochcham chopqillab kelib qo'limdan yetaklab ketdi.

Davron yana mikrofonni qo'liga oldi.

— Aziz yurtdoshlarim, sizlardan, mana bu yerda o'tirgan ustoz Abdusalom akaning farzandlaridan, oqsoqollardan bir iltimosim bor edi. Agar meni chin-

danam yaxshi ko'rsalaringiz, ustozdan yodgorlik qolgan sibizg'anı menga bersangizlar, iltimos.

Davra yana gulduros qarsaklar, qiyqiriqlar bilan championni olqishlashdi.

Bu orada oyoqqa turib ketgan Quvondiq qaysar qoyaday qad kerib chor-atrofga mammun iljayangancha ko'z tashlar, kimlargadir allanima deya bosh irg'ar edi.

Men ich-ichimdan quyunday qo'zg'algan quvonch-u xo'rlikka qorishib Davrondan ko'z uzmay turardim. Do'stim yonidagi bosh hakamga nimadir dedi-yu sekin sidrilib davra tashqarisiga chiqib ketdi.

— Qani, yosh polvonlar, yana davraga marhamat, — dedi bosh hakam tag'in mikrofonni qo'liga olib.

Men ham odamlarni surib-turtib davra tashiga chiqdim. Muzdek epkin yuz-ko'zimni xush silab o'tdi.

Yuragim gurs-gurs urgan ko'yi Davron ketgan tomonni tusmollab jo'nadim. Adashmagan ekanman. Do'stim yelkasiga og'ir yuk ortilgan hammolday mashinalar tomon og'ir-og'ir odimlardi. Ortidan yugurdim.

— Davron, — dedim tovushim titrab, — do'stim...

U ohista ortiga c'girildi. Men uch-to'rt qadam berida beixtiyor to'xtab qoldim.

— Nega unday qilding, nega?

— Sen... sen rostdanam dunyodagi eng kuchli, eng dovyurak polvonsan, Norsoat.

Tomog'imga tiqilgan quvonch-u xo'rlik ko'zlarimdan tirqirab chiqa boshladi.

— Kechir meni, do'stim, iltimos, kechir.

— Yo'q, sen kechir, — dedi Davron ham tovushi titrab, — senga ko'p ozor berdim.

Ovozim tobora xirillab, so'nik chiqardi.

— Sen mard, haloł insonsan...

– Yo‘q, senga teng kelolmayman, – dedi Davron kaftlarini ko‘ziga tegizib olarkan, sen mardlarcha sevgining quli bo‘lolding, men esa holi sevgining o‘zini ham topolganim yo‘q.

Biz yuzma-yuz turib qoldik.

– Qanchadan-qancha maydonga tushdim, ne bi polvonlarni yiqitdim, – dedi Davron chuqur tin olib,
– lekin doim o‘zimni mag‘lubday his qildim, hech ko‘nglim ko‘tarilmadi.

– Nega, axir...

– Chunki Tanzila urgan shapaloqning achchig‘i, ko‘zlaridagi nafrat meni doim quvib yurdi.

– Iltimos, bizni kechir, Davron, – dedim ochiq-oshkora ko‘z yoshlarga qorishib.

Do‘stim og‘ir-og‘ir bosh chayqab, uzun uff tortib yubordi.

– Dunyo kezib, ikki haqiqatni angladim, Norsoat, eng birinchisi chin polvonning joyi panada ekan, shuni bildim. Ikkinchisi... har polvonning o‘z sibizg‘asi bo‘lsin ekan...

– Ustozning go‘ri nurga to‘lsin, iloyo.

– Ha, u inson ming-ming marta haq ekan.

Biz Absal polvonni yana qayta topib olgan edik.

– Hali ham devday kuchli ekansan.

– Men toqqa turtinib ketganday bo‘ldim boyta.

– Norsoat, – dedi do‘stim musht qilib tugilgan qo‘lini boshi uzra ko‘tararkan.

– Davron, – dedim men ham havoga qo‘l sermab.

– Quyosh hali botmag'an!

Ikkimizning hayqirig‘imizdan ko‘k to‘la yulduzlar to‘zib yelkamizga sochilganday bo‘ldi.

Adabiy-badiiy nashr

Luqmon BO'RIXON

QUYOSH HALI BOTMAGAN

Muharrir	<i>Go'zal Matyoqubova</i>
Badiy muharrir	<i>Oloviddin Sobir o'g'li</i>
Texnik muharrir	<i>Dilmurod Jalilov</i>
Sahifalovchi	<i>Bobur Tuxtarov</i>
Musahhih	<i>Rayxon Ibragimova</i>

:

Nashriyot litsenziyasi AI № 315. 24.11.2017.

2018-yil 15-martda bosishga ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 ½. Times New Roman garniturası.

Ofset bosma. 9,75 shartli bosma toboq. 8,65 nashr tobog'i.

Adadi 10000 nusxa. 7 raqamli buyurtma.

Bahosi shartnoması asosida

Yoshlar nashriyot uyi. Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 11-uy.

«ELIZABET PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Yalta ko'chasi, 17-uy.

10798-00

544501
B824

ISBN 978-9943-5220-0-8

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-5220-0-8.

9 789943 522008